

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“MUSIQA TA'LIMI” KAFEDRASI



“O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI” FANI
BAKALAVRIYAT YO'NALISHI:
5111100 – MUSIQA TA'LIMI TALABALARI UCHUN
MA'RUZA MATNI
(II-kurslar uchun)

Tuzuvchi: Boltayev R.K.

Urganch 2017

1.Mavzu: O'zbek xalq musiqasi janrlari

O'zbek xalqining o'z ildizlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi bizning hozirgi kunlarimizda ham yangramokda. U o'zining xalq ijodi (ya'ni, folklor) hamda kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan ashula va cholg'u asarlari – dostonlar va maqom musiqasini birlashtiradi. Qahramonlik hamda qahramonona – lirik mazmundagi epik asarlar–dostonlar ham muhim o'rin egallaydi. O'zbek cholg'u asboblari hamda musiqa amaliyoti va ijrochiligi uslublari bilan bog'liq bo'lgan cholg'u musiqa janrdari ham g'oyat rang-barangligi va boyligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek musiqa folklori xar qanday xalq ijodi kabi mehatkashlarning orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi, sotsial va milliy ozodlik uchun kurashning ifodasi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi ham ana shu bilan bog'liqdir.

O'zbek qo'shiq-ashulalari va cholg'u musiqasi janrlari o'z funktsiyasi va turmushda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruhni tashkil etadi.

Birinchisi – ma'lum vaqt yoki ma'lum muddat sharoitidagina ijro etiladigan ashulalar va cholg'u kuylari. Bular: *oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari. Allalar hamda har xil tantana, tomosha kabi ma-rosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylaridir.*

Ikkinchisi – istalgan vaqtda va har qanday sharoitda ijro etiladigan ashula-qo'shiq va cholg'u kuylari. Ularga: *lapar, yalla, ashula, qo'shiq. cholg'u kuylari, cho'lama va dostonchilik kuylari kiradi.*

Har bir guruh o'ziga xos xarakterli belgilarga ega. Masalan: ijro etilishi ma'lum vaqt yoki sharoitni taqozo qiladigan birinchi guruh ashula-qo'shiq, janrlarining mavzui muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog'liq bo'lib, undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi. Ba'zan uchrab turadigan bosh mavzudan chetlashishlar lirik o'ychanlik va umumlashtirilgan nasihatgo'yliklar doyrasida buladi.

Bulardan «yor-yor» qo'shiqlari xalq orasida qadimdan mavjud bo'lib, ularning namunalari Muzayyana Alaviyaning «O'zbek xalq marosimi qo'shiqlari» kitobida ham anchagina yoritilgan.

«Yor-yor»larning mavzu doyrasi juda keng bo'lib, unda goh hazil, goh quvnoq, goh yengil yumor, goh achchiq hajviy ohanglar uchraydi. Bu narsa turmushga chiqmagan qizning, o'tkazilayotgan to'yning va nihoyat uylanayotgan yigitning axlokiy xislatlari, jamiyatda tutgan mavkei, insoniy fazilatlar kabi ko'pgina jihatlari bilan shartlangan. Qolaversa, «yor-yor»larda qaysi ohangning ustunlik kilishi uning ijrochilari bilan kam bog'liqdir. Masalan, qizni kuyovnikiga olib kelishda «yor-yor» qo'shig'ining erkin bandlari kayvoni xotin yoki qizning qarindoshi tomonidan aytilsa, u holda kelinning yaxshi fazilatlar, xulq-atvoridagi go'zal jixatlari, uning kamoloti madx, etiladi. «Yor-yor» kelinning dugonalari tomonidan ijro etilsa, qo'shiqda qizning dard-alamlari, ota-onadan, tug'ilib o'sgan xonadonidan ayro tushishi, zo'rlik bilan turmushga uzatilishi, sevganiga

yetolmaganligi haqidagi mungli ohanglar ustunlik qilishi mumkin. Xullaski, yor-yorda qanday ohang, qanday ohangning ustunlik qilishi asosida juda ko'p sabablar yotadi.

O'zbek «yor-yor»lari ijro uslubi va musiqiy tabiatiga ko'ra bir necha xillarga bo'linadi. Hozircha ularni Farg'ona, Zarafshon va Xorazm «yor-yor»lari kabi turlarga shartli ravishda bo'lish mumkin.

Keyinchalik jiddiy izlanish va kuzatishimiz tufayli mazkur turlarning miqdori yo ko'payishi, yo qisqarishi mumkinki, bu narsani kelajak ko'rsatadi. Umumiy tarzda aytganda, barcha turdagi «yor-yor»larning ohangi asosida muayyan metroritmik tartibga solgan tor diapazonli kuylar uyg'unligi yotadi. Ularning har biri o'zining kuy tuzilish tartibi, ohang xarakteri, ritmi, ijro uslubi, shevasi va emotsional ta'sirchanligi bilan farq kiladi.

Mehnat qo'shiqlari faqat mehnat jarayonida: qo'sh haydashda, hosil ko'tarishda, paxta terimida, charx yigirishda, ov qilish vaqtida, meva terishda va boshqa vaqtlarda aytiladi. Bu qo'shiqlarda inson kechinmalari, mehnat, ish turi, tabiat hodisalariga qiyos etilib ifodalangan.

Allalar onalarning jigarband farzandlariga qilgan hasratlaridir. Qadimda allalar inson mexr-muxabbati bilan siynasi to'la onalarning orzu-umid sadolari, vafosiz, zolim erlarga, jafokor zamonga, toshmehrota-onaga bildirilgan g'azab va noroziliklardan iborat bo'lgan. Ularga katta qalin badaliga sotiladigan qiz, cho'ri, kanizak, sevgilisidan zulm bilan ajratilgan ma'shuqaning nola-faryodlari eshitilardi. Hozirgi allalar esa butunlay boshqacha zamonaviy mazmun kasb etadi.

Allalar onalar, buvilar, opalar, xotin-qizlar tomonidan bola uxlatish paytlarida aytiladi. Allalarning boshqa qo'shiqlardan farqi shuki, u qachon bo'lmasin, go'daklar bor xonadonda aytilaveradi.

Laparlar esa boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, raqibbop kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi. Laparlarning matnlari asosan ishk-muxabbat, hazil, ro'zg'ordagi totuvsizlik, ota-onalarning farzanddari bilan bo'lgan munosabatlari ba'zan yengil, ba'zan achchiq kulgi asosida tashkil topgan bo'ladi. Lapar qo'shiq sifatida asosan kichik diapazonli, shakl to'zilishi jihatidan ikki qismli tuzilishga ega.

Laparlarning musiqiy poetik asoslarining ko'pgina belgilari qo'shiq uchun ham (garchand qo'shiq naqaratli bo'lsa ham) bir xildir.

Termalar dostonchi shoir, jirov, baxshi, sozanda, sannovchilar tomonidan to'y - hashamlarda, sayr-sayoxat, sayillarda, umuman ko'pchilik aytilgan joylarda ijro etilgan, turli mavzudagi she'riy parchalardan iborat. Odatda, doston ijrosidan oldin to'plangan xalqning diqqat-e'tiborini tortish, aytuvchi va tinglovchida kayfiyat tug'dirish uchun terma aytiladi. Termalar mavzu jihatidan xilma-xildir. Lekin ularning aksariyatini dunyoning achchiq-chuchugi, baland-pasti, yaxshiyomoni **haqida** kuylab mardlikka, adolatga, to'g'rilikka chaqirish ohangidagi didaktik xarakterdagi qo'shiqlar tashkil etadi. Termalar o'z ko'yining ma'lum darajada rechitativligi, tor diapazoni va ixcham shakli bilan ajralib turadi.

Qo'shiq – janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan tashkil topgan barmok vaznidagi mustaqil to'rtliklardan iborat. Ayni vaqtda, har bir she'riy misraga tugal melodik to'zilma moslashtirilgan bo'ladi.

Qo'shiq juda keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, o'z mazmunining xilma-xilligi, ko'p qirraligi bilan alohida ajralib turadi. Qo'shiq kuylari uchun ritmning ravonligi va aniqqligi xarakterlidir.

Qo'shiqda har bir misradan so'ng yoki har bir banddan, yoxud uning yarmidan keyin takrorlanib keladigan naqarotlar xarakterlidir. Qo'shiqqa xos musiqali poetik xususiyatlarning ko'pgina belgilari lapar uchun ham xosdir.

Yalla o'zbek musiqa janrida alohida o'rin egallaydi. Odatda, yalla qo'shiq va raqs jo'rligida ijro etilib, u ikki xil bo'ladi.

Birinchisining kuyi nisbatan tor diapazonli bo'lib, she'rdagi har bir band va uning o'yinlari yakkaxon yallachi, naqarot esa har bir guruh sozanda yoki ashulachilar jo'rligida aytiladi.

Ikkinchisining kuyi keng diapazonli bo'lib, band naqarot bilan boshlanib, naqarot bilan tugallanadi.

Ashula o'z ko'yining cho'ziqligi hamda rivojlanishda diapazonning kengligi, ritmining sezilarli darajada sinkopaligi bilan ajralib turadi. Odatda, ashula kuyi she'riy matnning sog'inch, alam va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik mazmuniga qarab yaratiladi.

Ashulaning rivojlangan namunalari esa og'zaki an'anadagi professional musiqaga mansub. Bunga ashula janrining yana bir boshqa turi-**katta ashula** yoki **patnis – patnusaki** ashula ham mansub.

Katta ashula o'z ko'yining deklamatsion xarakteri, diapazonining kengligi – uch oktavaga yaqinligiga ko'ra farqlanadigan asosiy melodik tuzilmalardir.

Mehnat qo'shiqlari

Mehnat qo'shiqlari xalq ijodiyotining eng qadimiy shakllaridan xisoblanadi. Bu qo'shiqlar ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelib, ana shu jarayonda taraqqiy etgan. Eng qadimiy mehnat qo'shiqlari vazn, qofiya va boshqa poetik shakllar e'tibori jixatidan mukammal uyushmagan, so'zlar ham ongli tarzda bo'lib, ular ko'proq mehnat jarayonida muayyan harakat ritmiga mos keluvchi undov, xitob va nidolar xarakteridagi poetik parchalardan iborat tuzilishga ega bo'lgan.

Mehnat turlari ko'p va xilma-xil bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli-tumandir. Mehnat qo'shiqlarining g'oyaviy-mavzu va janr xususiyatlariga qarab uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.

1. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.

Mehnatning bu turi bilan bog'liq, qo'shiqlar rang- barang bo'lib, ulardan bizga qadar «Qo'sh qo'shiqlari», «O'rim va o'rimchilar qo'shig'i», «Xirmon qo'shiqlari» yoki «Xo'p mayda» kabi janrlar yetib kelgan.

Qo'sh qo'shiqlari. Markaziy Osiyo xalqlari qadim- qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Dehqonchilik esa erta bahorda yerni haydashdan boshlanadi. Yer xaydash og'ir jismoniy mehnat bo'lib, bunday og'ir mehnat

paytida dehqonlar qo'shiq kuylab, o'zlarini ovutganlar. Yozib olingan namunalarda esa og'ir mehnatdan, shafkatsiz tengsizlikdan shikoyat ohanglari ish xayvonlari tilidan bayon qilinadi:

Shoxlarim bor gaz-gaz, kuloch,
Ustida uynar kaldirgoch.
Xayday desam kornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.

Qo'sh qo'shiqlarining boshqa turlari mavjud. Ularda lirik bayon bevosita dehqon tilidan olib boriladi.

O'roq o'rmoq olmok-solmok,
Qo'sh haydamoq bormok-kelmok
Hammasidan qiyin ekan,
Ey xo'kizim, po'zg'op qurmoq

O'rim qo'shiqlari. O'rim – dehqon mehnatining samarasini ko'rsatadigan payt. O'rim qo'shiqlari yakka yoki ko'pchilik tomonidan ijro etilgan. Ularda bahorning injiq, yozning shafqatsiz kezlarida qilingan mehnatning samara berganligidan quvongan dehqonning ko'tarinki ruhi yetilgan hosilni tezrok yig'ib olishga bo'lgan kuchli ishtiyoq tarannum etiladi.

Urog'im olmos,
O'rimdan qolmas,
Sira ham tolmas,
Urmasam bo'lmas.

Dehqon xayvonlarni xaydab, kun buyi xirmonda don yanchar ekan, baland ovoz bilan qo'shiqlar aytadi. Ana shunday qo'shiqlar xalq o'rtasida «Ho'p mayda» deb yuritiladi.

Ho'p xayda-yo, ho'p hayda, mayda-yo, mayda,
Qalqon qulog'im hayda, mayda-yo, mayda,
Temir tuyog'im xayda, mayda-yo, mayda,
Xirmonni qilgan mayda, mayda-yo, mayda.

Yorg'inchoq qo'shiqlari. Yorg'inchoq qo'shiqlari aslida dehqonchilik qo'shiqlari sirasiga kirmaydi. Chunki ular bevosita dehqon mehnati bilan bog'lanmagan. Biroq Yorg'inchoq dehqonchilik mahsuloti bilan bog'langanligi uchun ham shartli ravishda bu qo'shiqlar dehqonchilik qo'shiqlari sirasiga kiritilgan.

Yorg'inchoq tortmas edim,
Och qolganimdan tortaman.
Sabzavon aytmas edim,
Kuyganlarimdan aytaman.

Yorg'inchog'im gumbur-gumbur etadi,
Nortuyalar quloq solib o'tadi.
Karvon bilan rizqu ro'zimiz olib,
Eson-omon og'ajonim kaytadi.

2. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. O'zbek xalqi hayotida dehqonchilik qanday o'rin tutgan bulsa, chorvachilik ham shu darajada o'rin egallagan. Shunga kura, bu mehnat turi jarayonida intiluvchi rang-barang qo'shiqlar yaratilgan. Xalq o'rtasida bu qo'shiqlar sog'iladigan xayvon turiga harab «Xo'sh-xo'sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi nomlar bilan yuritiladi.

«Xush-xush»lar yoki «Govmishim» - bu qo'shiqlar asosan sigir cog'ish paytida ijro etiladi. Qo'shiqning asosiy mazmuni sog'ilayotgan sigirni tinchlantirish, uni iydirish orqali ko'proq sut sog'ib olish hisoblanadi.

Xo'sh-xo'sh, jonivor, qo'ng'ir,
Suting oqadi shir-shir.
Olti xurma qo'limda,
Iyib sut bilan to'ldir, xo'sh-xo'sh.

Chorvador sigirni yomon ko'zlardan saqlash maksadida uning shoxlariga maxsus duolar yozilgan tumorni taqib kuyadi. Chunki qadimiy e'tikodlarga ko'ra yirik zotdor, ko'p sut beradigan sigirlar ko'zga yaqin bo'lib, tez ko'zikib qoladilar.

Shuning uchun ham «Xo'sh-xo'sh» qo'shiqlarida ko'ztumor matni deyarli ko'p qo'llanilgan:

Seni haydab boqaman,
Ko'ztumorlar taqaman.
Normurodim fe'li bo'sh,
Govmish molim, xo'sh-xo'sh.

«Turey-turey» qo'shiqlari. Bu qo'shiqlar qo'ylarni sog'ish va qo'zilarni emizishda aytiladi. Shuning uchun ham «Turey-turey» qo'shiqlarida ham ona sovliqni madh etish, uni iydirish uchun aytiladigan erkalash ohanglari yetakchilik qiladi.

Esli molim-oqilim, turey-turey,
Elkamdagi kokilim, turey-turey.
Shuncha molning ichida, turey-turey,
Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.

Qo'ylarning hid sezuvchi organlari taraqqiy etgan bo'lib, yangi tug'ilgan qo'zilarga boshqa hayvonning hidi urib qolsa, ona qo'y o'z bolasini emizmay qo'yadi. Shunda sog'uvchi «agar bolangni olmasang, seni bozorga chikarib sotaman», deb sovliqqa do'q-po'pisa qiladi:

Qo'y ichida qorasan, turey-turey,
Aqllisan—donasan, turey-turey.
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Bozorlarga borasan, turey-turey.

«**Churey» qo'shiqlari.** Sog'im qo'shiqlarining bu turi echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladi. Churey qo'shiqlarida uluq, yoxud echkining xarakteri, biror belgisi, ko'pincha soqoli, shoxi yoki qashqasi aytilib, ularning tashki qiyofasi tasvirlanadi:

Shoxlaring bor bir minora, churey-churey,
Minoraga qushlar qo'nara, churey-churey,
Bolang olib iskasang-a, churey-churey,
Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Cog'ish paytida echki qarshilik qilmay tek turib bersa, sog'uvchi uni maqtab, erkalab, ba'zan yengil xazil bilan tegajoqlik qilib qo'shiq kuylaydi:

Tikraygan kulog'i bor, churey-churey,
Chashmadek bulog'i bor, churey-churey.
Ichida egiz ulog'i bor, churey-churey,
Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Umuman sog'im qo'shiqlari san'ati kishiga o'z ichki dardlarini, ruhiy holatlarini, alam-iztiroblarini bayon kilishning muhim vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

3. Hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.

O'zbek xalq hunarmandchilik qo'shiqlari orasida urchuk, charx, o'rmak, kashta tikish, gilam to'qish, bo'z to'qish bilan bog'liq qo'shiqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu qo'shiqlarda hunarmandlarning og'ir hayoti, mashaqqatli mehnati va ruhiy olami aks etgan.

Charx qo'shiqlari. Charx ibtidoiy ip yigirish quroli bo'lib, uning qo'shiqlarida feodalizm jamiyatidagi o'zbek ayolining og'ir hayoti butun murakkabligi bilan aks etgan.

Charxim palak,
Charx yigirsam.
Saylab kiyaman alak.
Charxim orcha.
Charx yigirsam,
Saylab kiyaman parcha.

Kashta qo'shiqlari. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi o'tmishdan kashta tikish san'ati bilan mashhur. Shuning uchun ham o'zbeklar o'rtasida kashtaning *bosma*, *jimalay*, *sanama*, *ilma* kabi turlari yuzaga kelganki, ularning har biri kashtachilardan alohida mehnat, mahorat talab etadi.

Kashtaning turiga harab xatto qizlarning qandayligiga ham baxo berishgan va kashta qo'shiqlarida bu narsa o'z ifodasini topgan.

Bosma tikkan botir qiz,
Jimalay tikkan chevar qiz,

Sanama tikkan sardor qiz,
Ilma tikkan ilgir qiz.

Ilma – kashtaning maxsus turi bo'lib, kashta qo'shiqlarida bu tur ko'p ta'riflanadi.

Ilma tikdim ilib-ilib,
Tomoshaylang yonima kelib.
Rahmat, deydi ko'rgan kishi.
Xar gulimi xayron kolib.

O'rmak qo'shiqlari. O'zbeklar orasida o'rmak urish, ya'ni gilam, sholcha to'qish keng tarqalgan bo'lib, ana shu mehnat jarayonida ijro etilgan maxsus qo'shiqlar o'rmak qo'shiqlari, deb yuritiladi. O'rmak to'qish ishlari og'ip mashaqqatli bo'lib, u kishidan katta sabot va g'ayrat talab etadi.

O'rmagimni to'qiyman,
Kecha-kunduz no'qiyman.
Qachon tamom buladi,
Deb ashula to'qiyman.

Bo'zchi qo'shiqlari. Feodalizm sharoitida yengil sanoat, ayniqsa, to'qimachilik sanoati mutlako yo'q bo'lib, jamiyat o'zidagi turli matolarga extiyojini faqat qo'l mehnati orqali oddiy to'qish dastgoxlari vositasida qondirgan. Bo'zchi qo'shiqlarida unumsiz va sermashaqqat mehnatning og'irligi, bo'zchi bozorining kasodligi, to'quvchi oilalardagi muhtojlik kabi ohanglar yetakchilik qiladi.

Do'kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam yaxshiydi.
Harisi tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo'zim arzon ketarmi.

Ammo bo'zchi qo'shiqlari bizgacha nihoyatda kam yetib kelgan, ko'plari unutilib ketgan.

Marosim qo'shiqlari

Marosim qo'shiqlari folklorshunoslikning eng muhim omillaridan xisoblanadi.

Har bir odat, marosim va an'ana o'zining tarixiy poydevori va ildiziga egadir. Ularning xar biri o'zidan-o'zi paydo bo'lmagan.

O'zbek xalqi barcha xalqlar kabi juda kadimiy boy, xilma-xil an'analarga ega. Bularni ijtimoiy tamoyillar turlariga qarab shartli ravishda tabiat, geografik muhit, mehnat turlari, milliy madaniyatga doir an'analarga bo'lish mumkin.

O'zbek marosim qo'shiqlari ikki katta turkumga ajraladi. Bu turkumlar, o'z navbatida, turmushdagi vazifalari hamda poetik tabiati bilan farqlanuvchi xilma-xil janrlarni o'z ichiga oladi.

Birinchisi – mavsum marosimlari bilan bog'liq folklor janrlari.

Ikkinchisi – turkumdagi marosim, ommaviy maishiy turmush bilan bog'liq xolda ijro etiladi.

LAPAR

O'zbek to'y-marosim qo'shiqlarida lapar muhim o'rin egallaydi. Laparlar boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, raqsop kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi. Laparlarda asosan ishq-muhabbat, hazil, ro'zg'ordagi totuvsizlik, ota-onalarning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlari kabilar ba'zan yengil, ba'zan achchiq kulgi orqali aks ettiriladi. Lapar qo'shiq sifatida asosan kichik diapazonli, shakl tuzilishi jihatidan ikki qismli buladi.

Laparlarning musiqiy asoslari ko'pgina belgilari bilan qo'shiq uchun xosdir.

Lapar aytish Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Chimkent va O'sh viloyatlarida keng tarkalgan. Biz Farg'ona vodiysi va Xorazm laparlarini bir-biriga qiyos qilib, musiqiy ritmining o'ynoqiligi, ko'yining ta'sirchanligi va ijro uslubining o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turishini kuzatamiz. Xorazm laparlarida xalq ruxi, oliyjanob niyat, barchaga hurmat, yaxshilik, baxt tilash, xalq saodati uchun intilish kabi g'oyalar aks etadi.

Agar Farg'ona vodiysida laparlar ijrosi ikki qo'shiqchi tomonidan dialog shaklida dutor, doyra jo'rligida aytilsa, Xorazmda garmon, bulaman, g'ijjak, dutor va doyra jo'rligida yakka ijrochi xolalar tomonidan ijro etiladi.

Bunga respublika professional va xavaskor ansambllar repertuarlaridan mustahkam o'rin olgan va xalq orasida keng tarqalgan Xorazm laparlaridan «Xiva du dori», «Og'a doram», «Qora ko'z», «Dilbar», «Galmadi, galmadi» kabilarni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Farg'ona vodiysi laparlarining o'ziga xos musiqiy ijro uslubi mavjud bo'lib, bu uslub kuyning oxangdorligi, ritmik tuzilmaning ravonligi, cholg'u asboblarning o'ziga xos jo'rnavozligi, laparning dialog shaklida ijro etilishi bilan belgilanadi.

Xalq orasida keng tarqalgan Farg'ona laparlarida «Qora soch», «Qilpillama», «Bilakuzuk», «Ililla yor» va boshqalarni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

ALLA

Alla qo'shiq san'atining eng qadimiy turi bo'lib yosh bolalarni uxlatish, orom oldirish uchun beshikka; belab, belanchakka solib, tebratib, onalarning allalab kuylaydigan qo'shig'idir. Qo'shiqning bu turi ham cholg'usiz mayin orom beruvchi ohang bilan kuylanadi. Tibbiyot olamining allomasi Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarining 1-kitobida shunday yozadi: «Bolaning mizojini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va ashuladir. Shu ikkisini kabul qilish mikdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqa bo'lgan iste'dodi hosil kilinadi».

Allaning xar bayti yoki har bandidan keyin «Alla, bolam, alla», «Jonim, bolam, alla» misralari takrorlanadi. O'g'il bolani «arslonim, bolam, qoplonim, toyim, toychog'im, qulunim» kabi iboralarni qo'shib allalaydilar.

Tol ichinda tanlab olgan,
Tol chovkonim bolam, alla.
Gul ichinda iskab olgan,
Guli rayhonim, bolam, alla.
Yo'lbarslarday yuraklim,
Qoplonlarday bilaklim, alla,
Yaxshi-yomon kunimda,
Menga juda keraklim, alla.

Qiz bolani «shirin so'zim», «jonu dilim», «quralay ko'zim» kabi iboralarni qo'shib allalaydilar.

Alla, bolam, alla,
Jonu dilim alla.
Ipaklar bo'lib eshilgin,
Kelin bo'lib qo'shilgin.

Alla, oppoq gavhar, qizim, alla,
Ovunchog'im, oy, yuldo'zim, alla.
Men sening onang mushtipar, alla,
Sensan mening ikki ko'zim, alla.

Yor – Yorlar

«Yor-yor» o'zbek nikoh to'ylari folklorining musiqiy janri hisoblanadi. Uning paydo bulishi, janr tabiati va atamasi, qo'shiqning semantikasi hvqida o'zbek folklorshunosligida ko'pgina fikrlar bayon etilgan. «Yor-yor»lar nikoh to'ylarining ikkinchi bosqichi – qiz uzatish kechasi aytiladigan qo'shiqlardan biri xisoblanadi. «Yor-yor» nafaqat o'zbeklarda, balki qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan.

«Yor-yor» ayrim joylarda kelinni olib borayotgan ayollar tomonidan qiz otasining hovlisidan chiqqandan boshlab kuyovni uyiga kirgunga qadar aytilsa, ayrim joylarda «yor-er»ga kuyov tomon ham qo'shib, tarafma-taraf bo'lib aytadilar.

«Yor-yor» mavzusi nixoyatda keng bo'lib, ularda kelin va kuyovni ta'rifu tavsiflash, ularning axil yashashi va bola-chaqali bo'lishi, shirin turmush qurishlariga undash, turmushda bo'ladigan achchiq-chuchumlarga sabr-kanoat qilish kabi ohanglar bilan bir qatorda qizning ota- ona bag'ridan chikib, sinalmagan xonadonga borishi, boylik evaziga sotilishi va uning xuquqsizligidan nolish kabi ohanglar va shu bilan birga, kelin bo'lishdek baxtga muyassar bo'lgan qizga dugonalarining va boshqalarning orzu-havasmamliliklari ham bayon etiladi. «Yor-yor» ijrosining murakkabligi shundaki, «yor-yor»chi ayollar qo'shiqni xolis sifatida qizning o'zi yoki dugonasi tilidan aytadilar. Quyidagi «yor-yor»da ana shu holni ko'ramiz:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari otlanadi, yor-yor.
Qizni olib yangalari tura tursin, yor-yor,
Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.

Ko'z yoshi to'kib, ota-onasi va boshqa oila a'zolari bilan nochor xayrlashgan qiz hali ham yig'idan tingani yo'q. Shunda yor-yor aytuvchilar uni yupatishga, qizni xali oldinda obod xonadonlar, shod-xurram odamlar kutayotganini aytib, ko'nglini ko'tarishga o'tadilar.

Yig'lama, qiz, yig'lama,
To'y seniki, yor-yor.
Ostonasi tillodan
Uy seniki, yor-yor.
Ko'rpachasi shoxidan
To'r seniki, yor-yor.
Mo'ylablari qilichdek
Yor seniki, yor-yor.

TERMA

O'zbek musiqa folklorining mustaqil janrlaridan biri termadir. Termaning lug'aviy ma'nosi tanlangan, saylangan, terib, tanlab tizish demakdir. Dostonchi baxshi shoirlar ko'pchilik yig'ilgan joylarda dostonlardan parchalarni turli mavzulardagi 10 – 12 misralardan 300 – 350 misragacha bo'lgan she'rlarni kuylaydilar. Bu terma deb yuritiladi. Odatda, doston boshlamasdan to'plangan xalqning diqqat-e'tiborini tortish uchun terma aytiladi. Termalar mavzu jihatidan xilma-xildir. Lekin ularning aksariyatini didaktik xarakterdagi dunyoning achchiq-chuchugi, yaxshi-yomoni hakida kuylab, mardlikka, adolatga, to'g'rilikka chaqirish ohangidagi qo'shiqlar tashkil etadi.

Termalar yaratilishi va kelib chiqishiga ko'ra uch katta guruhga bo'linadi:

1. Dostonlardan olingan termalar.
2. Mumtoz adabiyot termalari.
3. Mustakil termalar.

Baxshi shoirlar repertuaridan keng o'rin egallagan dostonlarning qisqa mazmuni bilan tanishtiruvchi «Nima aytay», «Do'mbiram», shoir va mashhur qahramonning faoliyatini aks ettiruvchi «Kunlarim», «Armonim qolmadi», «Bormi jaxonda», «Bedovsan» kabi termalar fikrimizning isbotidir.

Archalarning ostidan archib olgan do'mbiram,
Pistalarning ostidan richib olgan do'mbiram.
Irg'aylarning ostidan irg'ib olgan do'mbiram,
Bodomlarning ostidan borib olgan do'mbiram.

O'LAN

O'lan, asosan, o'tmishda ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik tarzida hayot kechirgan o'zbek urug'lari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, u qiz uzatar oqshomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o'tkaziladigan «Qiz

oqshomi», «Qizlar majlisi» kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. Ayrim xollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida utkaziladigan bazmlarda ham ulan ijro etilishi mumkin. Ammo «qiz oshi»da ijro etiladigan o'lanlar umumo'zbek to'ylari uchun barharor an'anadir.

Ulaning mavzu doyrasi keng bo'lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtozlik ohanglari yetakchilik qiladi. Ulan aytishni, odatda yigitlar boshlab berishadi.

Y i g i t :

Qapg'a deymen, ko'zingdan, qarg'a, deymen,
Kapg'a uya soladi jarga, deymen.
Kurmaga ko'p vaqt, oylar utdi,
Ulan bilan so'rashay-xorma, deymen.

Q i z :

O'lanlarim, ko'zingdan, o'lanlarim,
Sen bo'lding shu dunyoda gumondorim.
Sen bulsang shu dunyoda gumondorim,
Kuya-kuya kul bo'ldi suyaklarim.

O'zbek musiqasida maxalliy musiqiy uslublar

O'zbek xalqining musiqiy merosida, asosan, 4 ta maxalliy uslub mavjud bo'lib, ular kuyidagicha nomlanadi:

1. Surxondaryo—Qashqadaryo musiqa uslubi.
2. Buxoro—Samarkand musiqa uslubi.
3. Xorazm musiqa uslubi.
4. Farg'ona—Toshkent musiqa uslubi.

Surxondaryo—qashqadaryo musiqa uslubi

O'zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo— Qashqadaryo aholisining katta qismi respublikaning boshqa viloyatlaridan farqli o'laroq, o'tmishda, asosan chorvachilik, ayrim qismigina dehqonchilik bilan shug'ullanib, hayot kechirar edi. Bu viloyatlar musiqa folkloridan chorvadorlar mehnati xakidagi, kuchmanchilik hayoti xakidagi qo'shiqlarning xarakterli o'rin egallashi ham ana shundadir. Bu viloyatlar musiqa hayotida doston ijrochilari, ya'ni baxshi shoirlar ham muhim o'rin tutgan.

Surxondaryo—qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ulari

O'lkada musiqa cholg'ulari uzok tarixiy o'tmishdan buyon maxalliy xalq tomonidan mexr qo'yilib, ardoqlanib, ijro etib kelinayotgan sozlar bo'lib, ular do'mbira, changqobuz, doyra, qo'biz, cho'pon nay yoki g'achir nay, sibiziq (sibizg'a) kabilardir.

Do'mbira sozi ikki torli chertma cholg'udir. Bu cholg'u Surxondaryo—Qashqadaryo maxalliy musiqasida keng tarkalgan sozlardan bo'lib, u baxshi shoirlar va cho'ponlar tomonidan zavq bilan sevib ijro etiladi.

Changqovuz esa maxsus tilchali asbob bo'lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi. Temir chankobo'z, odatda, aylana shaklida buladi. Uning o'rtasidan 7—9 sm uzunlikda po'lat til o'tkaziladi. Changqovuzni chalish uchun uni chap kul bilan tishlarga bosib turish kerak va ayni vaktida, o'ng qo'lning kursatkich barmog'i ta'sirida tilchani to'ldirib turish lozim. Bu cholg'uni nafaqat kattalar, balki bolalar ham sevib chaladilar.

Buxoro va samarkand musiqa uslubi

Surxondaryo va Qashqadaryodan farqli o'laroq, Markaziy Osiyoning madaniyat markazi bo'lgan Buxoro va Samarqandda o'zbek musiqa san'atining xususiyatlari deyarli boshqachadir. Bu xususiyatlar meros mavzusiga va janrlari hamda musiqa hayoti xarakteriga taalluqlidir. Buxoro va Samarkand maxalliy uslubi xususi- yatlarning muxim farqi musiqa merosi va ijrochi likning ikki turga-og'zaki an'anadagi professional san'at va folklorga bulinishidadir. Musiqa folklorining moxir namoyandalari bilan bir qatorda bu yerda professional san'atkorlar, sozanda va xofizlar katta o'rin tutib, ular maqom va boshqa professional musiqa janrlarining bilimdon ijrochilari sifatida tanilgan. Kichik shakldagi ma'lum turkumni tashkil etuvchi xilma-xil mazmunga ega bo'lgan raqs-o'yin qo'shiqlarining ijrochilari-sozandalar ham keng e'tibor topgan.

Bu kadimiy shaxarlarda cholg'u asboblari turlarining boyligi marosim qo'shiq-kuylarining xilma-xil va xarakterli bo'lishi bilan birga, eng yaxshi ijrochi xonanda va sozandalar ishtirokida musiqa va she'riyat kechalarining muntazam o'tkazilib turilishi ham odat bo'lgan edi. Maishat, turmushning shaxarcha tarzi ashulachilar, raqqos va raqqosalar hamda sozandalar ansambllarining o'ziga xos tusda keng rivojlanishiga ham imkon bergandi.

Buxoro va Samarkand viloyatlaridagi o'zbek musiqa folklori esa ko'p jixatdan tojik musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikka ega bo'lib, tarixiy taqdiri deyarli o'xshash bo'lgan xar ikkala qardosh xalq- o'zbeklar va tojiklarning bab-baravar darajadagi musiqa merosidir. Jumladan, «Shashmaqom» bunga yorokin misol bula oladi.

Buxoro musiqa uslubida erkaklar tomonidan ijro etiladigan «Mavrigi» nomi bilan ma'lum bo'lgan turkumli aytimlar esa doyra jo'rligida hamda raqqos-o'yinchi ishtirokida ijro etiladi. «Mavrigi» asosan erkaklar tomonidan aytilib, xonandalar bir vaqtning o'zida ham ashula aytib, ham doyra chertib, o'zlaricha jo'rsoz buladilar. «Mavrigi» aytimlarida ikki- tillilik an'anasi namoyon buladi, ya'ni turkumdagi ashula qismlari o'zbek va tojik tillarida kuylanadi.

«Mavrigi» ijrosida ikki va undan ortiq qismlar bo'lib, ular birin-ketin ijro etiladi. Dastlabki kism vazminrok **ruhda** bo'lgan «kirish» vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o'tilgani sari o'ynoqi ritmlar kengayib, o'yin aytimlar jadallashib boradi. Shu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o'rinni egallaydi.

Samarkand musiqa uslubida «qarsak» bilan ma'lum qo'shiq-raqsar juda keng o'rin tutadi. Qarsak turli xil tomosha va davralarda ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Bunday davrada hozir bo'lganlar aylana shaklida o'tirishib, yakkaxonning aytimi va raqsiga qarsak bilan jo'r bo'lib turishadi. Shu boisdan, qarsak janri band—naqarot shaklida bo'lib, bandlarni yak-kaxon (aytimchi) aytadi, davrada o'tirganlar esa naqarotlarni kuylashadi.

Qarsak o'yin-aytimtarining bir necha turlari mavjud. Jumladan, qars, yakka qars, qo'sh qars, uch qars, besh hars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari mavjud.

Xorazm o'lkasining maxalliy uslubi, avvalo, o'zining musiqiy koloriti bilan ajralib turadi. U maxalliy qo'shiqlar intonatsion-kuy tuzilishi hamda talqiniga o'z ta'sirini kursatadi. Xorazm uslubining turkman va ozarbayjon musiqasi bilan ma'lum darajada yaqin ekanligi ham shubhasizdir.

Xorazm xalq musiqasining o'ziga xos maxalliy xususiyatlariga dostonlar ijrosi ham kiradi. Agar O'zbekistonning barcha viloyatlarida dostonlar musiqasi, odatda, rechitativ-deklamatsion xarakterda bo'lib, Xorazmda ular yorqin ifodali qo'shiqlari bilan farq qiladi hamda O'zbekistonning boshqa viloyatlarida bo'lganidek, do'mbira bilan emas, balki tor, dutor, g'ijjak, doyra jo'rligida aytiladi.

Xorazm cholg'u asboblari ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, yuqorida eslatilgan bulaman, garmon cholg'u asbobi respublikamizning faqat Xorazm viloyatida uchraydi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi kungacha Xorazmda keng foydalanilib kelinayotgan garmon ham xuddi shu o'lka maxalliy uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib koldi. Ayrim musiqa asboblarning maxalliy farqi o'z tuzilishi va tembr-akustik xususiyatlarida ko'rinadi. Masalan, Xorazm dutori kosaxonasi xajmi ning nisbatan kichikligi, dastasining ingichkarok va kaltarokligi hamda o'z akustik-tembr xususiyatlariga ko'ra O'zbekistonning boshqa lokal zonalarida, xususan, Farg'ona musiqa folkloridan o'ziga xos xarakterli belgilari bilan ajralib turadi. Bu yerda ixcham xajmli oddiy, ammo jozibador va mavzusiga ko'ra xilma-xil ashula va qo'shiqlar muxim o'rin tutadi. Ayniqsa, xotin-qizlar ashula va qo'shiqlari mashxurdir.

Xorazm musiqa uslubida xalfalar san'ati ham diqqatga sazovordir. Xorazm xalfachilik san'ati ikki shaklda kuylanib kelinadi.

1. Yakkaxon ijrochilik.
2. Ansambl tarzida guruxli ijrochilik.

1. Yakkaxon xalfalar, odatda doston qo'shiqlaridan tortib, to to'y-xasham («Yor-yor», «Kelin salom» va boshk.) qo'shiqlarni cholg'usiz kuylaydilar (ustozlar Roziya Matniyoz qizi, Poshsho Saidmamat qizi, Sao-dat Xudoybergan qizi va boshk.).

2. Ansamblli xalfalar lapar, yalla, o'zlari ijod qilgan qo'shiqlar hamda doston qo'shiqlarini doyra, garmon jo'rligida kuylaydilar (ustoz ijrochilar Ojiza, Nazira Sobirova, Onajon Safarova, Bibi Shoiri va boshk.)

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida lapar, yalla, ashula, qo'shiq, terma marosim qo'shiqlari va katta ashula keng o'rin egallagan.

Xotin-qizlar ijrochiligida marosim qo'shiqlari «Yor-yor», «Kelin salom», lapar, yalla aytimlarini doyra, dutor, cholg'u ansamblida kuylash keng tus olgan (ustoz ijrochilardan Raxima MaZoxidova).

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori ham asosiy o'rinni egallaydi. Bu o'rinda «Boychechak», «Yomg'ir yog'aloq», «Laylak keldi», «Oftob chikdi olamga», «Chuchvara qaynadi» misol bula oladi.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida keng tarkalgan katta ashula-bu yirik xajmli ashula bo'lib, uning kuy ohanglari keng nafasli xofizlar ijrosi uchun muljallangandir. Katta ashulani, odatda, ashulachi xofiz yoki 2-4 hamnafas ashulachi-xofizlar aytadilar. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Mukimiy, Furkat kabi mumtoz shoirlarning falsafiy, pand-nasixat va boshqa mavzulardagi she'riy namunalari kullaniladi.

Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktava oralig'ida bo'lgan rivojlangan kuylarga ega bo'lib, erkin ritm- o'lchov asosida kuylanadi. Bu ashulalarning «Patnusaki ashula» yoki «likobi ashula» deyilishining sababi ashulachi—xofizlar ijro paytida qo'llarida patnis likob (talinka) ushlab turganliklaridandir.

Boltaboy Rajabov, Hamrokul kori, Muhammad bobo Saggorov, Akbar kori Xaydarov, Erka kori Harimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon O'zokov, Berkinboy Fayziev kabi xofizlar katta ashulalarning maxoratli ijrochilari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan «Ko'p erdi», «Bir kelsun», «Ey dilbari jononim», «Adash ganman», «Do'stlar», «Yovvoyi chorgox», «Bu gulshan soz etgali keldik» singari katta ashulalar xalqimiz orasida yaxshi ma'lumdir.

Shuni ham aytish kerakki, so'nggi yillar davomida katta ashulalarni cholg'ular jo'rligida ijro etish amaliyoti ham qo'llana boshlandi. Bu borada, masalan. «Mehnat axli», «Ey dilbari jononim», «O'zbekiston» nomli katta ashulalarni misol keltirish mumkin. Shu bilan birga, katta ashulalarni aloxida cholg'uda, masalan, nayda ijro etish an'anasi ham yuzaga keldi. Bu o'rinda Ismoil naychi, Abdukodir naychi va Saidjon Kalonovlardek maxoratli naychilarimizning xizmatlari kattadir.

Katta ashula asosan Farg'ona vodiysida, qisman Toshkentda aytilib kelinadi. Xalq hayotining tarixiy sharoiti natijasi hisoblangan barcha maxalliy uslublarda o'zbek xalq musiqasining umummilliy belgilari yorqin ifodalangan.

Bu belgilar, yukorida ta'kidlanganidek, o'zbek xalqining, keyingi davrda tugal tus olgan o'zbek millatining shakllanish jarayonida, turli maxalliy uslublarning umummilliy madaniyatiga chatishib ketishi natijasida vujudga keldi.

Do'mbira va doston ijrochiligi

Do'mbira asbobi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarkandning ayrim tumanlarida ko'p asrlardan buyon keng tarqalgan cholg'u asboblardan xisoblanadi. Moxir do'mbirachilar avlodi Sho'rchi, Sherobod, Boysun, Dehqonobod singari tumanlaridan yetishib chiqqan. Bu tumanlarda dostonchilar, qiziqchilar, chanqobuz singari qadimiy asboblarda chaluvchilar faoliyat ko'rsatganlar.

Yaxshi do'mbirachi bo'lish uchun o'nlab kuylarni urganish, yodlash, chertish, 2-3 yil ustoz do'mbirachiga shogird bo'lib yurish, ayniksa, dostonchilarga jo'r bulishni urganish lozim buldi.

Do'mbirachilar hayoti azaldan chorvador xalqlar hayoti bilan boglanganligi sababli ularning ijrochilik dasturlari ko'pchilik xollarda yaylov kuylari bilan aloqador. SHU sababdan ularning chaladigan asarlari: «Cho'poncha», «Do'mbira kuy», «Ko'ng'iroti», «Poygada chalinadigan kuy», «Kuyni kidirish», «Kuyni yig'ish», «Kuylarni ko'chirish», «Sarson kuyi» singarilar bulsa, dostonchilarga jo'r kiladigan asarlari, asosan, «Baxshi kuy» nomi bilan yuritiladi.

Do'mbirachilik san'ati bevosita doston ijrochiligi bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Chunki doston ijrochilari yukorida aytib utilgan tumanlarda do'mbira jo'rligida aytishadi.

So'nggi 40-50 yil mobaynida yashab ijrochilik QILgan do'mbirachilar katoriga Doniyor Jo'rakulov, Parda Avazov, Toji Mengliev, Norkobil Shukurov singari bir kator cholg'uchilar ijodi kiradi. Do'mbirachilar orasida Doniyor Jo'rakulov g'oyat yuksak ijrochilik maxorati bilan ajralib turadi.

Bu do'mbirachi 1910 yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumaniga qarashli ok kapchagay elatida do'mbirachi, cho'pon oilasida tug'iladi.

U do'mbira chalishni dastlab otasidan, keyin hamkishlok cho'pon bolalardan hamda yaylovda podachilik qilib yurgan vaktlarda urganadi. U yashagan davrda taniqli dostonchi Mardonkul Avliyokulov, uning tog'asi shoir Shernazar Beknazar, Xatak qishlog'idan Jo'rabobo, Chori yuzboshi va boshqalar do'mbira chertib doston aytishgan. Ularning ijrochiligi goyat shuxrat qozongan edi.

Jo'rakul do'mbirachiga haqiqiy do'mbirachilik san'atiga yo'l ochgan, uning siru asrorlarini o'rgatgan ustoz Xoliyor yuzboshi buladi. Xoliyor ko'p dostonlarni yoddan bilar, ularni xilma-xil kuylarga solib aytar, o'zi yaratgan jozibali kuylari bilan shinavandalar hamda do'mbirachi bulishni orzu qilgan barcha xavaskorlarning havasini keltirardi. «Mening qo'limda,-deb eslaydi Jo'rakul Doniyorov, -usha paytlarda yaxshi do'mbira bo'lmaganligi sababli Xoliyor ustozning ketidan ergashib yurardim, uning xayajonli kuylarini diqqat bilan kuylar edim, dilimga joylardim. Keyinchalik yaxshi do'mbira olganimdan keyin usha kuylarni chaladigan buldim». Do'mbiraning chiqaradigan tovushi nixoyatda past, tembri yumshoq, yoqimli, shu sababdan shinavandalar do'mbirachilar atrofida, yaqkinrok, joyda utiradilar. Do'mbirachi dastlab yig'ilganlar kayfiyatini kutarish maqsadida uzundan uzun kirish qismi (daromad)ni chaladi. Masalan, «Choponchi I».

Shu nom bilan chalinadigan kuyni boshlashdan oldin o'n to'rt takt davomida daromad qilib turadi. Shu daromad qismi cholg'u kuyning o'rta qismida va tugallanish qismida yana bir marta takrorlanadi. Bu kuy parchasi o'ziga xos tushurma (final) rolini uynaydi.

Do'mbira asbobila chalinadigan kuylarning xususiyatlari o'zgacha. Chunki u kuylar aloxida-aloxida mazmunga egadir. Xar bir kuy atrofidagi yaylovlar, tog'lar, jilg'alar, keng dalalar bshylab parvoz kiladi, ruhan qiynayli. xayajonlantiradi. erkalaydi, zavqlantiradi. Do'mbirachi esa koinot buylab taratayotgan xar bir kuyning parvoz qilganini kuzatganday buladi.

Boshqa bir do'mbirachi Toji Mengliev (1910 yilda tutilgan) ham Doniyor Jo'rakulov singari butun hayoti davomida do'mbira chalgan. U Garmi Qo'pg'on (Korovul tepa)da tug'ilgan, do'mbira chalishni otasidan o'rganadi. Otasi zamonasining moxir do'mbirachilaridan xisoblangan. «Men,-deydi Toji Mengliev,- 12 yoshligimda otam chalganida unga qo'shilib chalardim. Do'mbirani dastlab sozlab berar, keyin sozlashni o'zim o'rganib chala boshladim». Mana shu tahdidda bu cholg'uchi boshqa do'mbira kuylarini ham hamqishloq do'mbirachilaridan urganadi. Dastavval u «Go'ro'g'li» dostonidan «Go'ro'g'lining Chambilga borayotgani» kuyini o'rgandi. Toji Mengliev asosan do'mbirani «Go'ro'g'li» bilan «Alpomish» dostonlarida aytiladigan qismlariga jo'r qilib chaladi.

Bu do'mbirachiiing dasturida «Cho'poncha», «Do'mbira kuy», «Qo'ng'iroti», «Baxshi kuy»lardan tashqari yana qizlar o'yiniga jo'r bo'ladigan yoki shu xildagi o'yinlarga taqlid kilib chalinadigan o'nlab kuylar uchraydi. Shulardan biriga «Himoya so'z» (qizlar o'yini) deyiladi. Bu kuyni Norqobil Shukurov mahorat bilan ijro etadi (Shurchi tumanidan). Mazkur kuy qizlarning davraga tushib bajargan sho'x o'yin xarakatlariga mos tushadi. Ohang jixatidan an'anaviy «Baxshi kuy» yoki «Cho'poncha» kuylaridan ohangning zamonaviyligi bilan farq kiladi.

Odatda, bu xildagi kuylarni do'mbirachilar qizlarning to'ylarida «Axvo» nomi bilan qo'shiqlariga o'xshatma qilib yaratganlar. «Axvo»ning she'r misralari quyidagicha:

Qora Qo'ung'iro't katta yurt,
Aylanmasa mayda tut,
Onaqiz opam kiygani,
Kooperativ gulli chit.

Inasoyning o'rtasi,
Capig' yog'ning to'rtasi.
Qiz ichida belgili
Ena qizning ko'rtasi.

Munnan narmon murshadi,
Havoni bulut qurshadi,
Uyda birov so'zlaydi,
Ena qizga uxshaydi.

Toqqa chiqdim jolmmati,
YONG'OQ oldim KOGOTI,
IKKI uzuk, bir oyna,
Ona kdzga sovg'ati.

«Axvo» yoki «Enaqiz» qo'shig'ini asosan qizlar do'mbira jo'rlligida qo'lini tomog'iga oxista tekkizgan holda, vazmin usulda lirik ohangda aytishadi.

«Kelinoyi» nomi bilan kuylanadigan qo'shiqlar shu voxalarda nixoyat keng tarkalgan bo'lib, turlicha she'rlar bilan aytilsa-da, lekin kuyi bir-biriga uxshash

buladi. Kelinoyi iborasi turli kishlokdarda turlicha: Kora Qo'ng'irotda «Enaqiz», Qorliqda «Izzatoy», Xomkantda «Ulutoy» singari nomlar bilan aytiladi.

«Chollarning aytganiga qaraganda,-deydi Muhammad yusuf O'taganov, - utgan zamonlarda bir boyning ukasi uylangan, uning xotini nihoyat go'zal ekan. Bu kelinchakni Oqtoshdagi Boz degan qishloqdan bir dexqon kelib olib qochadi. Buning xabarini eshitgan eri axtarib, surishtirib topadi va qaytadan uyiga olib keladi. Lekin kelinoyi shu dehqon bilan yana qochib ketadi».

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubining muxim qismini dostonchilik an'analari tashkil etadi. Doston adabiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va nazmiy (she'riy) qismlar bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak buladi. Jumladan, «Alpomish», «Yodgor», «Avazxon» kabi dostonlar shunday ko'rinishga egadir. Dostonlar ijrochilarini shoir, yuzboshi va baxshi deb yuritadilar. Baxshilar ijro san'atida so'z ustasi, qo'shiq, kuylovchisi va soz (do'mbira) cholg'usi birlashgan buladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini maxorat bilan badiiy so'zlab, qiladilar va bunda do'mbira sozidan jo'rnavoz sifatida foydalanadilar.

Surxondaryo - Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning ikkita yirik markazi vujudga kelgan. Bu Shahrizabz va Sherobod dostonchilik maktablaridir.

Abdulla nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashxur vakillaridir.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq axli dehqonchilik bilan bog'liq, yig'im-terim ishlarini tugatgandan so'ng boshlanib, to erta baxorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar maxalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o'tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga maxalla axli, qo'ni-qo'shnilar ham yig'ilib, baxshining doston ijrochiligini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kun davom etgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayram, to'y marosimlari va boshqa tantanalarni o'tkazishga ham taklif qilganlar.

Dostonlarni kuylash qoidalariga ko'ra, avval termalar kuylanadi. Terma biron-bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo'lib, bunda baxshi o'z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta'riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata «qay dostondan aytayin», deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, xohish-ixtiyori ham sabab bo'lib, baxshi o'z repertuaridan bir dostonni kuylashni boshlaydi. Buxoro-Samarkand musiqa uslubiga doyr dostonchik maktablari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo'lib, ular «Bulung'ur dostonchilik maktabi», «Qo'rg'on dostonchilik maktabi» «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulungur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari mashxurroqdir. Bulung'ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Rustamxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi» qaxramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'rovoz sifatida do'mbira sozi qo'shiladi. Amin baxshi, Tovbo'zar shoir, Kurbonbek shoir, Yuldoshbulbul, Yuldosh shoir, Quldosh baxshilar bu maktabning o'tmishdagi (XIX namoyandalaridir. Fozil Yuldosh o'g'li bu maktabning so'nggi yirik vakillaridandir)

Qo'rg'on dostonchilik maktabida ham «Alpomish dostoni ijro etilgan bo'lsada, biroq unda romantik dostonlarga (jumladan, «Gumor pari» Qunduz bilan Yulduz», «Oysuluv», «Kyntug'mish, boshk.,) ko'proq e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'tmishdagi yirik vakillari Yodgor, Lafas, Mulla-Tosh. Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Jumanbulbul o'g'li (1868—1937) va Po'ltan I (1874—1941) bu maktabning so'nggi yirik namoyondalari edi.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, boshqa maxalliy dostonchilik maktablari (masalan, Surxondaryo—Qashqadaryo dostonchilik an'alaridan) farqli jihatlariga ega. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari «bo'g'iq ovozda» emas, balki «ochik, ovoz» uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.

b) Ko'pincha maxalliy dostonchilik maktablarida do'mbira sozi jo'rnavoz sifatida qo'llansa. Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek doston aytimida ijrochilar ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar g'ijjak, bulaman va ba'zan doyra sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

v) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan «Oshiq G'arib va Shoxsanam», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qaxramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Axmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doyrasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun-yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi. Xorazmda bu turdagi ijrochilarni sozchi, ya'ni Qurbon sozchi, Kodir sozchi, deb ataydilar.

O'zbek xalq cholg'u asboblari

O'zbek musiqa cholg'u asboblari ming yillik tarixga ega bo'lib, juda ham rang barangdir. Ular o'z vazifalari, ijrochilik imkoniyatlari va tuzilishlariga ko'ra ko'pincha tojik hamda boshqa sharq xalqlari musiqa cholg'u asboblari bilan bir xil yoki o'xshashdir.

O'zbek musiqa cholg'u asboblari 5 ta mustaqil guruhdan iborat:

1. Puflab chalinadigan cholg'u asboblari

2. Jarang torli cholg'u asboblari

3. Chertma torli (tirnab va noxun vositasida) cholg'u asboblari

4. Urma cholg'u asboblari

5. Kamonchali cholg'u asboblari

1. Puflab chalinadigan cholg'u asboblari guruhiga nay, surnay, qo'shnay, bo'laman, karnay, g'ajir nay, sibiziqlar kiradi.

Kichik nay – (pikkalo) diapazoni “re” birinchi oktava, “solb” uchinchi oktava, “lya” uchinchi oktava.

Katta nay – diapazoni “lya” birinchi oktava, “solb” uchinchi oktava, ikki yarim oktavani o'z ichiga oladi.

Surnay – diapazoni “do” birinchi oktava, “re” ikkinchi oktava, ikki oktava tovushini o’z ichiga oladi.

Qo’shnay – qamishdan yasaladi. Uning sibiziqdan farqi diapazonining kengligida. Diapazoni oktava doirasida. Bulaman Xorazm va Qoraqalpog’istonda keng tarqalgan.

G’ajir nay – mahalliy cho’l burguti g’ajir (asbobning nomi ham shundan olingan) qanotining suyagidan yasalgan xushtak qurilmasiz bo’ylama nay. G’ajir nayda barmoq bosiladigan to’rtta (uchtasi ustki, bittasi past tomonda) teshik bo’lib, diapazoni seksta oralig’idadir.

Sibiziq (sibizg’a) – oddiy qamishdan yasaliib, puflanadigan tomonidan tilcha kesiladi. Naychanning yuz tomonida barmoq bilan bosiladigan uchta teshik ochiladi. Diapazoni seksta intervalidan oshmaydi.

Karnay – misdan yasalgan puflab chalinadigan cholg’u asbobi. Og’zi konus shaklida, bo’yi 2–3 metr atrofida bo’ladi. Ijrochilik imkoniyatlarining chegaralanganligi sababli, uning vazifasi ritmik asosni ta’kidlashdan iborat. Ovozi yo’g’on va kuchli bo’lganligi uchun ochiq havoda ansambl (asosan surnay – nog’ora) tarkibida qatnashadi.

2. Jarang torli urma asboblari

Chang urma torli chog’u asboblardan bo’lib, shaklan va tovush chiqarish jihatidan belorus tsimabaliga o’xshab ketadi. Bu asbob hamma yo’naluvchi xromatik tovushlari bilan birga uch oktava oralig’iga ega. Diapazoni “sol” kichik oktavadan “fa” uchinchi oktavagacha.

3. Chertib va tirnab chalinadigan cholg’u asboblari.

Bu asboblari guruhiga **qashqar rubobi**, **afg’on rubobi**, **tanbur**, **dutorlar** kiradi.

Qashqar rubobi – rubob simlarining soni beshta. Birinchi va ikkinchi torli juft simdan, uchinchi tori paydan yasalgan. Diapazoni “lya” uchinchi oktavagacha. Rubob uch oktava tovushlari oralig’iga ega. Rubobning birinchi tori “lya” (birinchi oktava) tovushiga, ikkinchi tori “mi” (birinchi oktava) tovushiga va uchinchi tori “si” (kichik oktava) tovushiga sozlanadi.

Afg’on rubobi – (Buxoro yoki tojik rubob deb ham yuritiladi) o’ziga xos shaklga ega bo’lib, chertib chalinadigan noxunli cholg’u asbobidir. Afg’on rubobi 5 ta chalinadigan asosiy pay tor (1-2-3-4 qo’sh torlar) hamda yon quloq (go’shak)larga tortiladigan 10–11 ta sim torlarga ega. Diapazoni “si” kichik oktavadan “do” ikkinchi oktavagacha. Ikki oktavani o’z ichiga oladi.

Tanbur – o’zbek, tojik va uyg’ur xalqlarining qadimiy cholg’u asbobi hisoblanadi. U metallardan yasalgan, o’ng qo’lning ko’rsatkich barmog’iga kiyiladigan noxun vositasida chalinadi. Chalinadigan asosiy kuychan tor birinchisi bo’lib, ijrochi ahyon – ahyonda qolgan torlarga ham noxun tekkizib, hamohang sadolar hosil qiladi.

Tanbur simlarining soni uchta. U kvarta kvitaga sozlanadi. Diapazoni: “sol” kichik oktavadan “sol” ikkinchi oktavagacha yoki “lya” kichik oktavadan “lya”

ikkinchi oktavagachadir. Tanbur uch oktava oralig'idagi diatonik tovushqatorni hosil qiladi. Tanburning turlari har xil. Diapazoni yozilgandan ko'ra bir oktava past tovush beradi.

Dutor – mayin hamda mungli sadolarga boy tovushga ega. Dutorning ikkita ipak tori kvarta, kvinta yoki unison (oktava) ga sozlanadi. Dutor ishlatiladigan shtrixlarga boyligi, o'ng qo'l barmoqlari hamda panjani ishlatishdagi uslublarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Diapazoni: “re” birinchi oktavadan “si” ikkinchi oktavagacha yoki “mi” birinchi oktavadan “lya” ikkinchi oktavagacha. Dutorning diapazoni yozilgandan ko'ra bir oktava pas tovush beradi.

4. Urma cholg'u asboblari.

Doira (dap, childirma) – O'zbekistonda keng tarqalgan cholg'u asbobi hisoblanadi. Doira turli tuman tembr, ritmik va dinamik tuslarga ega. U ikki qo'llab chalinadi. Kaft bilan barmoqlarni siqiq tutgan holda doira o'rtasiga urilganda (**katta bum**), bukilgan o'rta barmoq bilan doira o'rtasiga urilganda (**kichik bum**) hosil bo'ladi. Barmoqlarni yozib, kaft bilan doiraning chetiga va o'rtasiga bir yo'la qattiq urish **katta bak** deb ataladi. Yon barmoq bilan doira chetiga urish **kichik bak** deb ataladi.

Nog'ora – yog'och parchinlardan yasalgan uchta “xum” dan iborat bo'lib, yuqori keng qismiga teri qoplanadi. Har qaysisining vint mexanizmi bor. Nog'orani sozlash uchun shu mexanizm yordamida terining tarangligi rostlanadi. Nog'oralarning turlari sifatida do'l nog'ora, rez nog'ora va juda keng ishlatiladigan qo'sh nog'orani ko'rsatish mumkin.

Qayroqlar – o'ziga xos bir–biriga urilib chalinadigan urma asbob bo'lib, Xorazm viloyatida, ayniqsa, keng tarqalgan.

Safoil – jaranglaydigan urma asbob ikkita yog'och tayoqchadan iborat. Bu tayoqchalarning har qaysinisida 16 ta halqachalar o'rnatilib, ikkita temir halqaga mahkamlab qo'yilgan. Katta va kichik halqalar bir–biriga va yog'ochga urilib, jaranglagan shiqildoq tovush chiqaradi.

5. Kamonchali cholg'u asboblari.

G'ijjak – tovush kengligi, ya'ni diapazonning juda kattaligi bilan ajralib turadi. G'ijjak o'tirib chalinadi. G'ijjak qobiqchasining pastki qirrasi tizzaga o'rnatiladi, kamon esa ko'ndalangiga ushlanadi. G'ijjakda torlar soni 4 ta bo'ladi. Kvintaga sozlanadi. G'ijjakning birinchi tori “mi”, ikkinchi tori “lya”, uchichi tori “re”, to'rtinchi tori “solb” tovushiga sozlanadi. Diapazoni: “Solb” kichik oktavadan “lya” uchinchi oktavagacha. Uch oktavani o'z ichiga oladi.

Sato – kamoncha torli asbob bo'lib, tanbarga o'xshaydi, uning to'rtta tori bor. Bularning sozi tanbur sozlarining sozidan farq qilmaydi. Sato birmuncha serohang, mayin va yoqimli tovush chiqaradi. Sato uchun notalar tanburdagi singari skripka kalitida yoziladi.

Madaniy va musikiy hayot XX - asr boshlarida. (1900-1917 yillarda)

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy muhit: 1904-1905 yy. rus-yapon urushi, 1905 y. Rossiyada inqilobiy harakat, 1914-1917 yy. Birinchi jahon urushlarni iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotga salbiy ta'siri. Rossiyada turli siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi va ularning faoliyati. O'rta Osiyoga ham ta'siri.

2. O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi mustamlakachilik changalidan ozod bo'lishda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va mohiyati. Jadidchilik harakatlari ulug' namoyondalarining ijodiy faoliyatlari. Jadidchilar va Qadimiyning g'oyaviy kurashlari. Jadidchilarning matbuot va ma'rufchilik faoliyatlari. Milliy uyg'onish davridagi o'zbek adabiyoti va san'ati. Ovropa uslubidagi milliy teatrning bunyodga kelishida jadidlarning o'rni. O'zbek xalqining musiqiy merosi va uning XX-asr boshlarida yashagan namoyondalari. Hofizlar: Domla Halim Ibodov, Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Erka Qori, Qurbon ota, Otajon Abdullaev (Xevon bobo), Onabibi Qori Otajonova, Shojalil, Nabixo'ja, Ilxom Rustamxon, Sodirxon va Hofizlar. Sozandalar: Shobarat-tanburchi, Abdusoat, Solixon, Karimbek-dutorchilar, Mirqosim tanburchi, Abduqodir Ismoilov-naychi, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Ro'zmatxon, Qurbon g'ijjakchi, Sultonxon Xalimov-tanburchi, Matyoqub Xarrat (Xarrat Devon bobo nomi bilan mashhur), Madrahim Sheroziy Orif Toshmatov (Orif garmon va boshkalar.).

O'zbekistonning musiqiy madaniyati 20-40 yillar

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot muhiti: 1917-1940 yy. Badiiy havaskorlar jamoalarining tashkil topishi, faoliyati va professional san'atlarning rivojlanish jarayoniga tashkil topishining quyidagi mohiyati. Respublikada maxsus musiqa o'kuv maskanlarning ochilishi, faoliyati va muhiti. Milliy professional zamonaviy teatrlarning bunyodga kelishi. O'zbekiston radio eshittirish komitetining 1927y. Tashkil topishi va musiqiy targ'iboti. O'zbek radio va O'zbek filarmoniya qoshidagi ijrochi jamoalarning tashkil topishi, faoliyati va mohiyati. Bastakorlik san'atning namoyondalari: Hoji Abdulaziz Rasulov, Yu.Rajabiy, T.Jalilov, F.Sodiqov, N.Xasanov, K.Jabborov, P.Raximov, S.Kolonov, M.Murtazoev, M.Niyozov, M.Xarratov, J.Shomurodovlarning hayoti va ijodiy faoliyatlari. O'zbekiston Kompozitorlari uyushmasining tashkil topishi, faoliyati va mohiyati.

2. Madaniy va musiqiy hayot 1941-1945yy ikkinchi jahon urush yillarida. Kontsert tashkilotlari va teatrlar faoliyati. Front kontsert brigadalarining tashkil topishi va faoliyatlari. Shu yillarda bastakor va kompozitorlarni ijodiy faoliyati. Urush yillarida bunyodga kelgan musiqali drama va operalar. Xulosa.

Madaniy va musiqiy hayot XX- asrning 50- 80 yillarida

1. Respublikamizda iqtisodiy - ijtimoiy va madaniy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar. KPSS Markaziy qo'mitasining 1948 yil 10 fevraldagi V.Muradelining

«Xalklar do'stlik» operasini va modernistik musiqiy oqimlarni tanqid ostiga olgan maxsus qarorining mohiyati va salbiy natijasi. Mazkur qarorni o'zbek zamonaviy musiqa san'atiga va kompozitorlar ijodiyotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri. Respublikada zamonaviy professional musiqiy va teatr san'atlarini rivojlantirish jarayonini yanada yaxshilash va musiqiy o'kuv bilim yurtlar, musiqa maktablarni va konservatoriya kabi san'at dargohlarini ish faoliyatlarini takomillashtirish tug'risida O'zbekiston Kompartiyasining Markaziy Komiteti 1951, 1960, 1964, 1974 yillarda qabul qilgan qarorlarining mohiyati. Qarorni amalda joriy etishdagi yutuq va kamchiliklar. Musiqiy san'atni yanada rivojlantirishda: xalk sayillari, musiqiy badiiy havaskorlar jamolarini bunyodga kelishi va faoliyatlari, ko'rik-tanlovlar, festivallar, qo'shik bayramlar, simpoziumlar va dekadalar o'tkazishlarning mohiyati. «Marhabo talantlar», «Chashma» va boshka musiqiy televizion ko'rsatuvlarning ahamiyati, yutuq va kamchiliklari. O'zbek filarmoniyasi, o'zbek estrada-kontsert tashkilotlarida va o'zbek teleradiokompaniya qoshlaridagi eski va yangi tashkil topgan: xor, simfo-jaz orkestr, komer orkestr, kvartet jamoalarining faoliyati. O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining 1948, 1955, 1960, 1962, 1965, 1971, 1977, 1982, 1987, 1995 yillarda o'tkazilgan quriltoyi va ularning oralarida o'tkazilgan Plenumlar mohiyati.

Musiqali teatr

O'zbek musiqali teatrining rivojlanish jarayoni. Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotida. Yillar davomida yaratilgan juda ko'p musiqali dramalar: «Xalima», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara», «Tohir va Zuhra», «Alpomish», «Ravshan va Zulxumor», «Nurxon», «Vatan ishq», «Zafar», «Alisher Navoiy Astrobodda», «Momo yer», «Ishqing bilan», «Kimga to'y, kimga aza», «Yusuf va Zulayho», «Fotima va Zuxra», «Prometey», musiqali komediyalardan: «Oltin ko'l», «Toshbolta oshiq», «Jon qizlar», «Ajab savdolar», «O'jarlar» kabi sahna asarlarni magnit tasmasi orqali yaqindan tanishish, ularni tahlil qilish va janrlarning rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar. Xulosa.

Opera

Milliy opera san'atining rivojlanish jarayoni. Birinchi o'zbek operasi «Bo'ron», operaning bunyodga kelishi va mohiyati. Ishqiy romantik mavzuda yaratilgan operalar: «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra», «Dilorom».

Tarixiy va tarixiy-biografik mavzularda yaratilgan operalar: «Mahmud Torobiy», «Ulug'bek», «Zulmatdan ziyo», «Xamza», «Oy jamoli», va boshqalar. Birinchi o'zbek hajviy (komik) «Maysaraning ishi» operasi. Ayrimlarni magnit tasmalari orkali tinglab bu sohada tug'ilgan fikr va mulohazalar, opera ijrochilarining namoyondalari.

Balet

Milliy balet san'atining rivojlanish jarayoni. Rus kompozitorlari tomonidan, o'zbek musiqa merosi asosida yaratilgan «Paxta», «Shohida», «Oq bilak» baletlarning bunyodga kelishi, mohiyati. Birinchi milliy «Suhail va Mehri», «Raqqosa», «Orzu», «Tanovar», «Sevgi tumori» «Kashmir afsonasi» «Hind

afsonasi» «Tomiras», «Samarqand afsonasi», «Layli va Majnun», (bir parda), «Navro'z» kabi baletlarning yaratilishi, ularning trixiy o'rinlari, yutuq va kamchiliklari, janr muammolari va xulosa.

DRAMA, BOLALAR va QO'G'IRCHOQ teatrlar, spektakllariga o'zbek kompazitorlarning yaratgan musiqalar. Misol sifatida quyidagi spektakllarning nomlari keltiriladi; M.Burxonov «A.Navoiy» p'jesasi, I.Sulton va Uyg'unlarning Hamza teatrida 1943 yil namoyish etilgan «Boy ila xizmatchi», Qo'g'irchoq spektaklida namoyish etilgan «Oygul va Baxtiyor», I.Akbarov «Yulduzlarni ko'raman», «Zamon» dramasi, «Yo'lchi yulduz», «Tabassum o'g'irlari», «Yo'qotilgan uzuk», «Baxt qo'shig'i», «Shohi so'zana», «Muhabbat afsonasi», «Turkiya haqida hikoya», «Holisxon», «Ulug'bek», «Pochta», «Abdulla Nabiev», «Kim aybdor», «Aytsam tilim kuyadi, aytnasam dilim», «Qovoqvoy va chanoqvoy», «Farhod va Shirin», «To'rt qovoq», «Shirin buloq», «Qirol Lir», «Elektro», «G'aroyib oqshom».

OVOZLI (VOKAL) MUSIQA

1. Qo'shiq va romans o'zbek kompazitorlari ijodiyotida; Respublikamizda yangicha uslubiy jarayonda yaratilgan original qo'shiqlar. Kompazitorlar: M.Burxonov, S.Boboev, T.Sodiqov, D.Zokirov, X.Raximov, F.Nazarov, S.Jalil, M.Leviev, S.Yudakov, M.Nasimov, S.Xayitboev, Sh.Shayimardonov, M.Yusupov, M.Bafoev, F.Alimovlarning mashhur qo'shiqlaridan namunalar.

2. ROMANS JANRIning rivojlanish jarayoni. Mazkur janrning rivojlanishida kompozitorlar: M.Ashrafiy, M.Burxonov, T.Sodiqov, S.Boboev, M.Leviev, S.Yudakov, D.Zokirovlarning o'rni va ularning romanslaridan namunalar.

3. Jo'rli va jo'rsiz a'kapella xor qo'shiq san'atining rivojlanish jarayoni. Mazkur jarayon rivojlanishda M.Burxonovning o'rni, uning Markaziy Osiyo xalqlari qo'shiqlari asosida qayta ishlagan, a'kapella xor turkumining mohiyati, xor jamoalarining repertuarlarini boyitishda I.Akbarov, S.Boboev, S.Jalil, F.Nazarov, M.Nasimov, Sh.Ramazonov, A.Xalimov, M.Bofoev, A.Mansurov, F.Alimovlarning xor asarlaridan namunalar. Respublikamizda ko'p ovozli xor san'atining rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar, muammolar.

4. Ko'p qisimli Vokal-simfonik (syuita, kantata va oratoriya) janrlarning rivojlanishi jarayoni. Mazkur janrlar kompozitorlar ijodiyotida:

Syuita: S. Yudakovning «Mirzacho'l» syuitasi (G'.G'ulom so'zi 1950 y), I.Akbarovning «Xamza» K.Yashin so'zi 1962 y.

5. Oratoriya: Mazkur janrning kompozitorlar ijodiyotida rivojlanishi. Misol sifatida quyidagi oratoriyalar nomlari keltiriladi: I.Akbarovning Toshkentnoma (M.Shayxzoda so'zi, 1962y), «Xamsa» (A.Navoiy so'zi) va «Mangu xotira» (X.Olimjon va X.G'ulom so'zlari, 1985y). Ko'p ovozlari vokal-simfonik syuita, kantata va oratoriya janrlarning rivojlanishida yutuq va kamchiliklar, muammolar. Xulosa.

Cholg'u musiqa

O'zbekistonga simfonik musiqa san'atining kirib kelishi va tarixiy yo'nalishi, simfonik orkestrlarning paydo bo'lishi. 20-40 yillarda simfonik musiqaning rivojlanish jarayoni. Mazkur davrda rus kompozitorlaridan: N.Mironovning 4 ta

o'zbek va 4 ta qozoq xalq kuylari asosida yaratgan 8 qismli «Trkiston» syuitasi, V.Uspenskiyning ikkita qozok, afg'on «Akramxon» va o'zbek «Zarkokil» xalk kuylarini simfonik orkestr uchun qayta ishlab, moslashtirgan 4 qisli syuitasi, V. Deshevovning «Samarkand» syuitasi (1936 y), M.Ippolitov- Ivanovning «O'zbekistonning musiqiy manzarasi» syuitasi, V.Zolotaryovning «Farg'onacha marsh», «O'zbekcha rapsodiya» va o'zbek kuylari asosida «syuita»lari, R.Glierning «Tantanavor uvertyura», «Farg'onada bayram» uvertyura, V.Uspenskiyning «Muqanna» syuitasi, «O'zbekcha poema-rapsodiya», «Turkmancha kaprichcho», A.Kozlovskiyning «Tanovor» poemasi, G.Mushel'ning o'zbekcha musiqa intonatsiya asosida yaratgan «Birinchi simfoniya» (1938 y) va «Ikkinchi simfoniya» (1941y)lari. Qayd qilingan kompozitorlar asarlarining O'zbekistonda simfonik musiqaning joriy etilishdagi o'rinlari va mohiyati.

Mazkur davrda endi zamonaviy professional kompozitorlik ijodiyotiga qadam qo'ygan o'zbek kompozitorlaridan: M.Ashrafiy, T.Sodiqov va Sh.Ramazonovlarning «Sadrash», M.Levievning «Nurxon «poema, M. Burxonovning «O'zbekiston qizi» syuita (1938 y); M.Ashrafiyning «Qaxramonlik» birinchi simfoniya (1942 y), uchta simfonik syuita kabi simfonik asarlarning bunyodga kelishi

XX asrning 50-80 yillarida simfonik musiqaning turli janrlari rivojlanish jarayoni va o'zbek simfonizimining shakllanishi, rivojlanishi, yutuq va kamchiliklar, muammolar.

1. SIMFONIK SYUITA-kompozitorlar ijodiyotida: S.Boboevning ikkita simfonik syuitalari, D.Zokirovning birinchi va ikkinchi syuitalari, D.Soatqulov syuitasi, T.Qurbonovning 3 qismli syuitasi, Ik. Akbarovning «Pochta» (1969), M.Burxonovning «Samolyotlar qo'na olmadilar»; «Surayyo», «Ibn Sino» kinofilmlar musiqalari asosida tuzilgan simfonik syuitalar; A.Kozlovskiyning qoraqalpok xalq kuyi asosida yaratilgan ikkita simfonik syuitasi; B. Gienko «O'zbekistonning lirik manzarasi» 6 qismli syuita; S.Jalil «Toshkent simfonik musiqa manzarasida» 4 qismli syuita; A.Xalimovning 4 qismli syuitasi; Ik. Akbarovning «Orzu» balet musiqasidan syuita; B.Gienkoning Xorazm xalk kuylari asosida yaratilgan syuita; M.Levievning «Suxayl va Mexri» balet musiqasi asosida syuita; X.Raximovning 5 qismli «Raqs syuita»si,

2. SIMFONIK POEMA-kompozitorlar ijodida: Ik.Akbarov «Shoir xotirasi», «Epik poema»; S.Boboev «Segoh» va «Bayram kuni», H.Raximov «Yoshlik» poemalari, A.Muhammedov «O'spirin», M.Ashrafiy «Temur Malik», B.Gienko «Mirzacho'l», S.Yudakov «Poema-ropsodiya», M.Tojiev «Shoir muhabbati»; U.Musaev «Bayram navo», D.Saydaminova «Simfonik poema», Sh.Shaymardanov «Simfonik poema», M.Mahmudov «Simfonik poema»; U.Musaev fortepiano va orkestr uchun «Tantanavor poema», D.Zokirov «Hamza».

3. SIMFONIK UVERTYURA-kompazitorlar ijodiyotida: M.Ashrafiyning «Bayram tantanavor uvertyurasi», K.Kenjaevning «Yoshlar uvertyurasi», S.Yudakovning «Tantana uvertyurasi», «Xorazmcha bayramona yurish» va «Festival» uvertyurasi», M. Tojievning «Bayram uvertyurasi», M.Mahmudovning «Simfonik uvertyura», N.Norxo'o'jaevning «Uvertyura», R.Hamraevning

«Yoshlik bayrami», F.Yanov-Yanovskiyning «Simfonik orkestr uchun uvertyura»si.

4. Simfoniya-kompozitorlar ijodiyotida:

Simfoniya janr va shakl sifatida shakllanish jarayonining zamini klassik va zamonaviy Ovroq va rus kompozitorlarini ta'siri. O'zbek simfonizmining rivojlanish jarayoni va namoyondalari: F.Nazarovning birinchi simfoniyasi (1955), R.Hamroevning 4 qismli birinchi simfoniyasi va bir qismli 2 simfoniyasi (1965, 1968), T.Qurbonovning beshta simfoniyasi; Sh.Shaymardonovning birinchi simfoniyasi, M.Tojievning 19 simfoniyasi, M.Mahmudovning «Navo» simfoniyasi, X.Raximovning simfoniyalari, S.Jalilning «Samarqandnoma» simfoniyasi, M.Bofoev, N.G'iyosov simfoniyalari. N.Zokirov, F.Alimov, S.Xayitboevni, B.Gienko, Q.Komilov, S.Karimov, B.Lutfullaev simfoniyalari rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklari, hamda dirijyor namoyondalarining faoliyati.. ChOLG'U KONTSERT - kompozitorlar ijodiyotida: cholg'u kontsert janrining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni. O'zbekistonda kontsert janrini rivojlantirishda G.Mushel'ning o'rni. Fortepiano uchun quyidagi kompozitorlar kontsert yaratishgan: R.Xamroev, F.Nazarov, N.G'iyosov, D.Saydaminova, U.Solixov, D.Omonullaeva, A.Ergashev, D Yanov-Yanovskiy, P.Xalilov, M.Otajonov, R.Abdullaev, N.Zokirov.

Skripka uchun kontsert yozgan kompozitorlar: B.Brovtsin, Sh.Akbarov, R.Xamroev, Sh.Shayimardonova, S.Jalil, G.Vil'danov, F.Yanov-Yanovskiy, alb skripka uchun X.Raximov, N.G'iyosov, A Varelas, A Latifezade.

Violonchel uchun kontsert yozgan kompozitorlar: A.Malaxov, S.Jalil, I.Akbarov, B.Gienko, N.G'iyosov, K. Kenjaev, X.Raximov, A.Ergashev.

Truba (damli cholg'u asbobi), uchun kontsert yozgan kompozitorlar:S.Karim-xoji ikkita kontsert, S.Anvarov,P.Xoliqov.

Fleyta uchun kontsert yozgan kompozitorlar: S.Karim-xoji, V.Milov, X.Raximov, V.Saparov.

Kontsert, ovoz va simfonik orkestr uchun quyidagi kompozitorlar kontsert yaratgan: F.Alimov, X.Raximov.

O'zbekiston kompozitorlari simfonik va kamer simfonik orkestrlari uchun yaratilgan asarlarni ayrimlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash.

Kamer - cholg'u musiqa

1. Kamer-cholg'u musiqa janrlarining respublikamizda tarixiy yo'nalish jarayoni. Yakka cholg'u asboblari uchun 50-80 yillarda kompozitorlar ijodiyotida yaratgan yaxshi asarlaridan namunalar ko'rsatish X.Izomovni fortepiano uchun «Tokkata», «Noktyurn» va «Musiqali quticha», Ik.Akbarovning «Alla», «Noktyurn», X.Azimovning «Fortepiano albom to'plamlari», B.Gienkonning «Preljudyia»lari, bolalar uchun f-no albomi va ikkita f- no uchun kontsertino «Masqarabozlar», N.Zokirov f-no uchun «Syuita», S.Jalilning f –no uchun 20 ta asaridan bittasi, F.Nazarovning albomidan bitta asar D.Omonullaeva 3ta «Sanata», M.Otajonovning 12ta preljudiyasidan bittasi, ikkita f-no uchun «Duet»,

M.Bofoevning «Alpomish» sahifasi o'qib musiqali suratlari va boshqa asarlar skripka va f-no uchun S. Yudakovning «Sharq poemasi», D.Saidaminovanning «sanata», U.Solixovning «sanatina», I.Xamraevning «rondo»si.

Mazkur davrda kompozitorlar turli ovropa va o'zbek musiqa cholg'u asboblari uchun juda ko'p, turli janrlarda asarlar yaratishdi va ular ijrochilarni repertuarlariga va o'quv dastulariga kiritilgan. Shulardan namuna ko'rsatiladi.

2. Kamer-cholg'u musiqa ansambllari kompozitorlar ijodiyotida rivojlanish jarayonining tarixiy yo'llanishi. Turli guruh ansambllarining paydo bo'lishi. Fortapiano triosi ya'ni skripka, Violonchel va f-no uchun yaratilgan asarlar. M.Burxonovning triosi, A.Nabievning triosi.

Torli kvartet (ya'ni skripka, al't skripka, 2-skripka violonchel uchun yaratilgan asarlar, S.Yudakovning syutasi (1962). S.Boboev, M.Leviev, A.Sobitov, M.Yunusov. A.Varelas, A.Otajonov, Sh.Shoimardonovalarning syuitalari. Torli kvartet yaratdilar. B.Gienko, A.Akbarov, F.Nazarov, D.Soatqulov, S.Absamatov, F.Alimov, D.Amanullaeva, S.Anvarov, M.Bofoev, N.G'iyosov, S.Jalil, N.Zokirov, S.Karim-xoji, B.Lutfullaev, A.Mansurov, N.Murinkova, A.Nabiev, D.Saidaminova, E.Salixov, A.Xotimov, Sh.Shoymardonova, D.Yanov-Yanovskiy, F.Yanov-Yanovskiy. Mazkur kompozitorlar kamer-cholg'u musiqani turli janrlarida ko'p asarlar yaratdi. Ularning yutuq va kamchiliklari...

O'zbek xalq cholg'u asboblari uchun musiqa

1. O'zbek xalq cholg'u asboblari takomillashtirish jarayoni. Mazkur jarayonda bunyodga kelgan g'oya, amaliyotda joriy etishdagi tug'ilgan muammolar, natija va xulosa.

O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri tashkil topishi. Konservatoriyada xalq cholg'u musiqa kafedraning tashkil topishi. Orkestr uchun maxsus musiqiy asarlar yaratishdagi yutuq va kamchiliklar, tug'ilgan muammolar. Orkestr uchun yaratilgan asarlardan namunalar; S.Boboevning «Bayram uvertyura»si, D.Zokirovni xalq musiqasini orkestr uchun qayta ishlagan asarlar; «Yovvoyi Ushshoq», «Navo», «Savti Navo», «Yovvoyi chorgoh», «Ufori navo», «Nasrulloiyi», «Muhammasi iroq», «Mirza davlat», «Yolg'iz», original asarlar; «Syuita», vokal syuitalar; «Suv keldi- hayot keldi», «Qarshi cho'li gullari», G'.Qodirovning ikkita syuitasi (1952, 1954) va mumtoz xalq ashula «Hanuz» (A.Navoiy so'zi) qayta ishlagan, M.Leviev orkestr uchun qayta ishlangan «Girya qozoq» va «Ulkun jonon» (Muqimiy so'zi) mumtoz xalq ashullalari, F.Nazarovning qoraqolpoq xalq musiqasi asosida «Rapsodiya»; B.Gienkoning qoraqolpoq xalq musiqasi mavzuida syuita va Tog' – badaxshon xalq musiqasi asosida «Fantaziya», «Shodlik bayrami» uvertyura; «Pomir uvertyurasi; xalq musiqasini orkestrga qayta ishlaganlar; M.Mirzaev va S.Gabrielyan hamkorlikda «Rohat», F.Alimovning uvertyuralari; «Shodiyona», «Tabriknoma», «To'yona», «Poema» va uch qismli «Kontserti», M.Bafoevning qashqar rubobi va orkestr uchun «Poema», «Bayram tantanasi» poemasi; orkestr uchun «Kotsert», «Zarafshon to'lqinlari» syuita, tanbur uchun «Kotsert», ud uchun «Poema», orkestr uchun «Buxorcha» nomli kontsert; T.Qurbonovning o'zbekcha, qirg'izcha,

tojikcha , qoraqalpochka va turkmancha «Xamsa» beshta poema, «Bayram uvertyura»si, «Lirik poema», «Rapsodiya», «Yoshlik» va «Muborakbod» uvertyuralar, ikkita simfoniya orkestr uchun, nay va orkestr uchun «Rondo», g'ijjak va orkestr uchun «Kontsert- poema», I.Hamroevning chang uchun ikkita kontserti va boshqa juda ko'p asarlar kompozitorlar tomonidan yaratilgan. T.Jalilov nomidagi akademik va D.Zokirov nomidagi professional o'zbek xalk cholg'u asboblari orkestrlarining repertuari juda ham boy. Mazkur orkestrlar uchun doimiy ravishda kompozitorlar turli janr va shakllarda asrlar yozib kelmoqdalar.

2. OVRO'PA DAMLI CHOLG'U ORKESTRI UCHUN MUSIQA OVRO'PA VA ROSSIYA'DA SHAKLLANGAN DAMLI cholg'u asboblardan tuzilgan orkestr (duxovoy orkestr)ning O'rta Osiyoga kirib kelishi. Harbiy orkestrlarning faoliyati. Orkestr repertuariga O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy merosidan ayrim namunalar kiritilishi. Bu sohada. F.V.Leysek, V.I.Mixalik, A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov boshqa dirijyorlarning faoliyati. O'zbek sozandalaridan damli orkestrlarning bunyodga kelishi. Harbiy va turli zavod, fabrika va o'quv yurtlarida damli cholg'u orkestrlarning tashkil topishi va faoliyati. Orkestrlar repertuarlarini boyitishda respublika kompozitorlarining faoliyati. M.Ashrafiyning «O'zbekiston» va «Tantanali» marshi (1941)y, D.Zokirov «Marsh», F.Nazarov «O'zbekcha marsh» va «Bayram marshi», S.Varelasning 1 va 2 «Marshi», uch qisimli syuita, truba va orkestr uchun «Kontsert p'yesasi» va «G'alaba marshi», S.Xayitboevning rubob va orkestr uchun «Ballada», P.Xalilovning «Farg'ona» o'zbekcha marsh, uvertyuralari. «Polk o'g'li» uvertyura, truba va orkestr uchun «Kontsert» va «Toshkent» marshi.

KINO MUSIQA

1.O'zbekistonga kino-san'atining kirib kelishi. Ovozsiiz o'zbek kinofil'mlar va ularning musiqiy bezalishi. Ovozli o'zbek badiiy kino fil'mlarning musiqiy bezashni tarixiy yo'nalishi, yutiqlik va kamchiliklar, muammolar. O'zbek badiiy kinofil'mlarni yaratishda respublika kompozitorlarining faoliyati. Quyidagi kinofil'mlarga yaratilgan musiqalar tug'risida fikr-mulohazalar: Birinchi ovozli o'zbek fil'm «Qasam» (rej. A.Usoltsev-Garf), musiqiy bezatuvchi A.Knyazevskiy; «Asal» (rej. B.Kozochkov), musiqasi kompozitor L.Stepanovniki; «Kontsert frontu» (rej. Y.A'zamov), musiqa turli bastakor, kompozitor va xalk ashula-qo'shiq va raqs kuylaridan tuzilgan, «Nasriddin Afandi Buxoroda» (rej. Ya.Protazinov-1943y.), musiqa M.Ashrafiy va B.Aripovlarniki; «Tohir va Zuhro» (N.Ganiev-1945y), musiqa T.Sodiqov va A.Kozlovskiylarniki va ularning «Nasriddinning sarguzashtlari»; «Alisher Navoiy» (rej. K.Yormatov-1947y), musiqa T.Sodiqov va R.Glierlarniki; «Boy ili xizmatchi» (L.Fayziev-1953y), musiqa M.Burxonovniki; «Amirlikni kurashi» (Rej. L.Fayziev va V.Basov-1955y), musiqa D.Zokirov va M.Ziflarniki; «Aviatsenna» (Rej. K.Yormatov-1956), musiqa M. Burhonovniki; «Qutlug' qon» (Rej. A.Pann-1956y), musiqa D.Zokirov va M. Zivkerniki.

«Stadionda uchrashamiz» (Rej. Z.Sobitov-1955y), musiqa D.Soatqulov va G.Mushellarniki; «Orol baliqchilari» (Rej. Yo'ldosh A'zamov-1938y), musiqa

Ik.Akbarov. M.Burxonov; «Qutlug' qon»(rej. A. Pann-1956 y.), musiqa D.Zokirov va M. Ziv «Stadionda uchrashamiz» (rej. Z. Sobitov-1955 y.), Musiqa. X.Soatqulov va T.Mushellarning «Orol baliqchilari» (rej. Yo'ldosh A'zamov-1956y.), Musiqa I.Akbarov M.Burxonov va M.Levnevlarning;» Maftuningman «(rej. Yo'ldosh A'zamov-1958y.), Musiqa Ik.Akbarov. M.Burxonov. M.Levnevlarniki; «Ikkinchi gullashi» (rej. L.Fayziev-1959y.), musiqa Ik.Akbarovniki «Furqat»(rej. Yo'.A'zamov-1959y.), Musiqa S.Yudakovniki «Qachon atirgul gullaganda» (rej. K.Yormatov-1959y.), musiqa Ik.Akbarovning «Xamza» (rej. Z.Sobitov-1960y.), mus. Ik. Akbarovniki. «Mahallada duv-duv gap» (rej. Sh.Abbosov-1960y.), mus. M. Levnevniki; «Sinchalak» (rej. L.Fayziev-1961y.), mus. Ik.Akbarovniki. «Tark qilingan kelin» (rej. Y. A'zamov-1961y.), mus. M.Burxonovniki. «Sen yetim emassan» (rej. Sh.Abbosov – 1962y.), mus. Ik.Akbarovniki. «Samolyotlar qo'na olmadi» (rej. Z.Sobitov-1962y.), mus. M.Burxonovniki. «Beshtasi Farg'onadan. rej. Y. A'zamov-1963y. Musiqa X.Raximov va A. Berlinlarniki, «Qaydasan Zulfiya» rej. A.Xamraev-1964y. Musiqa D.Zokirov. Sh. Ramazonov, A. Malaxovlarniki, «Osiyo ustida bo'ron», rej. K.Yormatov-1964y. Musiqa Ik.Akbarovniki. «Ulug'bek yulduzlari», rej. A. Pann-1964y. musiqa. D.Zokirov va M.Ziflarniki, «Bloknotdan varaqa», M.Levievniki «Surayyo» U.Nazarov 1965, musiqa M.Burxonovniki. «Uyg'onish» yoki «Faximlai ko'zi ochildi» Sh.Abbosov 1965y., musiqa E.Solixov. «Ikki dil dostoni», K.Yormatov 1966 y., musiqa I.Akbarov (ashulalar M.Burxonov), «Nozik» (rej. E.Ishmuxammedov 1966y., musiqa E.Solixov;

O'zbek kinofilmlariga eng ko'p musiqalar yaratgan kompozitor R.Vil'danovning ijodiy faoliyati bilan bog'lik. U 102 badiiy kino; 46 mul'tfil'm; 14 hujjatli fil'mlarga musiqa yaratgan. Masalan uning qalamiga mansub kinofilmlardan: «Darbozlar», (rej. R.Botirov 1969y), «Oppoq oppoq laylaklar» (rej. A.Xamraev 1965y), «26-otilmasin» (R.Botirov 1966y), «General Raximov» (rej. Z.Sobitov1967y), «Farxodni jasorati» (rej. A.Xachaturov 1967y), «Qizil qum» (rej. A.Xamroev 1968y), «Etinchisi o'q» (rej A. Xamroev 1972y), «Abu Rayxon Beruniy» 2 seriya (rej. Sh.Abbosov 1977y).

O'zbek kinofilmlariga F.Yanov – Yanovskiy, D.Saydaminova, V.Milov, S.Jalil va boshqa kompozitorlar ham musiqa yaratishgan va yaratib kelmoqdalar.

2. O'zbek telefilmlar uchun musiqani asosan respublika kompozitorlari yaratmoqdalar. Bu sohada ham yutuqlar, kamchiliklar va muammolar mavjud. Misol sifatida yillar davomida namoish qilingan telefilmlardan ayrimlarining nomlari; «Ona qalbi», «Hayot», «Odam odamga» musiqalari Raximovniki «Azizaxon» S.Jalil musiqasi «Hamro buvaning ertagi», «Sharq», «Bahor» E.Solixovni musiqalari.

«Vatan uchun» I.Akbarovning musiqasi; ayniqsa M.Bafoev bastalagan, quyidagi telefilmlar, musiqasi asosida «Buxoroi sharif» (X.Davron librettasi-1997 y), teleopera-doston, «Nodira» (Yu.Ismatova librettosi-1992 y) bir pardali tele-balet; «Hajnoma» (A.Oripov so'zi) teleoratoriya; F.Alimovning «Mehrobdan chayon» va «Muhabbat nidosi» telebadiiy filmlar, N.G'iyosovning «Bahodir Jalolov», «Abdulla Kahhor», «Alisher Navoiy», «Loqayd kasalligi» va «Charxpalak» telefilmlari musiqalari.

3. MUL'TIPLIKATSION kinofil'mlarga ham kompozitorlar juda ko'p musiqa yaratmoqdalar. R.Vil'danov 46 ta mul'tfil'mlarga musiqa bastaladi. Ularning orasidan: «Sehirli sandiq», «Ajoyib hodisa», «Kichkina yolg'onchi», «Oq tuya», «Ho'ja Nasriddin», «Kva-kvalarning kvarteti»; D.Saidaminovning «Sehirli gilam», F.Yanov-Yanovskiyning «Kichik bo'lsada lekin dovyurak», «Sehirli nay», «Uchadigan yumronqoziq», «Loydan bayt», «Sichqonlarning podshosi», «Tomchi», «Yoqimli yomg'ir», D.Yanov-Yanovskiyning «Kel olishtiramiz», «Ichkilar orasida begona» va boshqalar.

4. HUJJATLI KINOFIL'MLAR uchun quydagi kompozitorlar musiqa yaratishgan; R.Vil'danov 14 ta hujjatli kinoga musiqa yaratdi. Shular orasida: «Shoxi – Zinda», «Bibi Xonim», «Registon», «Beqiyos sahro», «Er, orzu, muhabbat», «Chingiz Aytmatov»; Ik.Akbarov 10 ta hujjatli kinolarga musiqa yaratdi. Shularning orasida «Gazchilar» kino poema mashhurdir.

O'ZBEK ESTRADA MUSIQASI.

O'zbekistonda 20-40 yillarda milliy estrada san'atining bunyodga kelishida M.Koriyoqubov, Usta Olim Komilov, Tamara Xonim, T.Jalilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Abduqodir Ismoilov, Po'latjon Rahimov, Jo'raxon Sultonov, Siddiq –Hoji Islomov, Gavhar Rahimova, Ahmadjon Umurzoqov, Mukarrama Turg'unboeva, Berta Davidova, Hoji Umar, Lutfixonim Sarimsoqovalarning o'rinlari. 1940 yilda O'zbek filormoniyasi qoshida «Tamaraxonum estrada ansambli»ning tashkil topishi va uning ahamiyati, faoliyati.

50 – 80 yillarda zamonaviy o'zbek estrada san'atining rivojlanish jarayoni. O'zbek filormoniya tarkibidan estrada guruhlarini chiqarish. «O'zbek estrada» kontsert tashkilotining bunyodga kelishi va faoliyati. 1958y. «O'zbekiston estrada jaz – orkestr»ining tashkil topishi va faoliyati. Estrada xonandalari: Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Elmira O'razboeva, Staxan Raximov –Ioshpe, Bahrom Mavlonov, Yunus Turaev, Sason Kandov, Ra'no Sharipova, Muhabbat Shamaeva, Toshtemir Sharipov, Sason Benyaminovlarning estrada qo'shiqlarini targ'ibot qilishdagi faoliyatlari. Farrux Zokirov rahbarligidagi «Yalla» guruhining faoliyati. O'zbekiston teleradio kompaniya qoshida simfo – jaz orkestrinngi tashkil topishi va faoliyati.

ESTRADA QO'SHIQ SAN'ATINING RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA P.Raximov, M.Niyozov, M.Mirzaev, N.Xasanov, F.Sodiqov kabi bastakorlar va Sh.Ramazanov, X.Izamov, Ik.Akbarov, Muxamedov, G'.Qodirov, X.Raximov, M.Burxonov, M.Leviev, S.Yudakov, E.Salikov, S.Jalil, X.Soatqulov, Sh.Shaimardanova, D.Zakirov, D.Saidaminova, N.Norxo'jaev, A.Mansurov, D.Amanullaeva, A.Ikromov, G.Xolikov, A.Rasulov va boshqa kompozitorlarning faoliyatlari va o'rinlari. Mazkur ijodkorlarning estrada qo'shiqlaridan namunalar eshitiladi va Xulosa.

BOLALAR VA O'SMIRLAR UCHUN MUSIQA.

1. Bolalar va o'smirlar uchun ovozli (vokal) musiqa.

Bolalar uchun xalk qo'shiqlari tug'risida qisqacha tarixiy ma'lumot. Bastakor va kompozitorlar ijodiyotlarida bolalar va o'smirlar uchun yakka xonandalik qo'shiq

janrining rivojlanish jarayoni. Mashhur qo'shiqlardan namunalar ko'rsatiladi. O'zbek kompozitorlari ijodida xor qo'shiqchilik san'atining rivojlanishi. O'zbekiston teleradio kompaniyasining qoshidagi «Bulbulcha» xor jamoasining tashkil topishi, faoliyati mohiyati. Mazkur bolalar xor jamoasi uchun kompozitorlar tomonidan yaratilgan xor, a'kapella, jo'rli xor qo'shiqlardan namunalar.

2. Bolalar va o'smirlar uchun yirik, ko'p qismli vokal cholg'u musiqa asarlar kompozitorlar ijodiyotida rivojlanishi. Misol sifatida quyidagi namunalar ko'rsatiladi: G'.Qodirovning «Maktubjon, Oftobjon» (T.Ilxomov) – 4 qismli vokal simfonik syuita va «Mirzacho'l» 4 – qismli kantata (T.Ilxomov so'zi); F.Nazarovning «Vatan bizning onamiz» (U.Rashid so'zi) – 5 qismli vokal-simfonik syuita;

3. Bolalar va o'smirlar uchun turli cholg'u asboblari, ansambllar va orkestrlar uchun yaratilgan musiqiy asarlardan namunalar ko'rsatiladi. B.Nadejdinni «bolalar» uchun simfoniya syuita, F.Nazarovni «Fortepiano kontserti» bolalar uchun.

O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI

1. O'zbek xalk musiqa merosini o'rganish zamonoviy notaga olishini tarixiy jarayonida A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, Yu.Rajabiy, M.Yunusov, A.Xalilov, I.Akbarov, F.Karamatov, M.Axmedovlarni nashr etilgan to'plamlari V.A.Uspenskiyning Buxoro Shashmaqomi N.N.Mironov rahbarligida M.Ashrafiy, T.Sodiqov, va Sh.Ramazanovlarni Buxoro, Farg'ona va Xiva qo'shiqlarni to'plami, Ye.E.Romanovskayaning ikki o'zbek Xalk qo'shiqlari, Xorazm klassik musiqasi, o'zbek laparlari, o'zbek cholg'u musiqasi. Nashrga I.Akbarov to'plagan: O'zbek vokal musiqasi Muqimiy va Furqat ashulalari. (1958y) to'plamlarni notaga oluvchilar; V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, Chetvertakov, Muhammad Aliev, I.Akbarovlar. Yu.Rajabiyning besh tomli «O'zbek xalk musiqasi» (1955 – 1985), olti jildli «Shashmaqom»(1966 – 1975), M.Yunusovning «Xorazm ashulalari» (1959), «Xorazm maqomlari» (1962), ikkinchi nashr «Xorazm maqomlari» (1981 – 1985), A.Xalilovning «Qoraqalpok xalq na'malari» (1959), F.Karomatovning «O'zbek xalk musiqa merosi» (1978), ikkinchi kitob «O'zbek xalk musiqa merosi» (1985), «O'zbek doyra musiqasi» (1962), Toshkent konservatoriyasining sharqshunoslik kafedrasida laboratoriyasida xalq musiqasi quliyozmalari.

2. O'zbek folklorshunoslik fanini rivojlantirishda A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, A.Fitrat, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, I.Akbarov, F.Karamatov, R.Yunusov, O.Ibrohimovlarning faoliyatlarini, ularning yaratgan ilmiy ishlarini, maqolalar, broshyuralar va kitoblar tug'risida, ma'lumotlar va misollarni o'qish tavsiya qilinadi.

3. Manbashunoslik fanini nazariy va tarixiy sohalarini rivojlanish jarayoni. Mazkur sohalarida musiqashunoslar tomonidan yozilgan va nashr qilingan kitoblar va to'plamlar, broshyuralar, ilmiy maqolalar va o'quv tadqiqot manbalarni yaratishda: A.Fitrat, T.Vyzgo, V.Uspenskiy, O.Matyokubov, S.Begmatov va

boshqa musiqashunoslarning faoliyatlari. Ular yozgan maqola, kitoblar mavzular orqali talabalarga tavsiya etiladi.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MUSIQIY JARAYON.

(20 asrning 90 chi yillari).

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot jarayoni.
2. Zamonaviy professional musiqa janrlarning rivojlanish jarayoni.
3. Respublikamizda qo'shiq bayrami va qo'shiq ko'rik-tanlovlarining o'tkazish mohiyati va g'oliblari.
4. «Sharq taronalari» Halkaro musiqa festivali mohiyati.
5. «Simfonik-musiqa» Halqaro musiqa festivalining mohiyati.

Madaniy va musikiy xayot XX - asr boshlarida.

(1900-1917 yillarda)

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy muhit: 1904-1905 yy. rus-yapon urushi, 1905 y. Rossiyada inqilobiy harakat, 1914-1917 yy. Birinchi jahon urushlarni iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotga salbiy ta'siri. Rossiyada turli siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi va ularning faoliyati. O'rta Osiyoga ham ta'siri.

2. O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi mustamlakachilik changalidan ozod bo'lishda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va mohiyati. Jadidchilik harakatlari ulug' namoyondalarining ijodiy faoliyatlari. Jadidchilar va Qadimiylarning g'oyaviy kurashlari. Jadidchilarning matbuot va ma'rufchilik faoliyatlari. Milliy uyg'onish davridagi o'zbek adabiyoti va san'ati. Ovropa uslubidagi milliy teatrning bunyodga kelishida jadidlarning o'rni. O'zbek xalqining musiqiy merosi va uning XX-asr boshlarida yashagan namoyondalari. Hofizlar: Domla Halim Ibodov, Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Erka Qori, Qurbon ota, Otajon Abdullaev (Xevon bobo), Onabibi Qori Otajonova, Shojalil, Nabixo'ja, Ilxom Rustamxon, Sodirxon va Hofizlar. Sozandalar: Shobarat-tanburchi, Abdusoat, Solixon, Karimbek-dutorchilar, Mirqosim tanburchi, Abduqodir Ismoilov-naychi, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Ro'zmatxon, Qurbon g'ijjakchi, Sultonxon Xalimov-tanburchi, Matyoqub Xarrat (Xarrat Devon bobo nomi bilan mashhur), Madrahim Sheroziy Orif Toshmatov (Orif garmon va boshkalar.).

O'zbekistonning musiqiy madaniyati 20-40 yillar

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot muhiti: 1917-1940 yy. Badiiy havaskorlar jamoalarining tashkil topishi, faoliyati va professional san'atlarning rivojlanish jarayoniga tashkil topishining quyidagi mohiyati. Respublikada maxsus musiqa o'kuv maskanlarning ochilishi, faoliyati va muhiti. Milliy professional zamonaviy teatrlarning bunyodga kelishi. O'zbekiston radio eshittirish komitetining 1927y. Tashkil topishi va musiqiy targ'iboti. O'zbek radio va O'zbek filarmoniya qoshidagi ijrochi jamoalarning tashkil topishi, faoliyati va mohiyati. Bastakorlik san'atning namoyondalari: Hoji Abdulaziz Rasulov, Yu.Rajabiy, T.Jalilov, F.Sodiqov, N.Xasanov, K.Jabborov, P.Raximov, S.Kolonov, M.Murtazoev, M.Niyozov, M.Xarratov, J.Shomurodovlarning hayoti va ijodiy

faoliyatlari. O'zbekiston Kompozitorlari uyushmasining tashkil topishi, faoliyati va mohiyati.

2. Madaniy va musiqiy hayot 1941-1945yy ikkinchi jahon urush yillarida. Kontsert tashkilotlari va teatrlar faoliyati. Front kontsert brigadalarining tashkil topishi va faoliyatlari. Shu yillarda bastakor va kompozitorlarni ijodiy faoliyati. Urush yillarida bunyodga kelgan musiqali drama va operalar. Xulosa.

MADANIY VA MUSIQIY HAYOT

XX- asrning 50- 80 yillarida

1. Respublikamizda iktisodiy - ijtimoiy va madaniy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar. KPSS Markaziy qo'mitasining 1948 yil 10 fevraldagi V.Muradelining «Xalklar do'stlik» operasini va modernistik musiqiy oqimlarni tanqid ostiga olgan maxsus qarorining mohiyati va salbiy natijasi. Mazkur qarorni o'zbek zamonaviy musiqa san'atiga va kompozitorlar ijodiyotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri. Respublikada zamonaviy professional musiqiy va teatr san'atlarini rivojlantirish jarayonini yanada yaxshilash va musiqiy o'kuv bilim yurtlar, musiqa maktablarni va konservatoriya kabi san'at dargohlarini ish faoliyatlarini takomillashtirish tug'risida O'zbekiston Kompartiyasining Markaziy Komiteti 1951, 1960, 1964, 1974 yillarda qabul qilgan qarorlarining mohiyati. Qarorni amalda joriy etishdagi yutuq va kamchiliklar. Musiqiy san'atni yanada rivojlantirishda: xalk sayillari, musiqiy badiiy havaskorlar jamolarini bunyodga kelishi va faoliyatlari, ko'rik-tanlovlar, festivallar, qo'shik bayramlar, simpoziumlar va dekadalar o'tkazishlarning mohiyati. «Marhabo talantlar», «Chashma» va boshka musiqiy televizion ko'rsatuvlarning ahamiyati, yutuq va kamchiliklari. O'zbek filarmoniyasi, o'zbek estrada- kontsert tashkilotlarida va o'zbek teleradiokompaniya qoshlaridagi eski va yangi tashkil topgan: xor, simfo-jaz orkestr, komer orkestr, kvartet jamoalarining faoliyati. O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining 1948, 1955, 1960, 1962, 1965, 1971, 1977, 1982, 1987, 1995 yillarda o'tkazilgan quriltoyi va ularning oralarida o'tkazilgan Plenumlar mohiyati.

MUSIQALI TEATR

O'zbek musiqali teatrining rivojlanish jarayoni. Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotida. Yillar davomida yaratilgan juda ko'p musiqali dramalar: «Xalima», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara», «Tohir va Zuhra», «Alpomish», «Ravshan va Zulxumor», «Nurxon», «Vatan ishq», «Zafar», «Alisher Navoiy Astrobodda», «Momo yer», «Ishqing bilan», «Kimga to'y, kimga aza», «Yusuf va Zulayho», «Fotima va Zuxra», «Prometey», musiqali komediyalardan: «Oltin ko'l», «Toshbolta oshiq», «Jon qizlar», «Ajab savdolar», «O'jarlar» kabi sahna asarlarni magnit tasmasi orqali yaqindan tanishish, ularni tahlil qilish va janrlarning rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar. Xulosa.

OPERA

Milliy opera san'atining rivojlanish jarayoni. Birinchi o'zbek operasi «Bo'ron», operaning bunyodga kelishi va mohiyati. Ishqiy romantik mavzuda yaratilgan operalar: «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra», «Dilorom».

Tarixiy va tarixiy-biografik mavzularda yaratilgan operalar: «Mahmud Torobiy», «Ulug'bek», «Zulmatdan ziyo», «Xamza», «Oy jamoli», va boshqalar. Birinchi o'zbek hajviy (komik) «Maysaraning ishi» operasi. Ayrımlarni magnit tasmlari orkali tinglab bu sohada tug'ilgan fikr va mulohazalar, opera ijrochilarining namoyondalari.

BALET

Milliy balet san'atining rivojlanish jarayoni. Rus kompozitorlari tomonidan, o'zbek musiqa merosi asosida yaratilgan «Paxta», «Shohida», «Oq bilak» baletlarning bunyodga kelishi, mohiyati. Birinchi milliy «Suhail va Mehri», «Raqqosa», «Orzu», «Tanovar», «Sevgi tumori» «Kashmir afsonasi» «Hind afsonasi» «Tomiras», «Samarqand afsonasi», «Layli va Majnun», (bir parda), «Navro'z» kabi baletlarning yaratilishi, ularning trixiy o'rinlri, yutuq va kamchiliklari, janr muammolari va xulosa.

DRAMA, BOLALAR va QO'G'IRChOQ teatrlar, spektakllariga o'zbek kompazitorlarning yaratgan musiqalar. Misol sifatida quyidagi spektakllarning nomlari keltiriladi; M.Burxonov «A.Navoiy» p'jesasi, I.Sulton va Uyg'unlarning Hamza teatrida 1943 yil namoyish etilgan «Boy ila xizmatchi», Qo'g'irchoq spektaklida namoyish etilgan «Oygul va Baxtiyor», I.Akbarov «Yulduzlarni ko'raman», «Zamon» dramasi, «Yo'lchi yulduz», «Tabassum o'g'rilari», «Yo'qotilgan uzuk», «Baxt qo'shig'i», «Shohi so'zana», «Muhabbat afsonasi», «Turkiya haqida hikoya», «Holisxon», «Ulug'bek», «Pochta», «Abdulla Nabiev», «Kim aybdor», «Aytsam tilim kuyadi, aytnasam dilim», «Qovoqvoy va chanoqvoy», «Farhod va Shirin», «To'rt qovoq», «Shirin buloq», «Qirol Lir», «Elektro», «G'aroyib oqshom».

OVOZLI (VOKAL) MUSIQA

1. Qo'shiq va romans o'zbek kompazitorlari ijodiyotida; Respublikamizda yangicha uslubiy jarayonda yaratilgan original qo'shiqlar. Kompazitorlar: M.Burxonov, S.Boboev, T.Sodiqov, D.Zokirov, X.Raximov, F.Nazarov, S.Jalil, M.Leviev, S.Yudakov, M.Nasimov, S.Xayitboev, Sh.Shayimardonov, M.Yusupov, M.Bafoev, F.Alimovlarning mashhur qo'shiqlaridan namunalar.

2. ROMANS JANRIning rivojlanish jarayoni. Mazkur janrning rivojlanishida kompozitorlar: M.Ashrafiy, M.Burxonov, T.Sodiqov, S.Boboev, M.Leviev, S.Yudakov, D.Zokirovlarning o'rni va ularning romanslaridan namunalar.

3. Jo'rli va jo'rsiz a'kapella xor qo'shiq san'atining rivojlanish jarayoni. Mazkur jarayon rivojlanishda M.Burxonovning o'rni, uning Markaziy Osiyo xalqlari qo'shiqlari asosida qayta ishlagan, a'kapella xor turkumining mohiyati, xor jamoalarining repertuarlarini boyitishda I.Akbarov, S.Boboev, S.Jalil, F.Nazarov, M.Nasimov, Sh.Ramazonov, A.Xalimov, M.Bofoev, A.Mansurov, F.Alimovlarning xor asarlaridan namunalar. Respublikamizda ko'p ovozli xor san'atining rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar, muammolar.

4. Ko'p qisimli Vokal-simfonik (syuita, kantata va oratoriya) janrlarning rivojlanishi jarayoni. Mazkur janrlar kompozitorlar ijoyotida:

Syuita: S. Yudakovning «Mirzacho'l» syuitasi (G'.G'ulom so'zi 1950 y), I.Akbarovning «Xamza» K.Yashin so'zi 1962 y.

5. Oratoriya: Mazkur janrning kompozitorlar ijodiyotida rivojlanishi. Misol sifatda quyidagi oratoriyalar nomlari keltiriladi: Ik.Akbarovning Toshkentnoma (M.Shayxzoda so'zi, 1962y), «Xamsa» (A.Navoyi so'zi) va «Mangu xotira» (X.Olimjon va X.G'ulom so'zlari, 1985y). Ko'p ovozlari vakal-simfonik syuita, kantata va oratoriya janrlarning rivojlanishida yutuq va kamchiliklar, muamolar. Xulosa.

Cholg'u musiqa.

O'zbekistonga simfonik musiqa san'atining kirib kelishi va tarixiy yo'nalishi, simfonik orkestrlarning paydo bo'lishi. 20-40 yillarda simfonik musiqaning rivojlanish jarayoni. Mazkur davrda rus kompozitorlaridan: N.Mironovning 4 ta o'zbek va 4 ta qozoq xalq kuylari asosida yaratgan 8 qismli «Trkiston» syuitasi, V.Uspenskiyning ikkita qozok, afg'on «Akramxon» va o'zbek «Zarkokil» xalk kuylarini simfonik orkestr uchun qayta ishlab, moslashtirgan 4 qisli syuitasi, V. Deshevovning «Samarkand» syuitasi (1936 y), M.Ippolitov- Ivanovning «O'zbekistonning musiqiy manzarasi» syuitasi, V.Zolotaryovning «Farg'onacha marsh», «O'zbekcha rapsodiya» va o'zbek kuylari asosida «syuita»lari, R.Glierning «Tantanavor uvertyura», «Farg'onada bayram» uvertyura, V.Uspenskiyning «Muqanna» syuitasi, «O'zbekcha poema-rapsodiya», «Turkmancha kaprichcho», A.Kozlovskiyning «Tanovor» poemasi, G.Mushel'ning o'zbekcha musiqa intonatsiya asosida yaratgan «Birinchi simfoniya» (1938 y) va «Ikkinchi simfoniya» (1941y)lari. Qayd qilingan kompozitorlar asarlarining O'zbekistonda simfonik musiqaning joriy etilishdagi o'rinlari va mohiyati.

Mazkur davrda endi zamonaviy professional kompozitorlik ijodiyotiga qadam qo'ygan o'zbek kompozitorlaridan: M.Ashrafiy, T.Sodiqov va Sh.Ramazonovlarning «Sadrash», M.Levievning «Nurxon «poema, M. Burxonovning «O'zbekiston qizi» syuita (1938 y); M.Ashrafiyning «Qaxramonlik» birinchi simfoniya (1942 y), uchta simfonik syuita kabi simfonik asarlarning bunyodga kelishi

XX asrning 50-80 yillarida simfonik musiqaning turli janrlari rivojlanish jarayoni va o'zbek simfonizimining shakllanishi, rivojlanishi, yutuq va kamchiliklar, muammolar.

1. SIMFONIK SYUITA-kompozitorlar ijodiyotida: S.Boboevning ikkita simfonik syuitalari, D.Zokirovning birinchi va ikkinchi syuitalari, D.Soatqulov syuitasi, T.Qurbonovning 3 qismli syuitasi, Ik. Akbarovning «Pochta» (1969), M.Burxonovning «Samolyotlar qo'na olmadilar»; «Surayyo», «Ibn Sino» kinofilmlar musiqalari asosida tuzilgan simfonik syuitalar; A.Kozlovskiyning qoraqalpok xalq kuyi asosida yaratilgan ikkita simfonik syuitasi; B. Gienko «O'zbekistonning lirik manzarasi» 6 qismli syuita; S.Jalil «Toshkent simfonik musiqa manzarasida» 4 qismli syuita; A.Xalimovning 4 qismli syuitasi; Ik. Akbarovning «Orzu» balet musiqasidan syuita; B.Gienkoning Xorazm xalk kuylari asosida yaratilgan syuita; M.Levievning «Suxayl va Mexri» balet musiqasi asosida syuita; X.Raximovning 5 qismli «Raqs syuita»si,

2. SIMFONIK POEMA-kompozitorlar ijodida: Ik.Akbarov «Shoir xotirasi», «Epik poema»; S.Boboiev «Segoh» va «Bayram kuni», H.Raximov «Yoshlik» poemalari, A.Muhammedov «O'spirin», M.Ashrafiy «Temur Malik», B.Gienko «Mirzacho'l», S.Yudakov «Poema-ropsodiya», M.Tojiev «Shoir muhabbati»; U.Musaev «Bayram navo», D.Saydaminova «Simfonik poema», Sh.Shaymardonov «Simfonik poema», M.Mahmudov «Simfonik poema»; U.Musaev fortepiano va orkestr uchun «Tantanavor poema», D.Zokirov «Hamza».

3. SIMFONIK UVERTYURA-kompozitorlar ijodiyotida: M.Ashrafiyning «Bayram tantanavor uvertyurasi», K.Kenjaevning «Yoshlar uvertyurasi», S.Yudakovning «Tantana uvertyurasi», «Xorazmcha bayramona yurish» va «Festival uvertyurasi», M. Tojievning «Bayram uvertyurasi», M.Mahmudovning «Simfonik uvertyura», N.Norxo'o'jaevning «Uvertyura», R.Hamraevning «Yoshlik bayrami», F.Yanov-Yanovskiyning «Simfonik orkestr uchun uvertyura»si.

4. SIMFONIYA-KOMPOZITORLAR IJODIYOTIDA: Simfoniya janr va shakl sifatida shakllanish jarayonining zamini klassik va zamonaviy O'vropa va rus kompozitorlarini ta'siri. O'zbek simfonizmining rivojlanish jarayoni va namoyondalari: F.Nazarovning birinchi simfoniyasi (1955), R.Hamroevning 4 qismli birinchi simfoniyasi va bir qismli 2 simfoniyasi (1965, 1968), T.Qurbonovning beshta simfoniyasi; Sh.Shaymardonovning birinchi simfoniyasi, M.Tojievning 19 simfoniyasi, M.Mahmudovning «Navo» simfoniyasi, X.Raximovning simfoniyalari, S.Jalilning «Samarqandnoma» simfoniyasi, M.Bofoev, N.G'iyosov simfoniyalari. N.Zokirov, F.Alimov, S.Xayitboevni, B.Gienko, Q.Komilov, S.Karimov, B.Lutfullaev simfoniyalari rivojlanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklari, hamda dirijyor namoyondalarining faoliyati.

5. ChOLG'U KONTSERT - kompozitorlar ijodiyotida: cholg'u kontsert janrining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni. O'zbekistonda kontsert janrini rivojlantirishda G.Mushel'ning o'rni. Forteplano uchun quyidagi kompozitorlar kontsert yaratishgan: R.Xamroev, F.Nazarov, N.G'iyosov, D.Saydaminova, U.Solixov, D.Omonullaeva, A.Ergashev, D. Yanov-Yanovskiy, P.Xalilov, M.Otajonov, R.Abdullaev, N.Zokirov. Skripka uchun kontsert yozgan kompozitorlar: B.Brovtsin, Sh.Akbarov, R.Xamroev, Sh.Shaymardonova, S.Jalil, G.Vil'danov, F.Yanov-Yanovskiy, al't skripka uchun X.Raximov, N.G'iyosov, A Varelas, A Latifezade.

Violonchel uchun kontsert yozgan kompozitorlar: A.Malaxov, S.Jalil, I.Akbarov, B.Gienko, N.G'iyosov, K. Kenjaev, X.Raximov, A.Ergashev.

Truba (damli cholg'u asbobi), uchun kontsert yozgan kompozitorlar: S.Karim-xoji ikkita kontsert, S.Anvarov, P.Xoliqov.

Fleyta uchun kontsert yozgan kompozitorlar: S.Karim-xoji, V.Milov, X.Raximov, V.Saparov.

Kontsert, ovoz va simfonik orkestr uchun quyidagi kompozitorlar kontsert yaratgan: F.Alimov, X.Raximov.

O'zbekiston kompozitorlari simfonik va kamer simfonik orkestrlari uchun yaratilgan asarlarni ayrimlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash.

Kamer - cholg'u musiqa

1. Kamer-cholg'u musiqa janrlarining respublikamizda tarixiy yo'nalish jarayoni. Yakka cholg'u asboblari uchun 50-80 yillarda kompozitorlar ijodiyotida yaratgan yaxshi asarlaridan namunalar ko'rsatish X.Izomovni fortepiano uchun «Tokkata», «Noktyurn» va «Musiqali quticha», Ik.Akbarovning «Alla», «Noktyurn», X.Azimovning «Fortepiano albom to'plamlari», B.Gienkoning «Prelyudiya»lari, bolalar uchun f-no albomi va ikkita f- no uchun kontsertino «Masqarabozlar», N.Zokirov f-no uchun «Syuita», S.Jalilning f –no uchun 20 ta asaridan bittasi, F.Nazarovning albomidan bitta asar D.Omonullaeva 3ta «Sanata», M.Otajonovning 12ta prelyudiyasidan bittasi, ikkita f-no uchun «Duet», M.Bofoevning «Alpomish» sahifasi o'qib musiqali suratlari va boshqa asarlar skripka va f-no uchun S. Yudakovning «Sharq poemasi», D.Saidaminovanning «sanata», U.Solixovning «sanatina», I.Xamraevning «rondo»si.

Mazkur davrda kompozitorlar turli ovropa va o'zbek musiqa cholg'u asboblari uchun juda ko'p, turli janrlarda asarlar yaratishdi va ular ijrochilarni repertuarlariga va o'quv dasturlariga kiritilgan. Shulardan namuna ko'rsatiladi.

2. Kamer-cholg'u musiqa ansambllari kompozitorlar ijodiyotida rivojlanish jarayonining tarixiy yo'llanishi. Turli guruh ansambllarining paydo bo'lishi. Fortepiano triosi ya'ni skripka, Violonchel' va f-no uchun yaratilgan asarlar. M.Burxonovning triosi, A.Nabievning triosi.

Torli kvartet (ya'ni skripka, al't skripka, 2-skripka violonchel' uchun yaratilgan asarlar, S.Yudakovning syutasi (1962). S.Boboev, M.Leviev, A.Sobitov, M.Yunusov. A.Varelas, A.Otajonov, Sh.Shoimardonovalarining syuitalari. Torli kvartet yaratdilar. B.Gienko, A.Akbarov, F.Nazarov, D.Soatqulov, S.Absamatov, F.Alimov, D.Amanullaeva, S.Anvarov, M.Bofoev, N.G'iyosov, S.Jalil, N.Zokirov, S.Karim-xoji, B.Lutfullaev, A.Mansurov, N.Murinkova, A.Nabiev, D.Saidaminova, E.Salixov, A.Xotimov, Sh.Shoymardonova, D.Yanov-Yanovskiy, F.Yanov-Yanovskiy. Mazkur kompozitorlar kamer-cholg'u musiqani turli janrlarida ko'p asarlar yaratdi. Ularning yutuq va kamchiliklari...

O'zbek xalq cholg'u asboblari uchun musiqa

1. O'zbek xalq cholg'u asboblari takominlashtirish jarayoni. Mazkur jarayonda bunyodga kelgan g'oya, amaliyotda joriy etishdagi tug'ilgan muammolar, natija va xulosa.

O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri tashkil topishi. Konservatoriyada xalq cholg'u musiqa kafedraning tashkil topishi. Orkestr uchun maxsus musiqiy asarlar yaratishdagi yutuq va kamchiliklar, tug'ilgan muammolar. Orkestr uchun yaratilgan asarlardan namunalar; S.Boboevning «Bayram uvertyura»si, D.Zokirovni xalq musiqasini orkestr uchun qayta ishlagan asarlar; «Yovvoyi Ushshoq», «Navo», «Savti Navo», «Yovvoyi chorgoh», «Ufori navo», «Nasrullovi», «Muhammasi iroq», «Mirza davlat», «Yolg'iz», original asarlar;

«Syuita», vokal syuitalar; «Suv keldi- hayot keldi», «Qarshi cho'li gullari», G'.Qodirovning ikkita syuitasi (1952, 1954) va mumtoz xalk ashula «Hanuz» (A.Navoiy so'zi) qayta ishlagan, M.Leviev orkestr uchun qayta ishlangan «Girya qozoq» va «Ulkun jonon» (Muqimiy so'zi) mumtoz xalk ashullalari, F.Nazarovning qoraqolpoq xalk musiqasi asosida «Rapsodiya»; B.Gienkoning qoraqolpoq xalk musiqasi mavzuida syuita va Tog' – badaxshon xalk musiqasi asosida «Fantaziya», «Shodlik bayrami» uvertyura; «Pomir uvertyurasi; xalq musiqasini orkestrga qayta ishlaganlar; M.Mirzaev va S.Gabrielyan hamkorlikda «Rohat», F.Alimovning uvertyuralari; «Shodiyona», «Tabriknoma», «To'yon», «Poema» va uch qismli «Kontserti», M.Bafoevning qashqar rubobi va orkestr uchun «Poema», «Bayram tantanasi» poemasi; orkestr uchun «Kotsert», «Zarafshon to'lqinlari» syuita, tanbur uchun «Kotsert», ud uchun «Poema», orkestr uchun «Buxorcha» nomli kontsert; T.Qurbonovning o'zbekcha, qirg'izcha, tojikcha, qoraqalpoqcha va turkmancha «Xamsa» beshta poema, «Bayram uvertyura»si, «Lirik poema», «Rapsodiya», «Yoshlik» va «Muborakbod» uvertyuralar, ikkita simfoniya orkestr uchun, nay va orkestr uchun «Rondo», g'ijjak va orkestr uchun «Kontsert- poema», I.Hamroevning chang uchun ikkita kontserti va boshqa juda ko'p asarlar kompozitorlar tomonidan yaratilgan. T.Jalilov nomidagi akademik va D.Zokirov nomidagi professional o'zbek xalk cholg'u asboblari orkestrlarining repertuari juda ham boy. Mazkur orkestrlar uchun doimiy ravishda kompozitorlar turli janr va shakllarda asrlar yozib kelmoqdalar.

2. OVRO'PA DAMLI ChOLG'U ORKESTRI UCHUN MUSIQA
OVRO'PA VA ROSSIYA'DA SHAKLLANGAN DAMLI cholg'u asboblardan tuzilgan orkestr (duxovoy orkestr)ning O'rta Osiyoga kirib kelishi. Harbiy orkestrlarning faoliyati. Orkestr repertuariga O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy merosidan ayrim namunalar kiritilishi. Bu sohada. F.V.Leysek, V.I.Mixalik, A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov boshqa dirijyorlarning faoliyati. O'zbek sozandalaridan damli orkestrlarning bunyodga kelishi. Harbiy va turli zavod, fabrika va o'quv yurtlarida damli cholg'u orkestrlarning tashkil topishi va faoliyati. Orkestrlar repertuarlarini boyitishda respublika kompozitorlarining faoliyati. M.Ashrafiyning «O'zbekiston» va «Tantanali» marshi (1941)y, D.Zokirov «Marsh», F.Nazarov «O'zbekcha marsh» va «Bayram marshi», S.Varelasning 1 va 2 «Marshi», uch qisimli syuita, tuba va orkestr uchun «Kontsert p'yesasi» va «G'alaba marshi», S.Xayitboevning rubob va orkestr uchun «Ballada», P.Xalilovning «Farg'ona» o'zbekcha marsh, uvertyuralari. «Polk o'g'li» uvertyura, tuba va orkestr uchun «Kontsert» va «Toshkent» marshi.

KINO MUSIQA

1.O'zbekistonga kino-san'atining kirib kelishi. Ovozsiiz o'zbek kinofil'mlar va ularning musiqiy bezalishi. Ovozli o'zbek badiiy kino fil'mlarning musiqiy bezashni tarixiy yo'nalishi, yutiqlik va kamchiliklar, muammolar. O'zbek badiiy kinofil'mlarni yaratishda respublika kompozitorlarining faoliyati. Quydagi kinofil'mlarga yaratilgan musiqalar tug'risida fikr-mulohazalar: Birinchi ovozli o'zbek fil'm «Qasam» (rej. A.Usoltsev-Garf), musiqiy bezatuvchi A.Knyazevskiy;

“Asal” (rej. B.Kozochkov), musiqasi kompozitor L.Stepanovniki; “Kontsert frontu” (rej. Y.A’zamov), musiqa turli bastakor, kompozitor va xalk ashula-qo’shiq va raqs kuylaridan tuzilgan, “Nasriddin Afandi Buxoroda” (rej. Ya.Protazinov-1943y.), musiqa M.Ashrafiy va B.Aripovlarniki; “Tohir va Zuhro” (N.Ganiev-1945y), musiqa T.Sodiqov va A.Kozlovskiylarniki va ularning “Nasriddinning sarguzashtlari”; «Alisher Navoiy» (rej. K.Yormatov-1947y), musiqa T.Sodiqov va R.Glierlarniki; “Boy ili xizmatchi” (L.Fayziev-1953y), musiqa M.Burxonovniki; «Amirlikni kurashi» (Rej. L.Fayziev va V.Basov-1955y), musiqa D.Zokirov va M.Ziflarniki; «Aviatsenna» (Rej. K.Yormatov-1956), musiqa M. Burhonovniki; «Qutlug’ qon» (Rej. A.Pann-1956y), musiqa D.Zokirov va M. Zivkerniki.

«Stadionda uchrashamiz» (Rej. Z.Sobitov-1955y), musiqa D.Soatqulov va G.Mushellarniki; «Orol baliqchilari» (Rej. Yo’ldosh A’zamov-1938y), musiqa Ik.Akbarov. M.Burxonov; «Qutlug’ qon»(rej. A. Pann-1956 y.), musiqa D.Zokirov va M. Ziv «Stadionda uchrashamiz» (rej. Z. Sobitov-1955 y.), Musiqa. X.Soatqulov va T.Mushellarning «Orol baliqchilari» (rej. Yo’ldosh A’zamov-1956y.), Musiqa I.Akbarov M.Burxonov va M.Levnevlarning;» Maftuningman «(rej. Yo’ldosh A’zamov-1958y.), Musiqa Ik.Akbarov. M.Burxonov. M.Levnevlarniki; «Ikkinchi gullashi» (rej. L.Fayziev-1959y.), musiqa Ik.Akbarovniki «Furqat»(rej. Yo’.A’zamov-1959y.), Musiqa S.Yudakovniki «Qachon atirgul gullaganda» (rej. K.Yormatov-1959y.), musiqa Ik.Akbarovning «Xamza» (rej. Z.Sobitov-1960y.), mus. Ik. Akbarovniki. «Mahallada duv-duv gap» (rej. Sh.Abbosov-1960y.), mus. M. Levnevniki; «Sinchalak» (rej. L.Fayziev-1961y.), mus. Ik.Akbarovniki. «Tark qilingan kelin» (rej. Y. A’zamov-1961y.), mus. M.Burxonovniki. «Sen yetim emassan» (rej. Sh.Abbosov – 1962y.), mus. Ik.Akbarovniki. «Samolyotlar qo’na olmadi» (rej. Z.Sobitov-1962y.), mus. M.Burxonovniki. «Beshtasi Farg’onadan. rej. Y. A’zamov-1963y. Musiqa X.Raximov va A. Berlinlarniki, «Qaydasan Zulfiya» rej. A.Xamraev-1964y. Musiqa D.Zokirov. Sh. Ramazonov, A. Malaxovlarniki, «Osiyo ustida bo’ron», rej. K.Yormatov-1964y. Musiqa Ik.Akbarovniki. «Ulug’bek yulduzlari», rej. A. Pann-1964y. musiqa. D.Zokirov va M.Ziflarniki, «Bloknotdan varaqa», M.Levievniki «Surayyo» U.Nazarov 1965, musiqa M.Burxonovniki. «Uyg’onish» yoki «Faximlai ko’zi ochildi» Sh.Abbosov 1965y., musiqa E.Solixov. «Ikki dil dostoni», K.Yormatov 1966 y., musiqa I.Akbarov (ashulalar M.Burxonov), «Nozik» (rej. E.Ishmuxammedov 1966y., musiqa E.Solixov;

O’zbek kinofilmlariga eng ko’p musiqalar yaratgan kompozitor R.Vil’danovning ijodiy faoliyati bilan bog’lik. U 102 badiiy kino; 46 mul’tfilm; 14 hujjatli filmlarga musiqa yaratgan. Masalan uning qalamiga mansub kinofilmlardan: «Darbozlar», (rej. R.Botirov 1969y), «Oppoq oppoq laylaklar» (rej. A.Xamraev 1965y), «26-otilmasin» (R.Botirov 1966y), «General Raximov» (rej. Z.Sobitov1967y), «Farxodni jasorati» (rej. A.Xachaturov 1967y), «Qizil qum» (rej. A.Xamroev 1968y), «Etinchil o’q» (rej A. Xamroev 1972y), «Abu Rayxon Beruniy» 2 seriya (rej. Sh.Abbosov 1977y).

O’zbek kinofilmlariga F.Yanov – Yanovskiy, D.Saydaminova, V.Milov, S.Jalil va boshqa kompozitorlar ham musiqa yaratishgan va yaratib kelmoqdalar.

2. O'zbek telefilmlar uchun musiqani asosan respublika kompozitorlari yaratmokdalar. Bu sohada ham yutuqlar, kamchiliklar va muammolar mavjud. Misol sifatida yillar davomida namoish qilingan telefilmlardan ayrimlarining nomlari; «Ona qalbi», «Hayot», «Odam odamga» musiqalari Raximovniki «Azizaxon» S.Jalil musiqasi «Hamro buvaning ertagi», «Sharq», «Bahor» E.Solixovni musiqalari.

«Vatan uchun» I.Akbarovning musiqasi; ayniqsa M.Bafoev bastalagan, quyidagi telefilmlar, musiqasi asosida «Buxoroi sharif» (X.Davron librettasi-1997 y), teleopera-doston, «Nodira» (Yu.Ismatova librettosi-1992 y) bir pardali tele-balet; «Hajnoma» (A.Oripov so'zi) teleoratoriya; F.Alimovning «Mehrobdan chayon» va «Muhabbat nidosi» telebadiiy filmlar, N.G'iyosovning «Bahodir Jalolov», «Abdulla Kahhor», «Alisher Navoiy», «Loqayd kasalligi» va «Charxpalak» telefilmlari musiqalari.

3. MUL'TIPLIKATSION kinofilmlarga ham kompozitorlar juda ko'p musiqalar yaratmoqdalar. R.Vil'danov 46 ta mul'tfilmlarga musiqa bastaladi. Ularning orasidan: «Sehirli sandiq», «Ajoyib hodisa», «Kichkina yolg'onchi», «Oq tuya», «Ho'ja Nasriddin», «Kva-kvalarning kvarteti»; D.Saidaminovning «Sehirli gilam», F.Yanov-Yanovskiyning «Kichik bo'lsada lekin dovyurak», «Sehirli nay», «Uchadigan yumronqoziq», «Loydan bayt», «Sichqonlarning podshosi», «Tomchi», «Yoqimli yomg'ir», D.Yanov-Yanovskiyning «Kel olishtiramiz», «Ichkilar orasida begona» va boshqalar.

4. HUJJATLI KINOFILMLAR uchun quyidagi kompozitorlar musiqa yaratishgan; R.Vil'danov 14 ta hujjatli kinoga musiqa yaratdi. Shular orasida: «Shoxi – Zinda», «Bibi Xonim», «Registon», «Beqiyos sahro», «Er, orzu, muhabbat», «Chingiz Aytmatov»; Ik.Akbarov 10 ta hujjatli kinolarga musiqa yaratdi. Shularning orasida «Gazchilar» kino poema mashhurdir.

O'ZBEK ESTRADA MUSIQASI.

O'zbekistonda 20-40 yillarda milliy estrada san'atining bunyodga kelishida M.Koriyoqubov, Usta Olim Komilov, Tamara Xonim, T.Jalilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Abduqodir Ismoilov, Po'latjon Rahimov, Jo'raxon Sultonov, Siddiq –Hoji Islomov, Gavhar Rahimova, Ahmadjon Umurzoqov, Mukarrama Turg'unboeva, Berta Davidova, Hoji Umar, Lutfixonim Sarimsoqovalarning o'rinlari. 1940 yilda O'zbek filormoniyasi qoshida «Tamaraxonum estrada ansambli»ning tashkil topishi va uning ahamiyati, faoliyati.

50 – 80 yillarda zamonaviy o'zbek estrada san'atining rivojlanish jarayoni. O'zbek filormoniya tarkibidan estrada guruhlarini chiqarish. «O'zbek estrada» kontsert tashkilotining bunyodga kelishi va faoliyati. 1958y. «O'zbekiston estrada jaz – orkestr»ining tashkil topishi va faoliyati. Estrada xonandalari: Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Elmira O'razboeva, Staxan Raximov –Ioshpe, Bahrom Mavlonov, Yunus Turaev, Sason Kandov, Ra'no Sharipova, Muhabbat Shamaeva, Toshtemir Sharipov, Sason Benyaminovlarning estrada qo'shiqlarini targ'ibot qilishdagi faoliyatlari. Farrux Zokirov rahbarligidagi «Yalla» guruhining faoliyati. O'zbekiston teleradio kompaniya qoshida simfo – jaz orkestrinngi tashkil topishi va faoliyati.

ESTRADA QO'SHIQ SAN'ATINING RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA P.Raximov, M.Niyozov, M.Mirzaev, N.Xasanov, F.Sodiqov kabi bastakorlar va Sh.Ramazanov, X.Izamov, Ik.Akbarov, Muxamedov, G'.Qodirov, X.Raximov, M.Burxonov, M.Leviev, S.Yudakov, E.Salikov, S.Jalil, X.Soatqulov, Sh.Shaimardanova, D.Zakirov, D.Saidaminova, N.Norxo'jaev, A.Mansurov, D.Amanullaeva, A.Ikromov, G.Xolikov, A.Rasulov va boshqa kompozitorlarning faoliyatlari va o'rinlari. Mazkur ijodkorlarning estrada qo'shiqlaridan namunalar eshutiladi va Xulosa.

BOLALAR VA O'SMIRLAR UCHUN MUSIQA.

1. Bolalar va o'smirlar uchun ovoqli (vokal) musiqa.

Bolalar uchun xalk qo'shiqlari tug'risida qisqacha tarixiy ma'lumot. Bastakor va kompozitorlar ijodiyotlarida bolalar va o'smirlar uchun yakka xonandalik qo'shiq janrining rivojlanish jarayoni. Mashhur qo'shiqlardan namunalar ko'rsatiladi. O'zbek kompozitorlari ijodida xor qo'shiqchilik san'atining rivojlanishi. O'zbekiston teleradio kompaniyasining qoshidagi «Bulbulcha» xor jamoasining tashkil topishi, faoliyati mohiyati. Mazkur bolalar xor jamoasi uchun kompozitorlar tomonidan yaratilgan xor, a'kapella, jo'rli xor qo'shiqlardan namunalar.

2. Bolalar va o'smirlar uchun yirik, ko'p qismli vokal cholg'u musiqa asarlar kompozitorlar ijodiyotida rivojlanishi. Misol sifatida quyidagi namunalar ko'rsatiladi: G'.Qodirovning «Maktubjon, Oftobjon» (T.Ilxomov) – 4 qismli vokal simfonik syuita va «Mirzacho'l» 4 – qismli kantata (T.Ilxomov so'zi); F.Nazarovning «Vatan bizning onamiz» (U.Rashid so'zi) – 5 qismli vokal-simfonik syuita;

3. Bolalar va o'smirlar uchun turli cholg'u asboblari, ansambllar va orkestrlar uchun yaratilgan musiqiy asarlardan namunalar ko'rsatiladi. B.Nadejdinni «bolalar» uchun simfoniya syuita, F.Nazarovni «Fortepiano kontserti» bolalar uchun.

O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI

1. O'zbek xalk musiqa merosini o'rganish zamonoviy notaga olishini tarixiy jarayonida A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, Yu.Rajabiy, M.Yunusov, A.Xalilov, I.Akbarov, F.Karamatov, M.Axmedovlarni nashr etilgan to'plamlari V.A.Uspenskiyning Buxoro Shashmaqomi N.N.Mironov rahbarligida M.Ashrafiy, T.Sodiqov, va Sh.Ramazonovlarni Buxoro, Farg'ona va Xiva qo'shiqlarni to'plami, Ye.E.Romanovskayaning ikki o'zbek Xalk qo'shiqlari, Xorazm klassik musiqasi, o'zbek laparlari, o'zbek cholg'u musiqasi. Nashrga I.Akbarov to'plagan: O'zbek vokal musiqasi Muqimiy va Furqat ashulalari. (1958 y) to'plamlarni notaga oluvchilar; V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, Chetvertakov, Muhammad Aliev, I.Akbarovlar. Yu.Rajabiyning besh tomli «O'zbek xalk musiqasi» (1955 – 1985), olti jildli «Shashmaqom»(1966 – 1975), M.Yunusovning «Xorazm ashulalari» (1959), «Xorazm maqomlari» (1962), ikkinchi nashr «Xorazm maqomlari» (1981 – 1985), A.Xalilovning «Qoraqalpok xalq na'malari» (1959), F.Karomatovning «O'zbek xalk musiqa merosi» (1978), ikkinchi kitob «O'zbek xalk musiqa merosi»

(1985), «O'zbek doyra musiqasi» (1962), Toshkent konservatoriyasining sharqshunoslik kafedrası laboratoriyasida xalq musiqasi qulyozmalari.

2. O'zbek folklorshunoslik fanini rivojlantirishda A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, A.Fitrat, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, Il.Akbarov, F.Karamatov, R.Yunusov, O.Ibrohimovlarning faoliyatlarini, ularning yaratgan ilmiy ishlarini, maqolalar, broshyuralar va kitoblar tug'risida, ma'lumotlar va misollarni o'qish tavsiya qilinadi.

3. Manbashunoslik fanini nazariy va tarixiy sohalarini rivojlanish jarayoni. Mazkur sohalarida musiqashunoslar tomonidan yozilgan va nashr qilingan kitoblar va to'plamlar, broshyuralar, ilmiy maqolalar va o'quv tadqiqot manbalarni yaratishda: A.Fitrat, T.Vyızgo, V.Uspenskiy, O.Matyokubov, S.Begmatov va boshqa musiqashunoslarning faoliyatlari. Ular yozgan maqola, kitoblar mavzular orqali talabalarga tavsiya etiladi.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MUSIQIY JARAYON.

(20 asrning 90 chi yillari).

1. Siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot jarayoni.
2. Zamonaviy professional musiqa janrlarning rivojlanish jarayoni.
3. Respublikamizda qo'shiq bayrami va qo'shiq ko'rik-tanlovlarining o'tkazish mohiyati va g'oliblari.
4. «Sharq taronalari» Halkaro musiqa festivali mohiyati.
5. «Simfonik-musiqa» Halqaro musiqa festivalining mohiyati.

Reja:

I bob. O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Mahalliy uslublari va ularning mohiyati.
2. O'zbek xalq musiqasi mahalliy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari.

II bob. O'zbek xalq qo'shiqchiligining mahalliy uslublari.

1. Farg'ona – Toshkent mahalliy musiqiy uslubi.
 2. Xorazm mahalliy musiqiy uslubi.
 3. Buxoro – Samarqand mahalliy musiqiy uslubi.
 4. Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubi.
- Xulosa va takliflar.

Kirish

Xalqimizning istiqloлга erishish munosabati bilan azaliy qadryatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf – odat va an'alarimizni, ma'naviy va shu jumladan, badiiy merosimizni atroflicha o'rganish hamda undan baxramad bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'alar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Qadim – qadim zamonlardan ona – zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf – odat, marosim va an'analari bilan jahon tsivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari duny ilmi – fani va madaniyatining barcha sohalarida rivojiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelganlar.

“Vatanimiz”, degan edi I.A.Karimov, - bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas xissa qushib keldi. Asrlar moboynda xalqimizning yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, marifatparvarlik kabi ezga – fazilatlar sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida falsafiy, ahloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Shuni alohida ta'kidlash joyizki, o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davrida moddiy va ma'naviy ma'daniyati bar tekis ravishda rivojlanmadi. Unda uyg'onish va yuksalish bilan birga deysinish, turg'unlik holatlari ham bo'lib turdi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari o'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida ko'plab istilochilar tomonidan zabt etilgan. Ular yerli aholini boy milliy madaniyatidan begonalashtirish siyosatini olib borganlar.

Shunga qaramay xalqimiz o'z milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori va ma'naviy dunyosini asrab qolgan va uni boyitib borgan.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganch, ma'naviy-madaniy hayotimizda tub o'zgarishlar yaratish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. “Ma'naviyat taqdirining ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi. Uning qarashlari shunchaliku boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi. Fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchiliklar kunlarida irodani mustahkamlaydi”,- degan edi yurtboshimiz I.A.Karimov.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz Prezidenti rahbarligida madaniyat va san'at rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki millatning o'tmish va kelajak oldidagi mas'uliyati uning ma'naviyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Asosiy maqsad – o'tmish madaniy, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish, uni keng ommalashtirish, shu qadriyatlar vositasida komil insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, pirovardida ularni kelajak avlodlarga bus-butun yetkazishdan iboratdir.

Milliy madaniyat, ma'naviyatimizning chuqur o'rganishda qo'shiqchilik san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Milliy qo'shiqchilik san'atimiz tarixi, uning an'anaviy qirralarini o'rganish, ijro usullarining rang-barangligini ta'lil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining musiqa san'ati to'g'risidagi qaror va farmonlarida milliy an'anaviy musiqa san'atini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Farmonlarda ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad – musiqa san'ati yutuqlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, ushbu soha ijodiy xodimlarining mehnatini yanada rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalashni nazarda tutishdan iborat edi. Shu farmondan kelib chiqib, respublika qo'shiqchilik, musiqa madaniyatini yanada yuksaltirishning tegishli chora-tadbirlari belgilanib, shu asosda ko'pgina ijodiy ishlarni amalga oshirilmoqda.

Bu yo'ldagi harakatlar, ayniqsa, "O'zbekiston – vatanim manim", "Sharq taronalari" (Xalqaro ko'rik tanlovi), "Nihol" nomlari bilan o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda o'z aksini topdi. Bunday ko'rik tanlovlar mamlakatimizda yangi san'at dastalarini elimizga manzur bo'lgan yangi xushovoz hona ndalarni, milliy qo'shiqchilik an'alarimizning turli qirralarini o'z ijodlariga asos qilib olgan san'at ijodkorlarini yetishtirib chiqarmoqda.

Yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning respublika televideniyesi, radiosi ijodkorlari tomonidan muttasil o'tkazilib borilayotganligi respublika hukumatining qo'shiqchilik, musiqa sohasida olib borayotgan sobitqadam ishlaridan hisoblanadi.

O'zbek musiqa san'atining tarixiy ildizlari uzoq moziydan boshlanadi. Uni chuqur o'rganish esa mashaqqatli mehnat, izchil izlanishlarni talab qiladi. Bu sohada respublikamizning talaygina ilmiy tadqiqot maskanlarida, o'quv yurtlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumta'lim maktablarida musiqa darslarida o'quvchilar halqimizning ko'p asrlik musiqiy an'alarini milliy qadriyatlarimiz qatorida o'rganishlari va ayni chog'da bu an'alarni milliy qadriyatlarimiz qatorida e'zozlashlari zarur. Chunki mazkur bitiruv malakaviy ishda biz o'zbek xalqining uzoq o'tmishidan buyon ijod etib, turli vaziyat va davrlarda kuylab kelinayotgan qo'shiq va yallalarni, mehnat aytim va laparlarni, dostonlari va katta ashulalarini, cholg'u sozlarini yaqindan o'rganamiz, ulardan ma'naviy bahra olamiz. Shu bilan birga, bu bitiruv malakaviy ish bizga diorimizning turli voqealarida yuzaga kelgan mahalliy musiqiy an'alar bilan atroflicha tanishish imkonini beradi. Masalan, aytaylik, biz namangan viloyatida yashayotgan bo'lsak, bu bitiruv malakaviy ish ko'magida shu joyga taalluqli xalq musiqa ijodini o'rganish bilan birga yana Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm kabi vohalarda yashab kelayotgan aholining musiqa ijodida namunalar ko'rib, qo'shiqlari bilan tanishamiz. Shu tariqa xalqimizning xilma – xil va rang – barang qo'shiq – kuylaridan bahramand bo'lamiz.

"O'zbek musiqasi" iborasi keng mazmunli tushuncha bo'lib, u, jumladan, o'z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamining – xalq musiqasi va ustoz – san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqa sohalarini hamda bastakorlik va kompazitorlik kabi zamonaviy musiqa ijodiyoti tarmoqlarining qamrab oladi. Shuningdek, "O'zbek musiqasi" mazmunida yana asosiy bo'lgan to'rtta mahalliy musiqiy uslublar ham tushunilib, ulr esa quyidagicha nomlanadi:

1. Surxondaryo- Qashqadaryo musiqa uslubi.
2. Buxoro – Samarqand musiqa uslubi.
3. Xorazm musiqa uslubi.
4. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi.

Har bir mahalliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'alariga ega. Bu an'analar esa uzoq vaqtlar moboynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharaotlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, turfa marosimlari, urf-odat bayramlari va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog'lanib ketadi. Ushbu jihatlarni batafsil o'rganish maqsadida yuqorida ko'rsatib o'tilgan to'rtta asosiy mahalliy musiqiy uslublarni alohida – alohida qilib tanishibchiqamiz. Demak, shunga ko'ra birinchi bobda o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari va

ularning musiqa madaniyatida tutgan o'rni ahamiyati, mohiyati va xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Ikkinchi bobda esa har bir joyning mahalliy uslublariga mukammal tavsiflar beramiz. So'ngra bildirilgan fikr-mulohazalarimizni yakunlar, shu asosda xulosa hamda takliflarimizni taqdim qilamiz.

O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublarini o'rganishdan asosiy maqsad o'quvchilarni an'analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalaidan baxramand etish hamda shu asosda ularda o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantirishdan iborat. Ayni vaqtda, ko'p asrlar davomida yashab kelgan avlod – ajdodlarimiz ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi intixosi bo'lgan milliy kuy, qo'shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o'rin olarkan, ularni o'z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr muruvvatli bo'lishga, azaliy qadriyatlarimiz va o'ziga xos beiakror an'analalarimizni ezozlashga, ona – yurt merosining bugungi kundagi xaqiqiy vorslari bo'lishga, demakk, milliy istiqloliyat zaruratini teran xis etishga da'vat etadi.

I bob. O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Mahalliy uslublar va ularning mohiyati

O'zbek xalqi o'ziga xos va rango – rang musiqa merosiga ega. Uning qimmatli namunalarini to'plab saqlash, notaga olib hujjatlashtirish, uzun taraqqiyot yo'lini hamda murakkab ilmiy – nazariy asoslarini o'rganish, shuningdek, uni amaliy – ijodiy o'zlashtirish borasida respublikamizda shunga qadar samarali natijalarga erishildi.

Buyuk istiqlolning sinovli davonlaridan o'tishda, mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar o'tkazilayotgan bir pallada jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat kabi insonparvar hamda taraqqiyotparvar omillarga alohida diqqat e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda amaliy bebaho qadriyatlarimizni, xalqchil udum va an'analalarimizni tobora to'laroq tiklash, tarixiy – madaniy yodgorliklarimizni shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy hamda amaliy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'ngi yillarda barcha zaruriy shart – sharoitlar yuzaga keltirilganini e'tirof etish lozim.

Ko'zlangan ezig maqsadlarga erishish uchun respublikasizning madaniyat va san'at o'quv yurtlarida, shuningdek, xalq ta'limi tizimiga kiruvchi gumanitar yo'nalishdagi oliy va o'rta o'quv yurtlarida o'zbek musiqa ijodiyotining barcha qatlamlarini – rosmana xalq musiqasi, maqomchilik, dostonchilik, o'tmish va zamonaviy bastakorlik, kompazitorlik, badiiy xavaskorlik, estrada san'atini qamrab oluvchi qator maxsus o'quv fanlar joriy etildi. O'z navbatida, ularni mukammal dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash – hozirgi kunda mutaxassislarimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari, musiqiy merosimizning an'anaviy – kasbiy qatlamiga mansub janrlardan ashula, katta ashula, suvora kuy, doston, maqom va uning turlarini, vohaning o'ziga xos

cholg'u sozlarini o'rganilishi bilan bog'liq bir qator mavzular ko'zlangan reja bo'yicha baholi qudrat yoritilgan.

Musiqqa tarbiyachiligi va pedagogikasi yo'nalishlarida o'z kasbini tanlab olgan, uning turli ixtisosliklarini qunt bilan o'zlashtirayotgan bo'lajak musiqa muallimlari hamda murabbiylariga moslashtirib yozilgan ushbu bitiruv ishi mavzularida o'zbek milliy musiqa merosiga oid tanlangan masalalar yuzasidan zarur tarixiy, ilmiy – nazariy va uslubiy ma'lumot hamda tushunchalar beriladi.

Adabiyotshunoslik, san'atshunoslik sohalarida xususan, mavjud musiqiy adabiyotlarda uslub so'zi har xil ma'nolarda qo'llanib turilishi ma'lum. Bulardan bir hollarda uning keng, umumlashma, boshqalarda esa xiyla tor, yoki ko'chma ma'no va mazmunlari qayd qilinadi. Ta'kidlash lozimki, uslub atamasi ham mazmunan, ham mohiyatan turlicha idrok etilsada, ayni paytda u o'zaro yaqin, mushtarak tushunchalarni anglatishi mumkin. Demak, bu masalaga avvalo oydinlik kiritish zarur.

Uslub so'zi yordamida avvalo bir muncha keng, aniqrog'i – yig'ma ma'noda jahon xalqlari musiqa san'atiga xos umumiy yoki muayyan mintaqaviy xususiyatlar tabiati ifodalanadi. Bunga, jumladan, sharqona musiqiy uslub, "Evropacha musiqa uslubi" kabi iboralar yaqqol misol bo'la oladi. Boshqa barcha badiiy ijodiyot ko'rinishlari misoli, musiqada ham milliy o'ziga xoslikka aynan uslub atamasi yordamida qisqa va lo'nda tavsif beriladi.

Musiqiy asarlarning ichki tuzilish qonuniyatlari bu masalada yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, asosiy vositalarning o'zaro munosabatlarini mezonlardan u yoki bu uslub aniqlanadi. Xususan, "bir ovozli" yoki "manodan", "ko'p ovozli", jumladan "garmonik", "polifonik", "gomfonik" nomli uslublar shular toifasiga kiradi. Yirik ijodiy yo'nalish va oqimlar. Masalan, "klassitsizm", "romantizm", "imperesionizm", "realizm" va boshqalar ham uslub tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Uslub so'zi yana bastakor, kompozitor, drijyor, xonanda va sozandalar faoliyatini ijodiy jihatdan chuqurroq yoritish maqsadida ishlatiladi. Ayniqsa, u birorta mashhur san'atkorning ijodiy qiyofasini, uning farqli, betakror chizgi – qirralarini tahlil yoki qiyos ila ko'rsatishda baholi qudrat hizmat qiladi. Shuningdek, "cholg'u uslubi", "maqom uslubi", "yovvoyi" yoki "patnisaki uslub", "badiqa uslubi", "zamonaviy uslub" singari rang – barang ma'nolarni bildiruvchi hollarni kundalik o'quv – nazariy va amaliy iste'molda tez – tez uchrab turishi mumkin.

Musiqiy folklorshunoslik sohasida uslubga dahldor yana bir tushuncha bor bo'lib, u biror xalq, millat va elatga mansub ijodiyot ko'lamida joylardagi tub aholining o'zgacha betakror ijodiy xususiyat, udum va an'analarga diqqatimizni jalb qiladi. Tabiiyki, "mahalliy uslublar" masalasini o'zbek xalq musiqa ijodiyoti misolida, ya'ni uning tarixiy – nazariy - amaliy asoslariga tayangan holda ko'rib chiqish o'quv fani oldiga qo'yilgan maqsadlarga muvofiqdir.

O'zbek halq musiqasining ko'hna, nihoyatda boy va serjilo an'analari avvalo uning turfa yarim – mahalliy uslublarida yorqiin va teran o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, ayrim hollarda musiqiy – mahalliy uslubning tilshunoslikdagi "sheva", "lahja", tushunchalari bilan qiyos qilinishi ham bejiz emas. Biroq,

adabiyotshunoslikdan farqli o'laroq, jami mavjud "musiqiy sheva" larning mushtarak sifatlari o'z navbatda "umummilliy musiqiy uslub" singari yig'ma tushunchani yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqada uslub tom ma'noda turli – tuman, bir hisobda ayricha tushunchalar doirasini vujudga keltirsada, bunda deyarli barcha tarkibiy vositalarining uzviy bog'liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o'zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanish, uni o'rganish hamda amaliy o'zlashtirish borasida uslubning o'rni va ahamiyati benihoya katta.

Ko'lami keng, serqatlam musiqa merosimizni tashkil etuvchi xilma – xil ko'xna namunalarini nota yozuviga tushirib, to'plab, ushbu yo'nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bilan shug'ullangan bir qator mutaxassislar ish faoliyatida kuzatilgan uslubiy tafovutlarga o'z vaqtida alohida etibor berilshan ular bu haqida ilk bor qiziqarli ma'lumotlarni to'plab, teran ilmiy mushohadalar yuritgnalar. Xususan, e'tirof etilganki, O'zbekiston xududining barcha vohalarida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklarorasi, shunigdek, ayrim boshqa xorijiy mamlakatlarda azaldan tub o'zbek aholisi zich holda yashab kelayotgan yerlarda "musiqiy sheva" larning ko'rinishlari o'zgacha ekan. Kuzatilayotgan bunday ancha murakkab etnik, jug'rofiy, siyosiy – ijtimoiy, tarixiy – madaniy voqeylik to'laligicha qamrabolish, unga mukammal ta'rifu – tavsiflar berish qiyin masala, albatta bularning orasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir muncha kengligi, tarixan qadimiyligi, xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub tavsif ila alohida – alohida ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan. Ularning har bir muayyan xudud nomi bilan, ya'ni Toshkent – Farg'ona, Buxora – Samarqand, Xorazm va Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy uslublari, - deb yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlangaidek, o'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublarning kelib chiqishi juda ko'p narsalarga bog'liq bo'lgan. Shu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixi uzun jarayonida serurug' va ko'p qabilali turkiy tili qadimiy qavlarning o'zaro birikib ketganligi, xalq hayotining uzoq – yaqin o'tmishda ro'y bergan tarizshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy – siyosiy voqeyliklar(masaln, hozirgi O'zbekiston vohalarining davlatchilik nuqtaiy nazaridan qadimgi zamon va o'rta asrlarda bir qator katta - kichik podsholiklar, saltanatlar, xonlik va amirliklarga kirgan yoki ichidan bo'linib ketgan), yerli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o'zaro o'zgarib turgan muvozanatlari, dehqonchilik, chorvachilik, kasb – hunarmandchilikning o'rni, iqtisodiy hamda ichki – tashqi savdo – sotiq ishlarining rivojlanishi darajasi, boshqa millat va elatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalari, yaqin qo'ni – qo'shinichilikning o'zaro ta'siri ahamiyatlidir.

O'ziga xos mahalliy xususiyatlar marosim – maishiy musiqasida ham, nomarosim kuy – qo'shiqchilikda ham, bastakorlik va dostonchilik ijodkorligida ham, ashula va cholg'u ijodkorligida ham bevosita namoyon bo'ladi. An'anaviy uslublari zaminida bitilgan hozirgi zamon asarlarida ham bu xislatlar ozmi – ko'pmi, hamon namoyon bo'lishi mumkin.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, asirlar osha bizgacha yeib kelgan musiqa merosimizning bunday sifat ko'rsatkichi va fazilatlari o'zbek xalqining bitmas – tugammas, bepayon ijodiy salohiyati, yuksak badiiy didi va teran tafakkurlaridan yaqqol dalolat berishi tabiiydir. Zero, moziydan shu kunga qadar mahalliy san'at ahli an'anaviy ijodiyotning shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy barkamol namunalarini avaylab – asrab, yangidan – yangi ijodkorlik say't – harakatlari ila milliy – ma'naviy boyliklarini doimo ko'paytira borganlar. San'atkorlar xalqning orzu – umidlarini, sevincha va hayratlarini, quvonch va qayg'ularini, jamiki insoniy qalb ehtiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab berib, kishilarga hamisha ruhiy – ma'naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olishga tinglovchini oshno qilish istagida bo'lib, o'lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar.

Kasbiy musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar ustoz – shogirdlik an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelishgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan. Ularning o'rta va yavin sharqqa, qolaversa butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy ilm – fan asoslaridan tajribali muallimlar yordamida, ko'plab maxsus nazariy risolalar orqali boxabar bo'lishgani ma'lumdir.

2. O'zbek xalq musiqasi mahalliy uslublarining o'ziga xos xususiyatlari.

Toshkent – Farg'ona mahalliy – musiqiy uslubi ma'lumki, ushbu katta xududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Vohaning an'anaviy musiqa ijodiyoti umummilli ila o'ziga xos mahalliy, boshqa uzoq – yaqin qo'shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham ta'siflanadi.

Tuzulishi jihatdan oddiy, ixcham hajmli mavzu va mazmun doirasi bo'yicha xilma – xil kuy, qsho'iq hamda ashulalar bu xudduda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o'lkada bir qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzdagi cholg'u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo'shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo'lgan yana ko'plab terma, bolalar qo'shiqlari, lapar, yalla, ashula, cholg'u kuy, bir qismli va turkumli maqom yo'llari, ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq joylarda esa dostonlar, va yana katta yoki patnis (yovvoyi) ashulalar asosiy o'rin egallaydi.

Farg'ona voxasi – Toshkentning bastakorlar ijodkorligiga molik misollari esa hajman kttagi, tuzulishi nisbatan murakkabligi, ba'zida usluban mutloq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o'rinda ayniqsa katta ashula “milliy - mahalliy” jarayonga yorqin namuna bo'la oladi.

O'zbek milliy cholg'ularidan esa dutor, tanbur, sato, g'ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora, doira, (childirma), chirmanda kabilar juda ko'p qo'llanib kelingan.

Farg'ona – Toshkent maqomi namunalari o'zlarining xalqchil, shinavandabon xalq ashulalariga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator xislatlar bilan ta'riflanadi. O'zbek tinglovchilari orasida mashhur bo'lib ketgan surnay maqom yo'llari, “yovvoyi” yoki “patnisaki” ashulalari, mumtoz cholg'u kuy

hamda ularning noyob ijrochilik san'ati ham aynan shu xududning salohiyatli musiqa madaniyatiga xosdir.

Buxoro – Samarqand mahalliy – musiqiy uslubi o'rta osiyoning eng qadimiy markazlaridan bo'lgan Samarqand va Buxoroning musiqiy – uslubiy xususiyatlari bir oz o'zgachadir. Jumladan, Zarafshon vodiysi xududida istiqomat qiluvchi aholi musiqa merosida folklor hamda kasbiy ijodiyot qatlamlarining shakl, janr va ichki uslublari bir – birilaridan keskinroq ajralib turishi kuzatildi.

Asl ma'nodagi musiqa san'ati namoyandalari – bastakorlar, hofiz va sozandalar. Musiqa olimlari, ular qatoridan o'z vaqtida saroyda xizmat qilganlari, butun o'lkamizda juda katta obro' va mavqega ega bo'lganlar. Ular mumtoz ashula, kuy, maqom va boshqa rivojlangan shakllardagi musiqa namunalarining ijodkorlaridir. Xassos ijrochi va bilimdon nazariyotchilaridan bir qanchasi esa nafaqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo, islom sharqi bo'lib shuhrat qozonganlar.

San'atchi ayollardan tashkil topgan “soz” nomli ijodiy guruhlar faoliyati shu voqea madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Guruh ishtirokchilari mahalliy – an'anaviy musiqa hamda jozibali raqslarning mohir ijrochilari sifatida omma orasida keng tanilgan. “sozanda”chilarning ijro bisoti asosan kichik shakllarda, turfa mazmundagi o'zbek hamda tojik milliy kuy, qo'shiq va raqslardan iborat. Hozirda ham joylarda bunday an'analar yaxshi saqlangan.

Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi qadimiy shahar hamda qishloqlarda qo'llanilgan milliy cholg'u turlarining son jihatdan ko'pligi va rang – barangligi bilan ta'riflanadi. Bu yerlarda sof cholg'u musiqasining boyligi, marosim va nomarosim mahalliy kuy – qo'shiqlarining o'ziga xosligi yaqqol kuzatiladi. Ya'ni o'zbek milliy san'ati serqirra ko'rinishlari ega bo'lishi qatorida o'zining tub tamoyillari orqali yaxlitlik va mushtaraklikni nomoyon qiladi.

Shuningdek, mazkur viloyatlarga xos o'zbek musiqa folklorining ayrim jihatlarini tojik xalq musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikni ham xosil qilgan. Tarixiy taqdirleri, urf – odatlari, madaniyati va san'ati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lmish ikkala qardosh xalqning ijodiyotidagi mushtarak an'analari mahalliy aholi ma'anviy hayotida muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Buxoro aholisi o'rtasida “mavrigi” nomli nodir janr namunalari uchrashi, tojik tilida aytiladigan eski va zamonaviy qo'shiqlarning tarqalganligini aytish mumkin. Shuningdek, o'zbek hamda fors – tojik xalq va mumtoz she'riy namunalar bilan uzviy bog'liq shashmaqom turkimidagi ustazona ashula yo'llar bunga ega yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm mahalliy – musiqiy uslubi. Xorazm musiqa uslubi, avvalo, o'zining o'ta yorqin tusi va alohida jo'shqinligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Tarixdan ayonki, Xorazm diyori ham qadimiy va o'rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy – musiqiy o'choqlaridan biri bo'lgan. Ko'hna Xorazmning o'ziga xos mahalliy udum va an'analari barcha turmush jabhalaridan o'z aksini topganligini ham e'tirof etish kerak.

Bunday o'zgacha ximlatlar asosan yerli xalq musiqasining janr tarkibida, suvora, maqom yo'llari, dostonchilik, xalfachilik raqs kuylarida kuzatiladi.

Shuningdek, bu musiqaning kuy – ohanglari hamda usullari tabiatida, mavjud musiqiy cholg'ulari va ulardagi ijrochilikda sezilarli darajada o'z aksini topadi.

Xususan, O'zbekistonning boshqa xududlarida doston janri ko'proq she'riy badiqali uslubga moyildir. Xorazmda esa dostonlar musiqiy jihatdan ifodalibroq tabiati, shaklan rivojlangan xalqchil kuy va nomalar bilan farq qiladi. Uzoq o'tmishda qo'biz, keyinchalik do'mbira jo'rligida dostonlar aytilgani ma'lum. So'nggi zamonlarda dutor, ba'zida ozarbayjon tori, yoki tarkibida asosan g'ijjak, dutor, bulamon va doiradan iborat ixcham an'anaviy ansambil ishtirokida doston aytish bu yerlarda odat tusiga kirgan.

Xorazmda qo'llanilgan milliy musiqa cholg'ulari ham ayrim o'zgacha xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, bulamon, respublikamizning faqat ushbu viloyatda hamda yaqin qo'shni xududlarda tarqalgan. Mahalliy surnayning ham o'zgachroq tuzulshi va yangrashii ma'lum. Taxminan XIX asrning ikkincha yarmidan e'tiboran to bugungi kungacha Xorazmda garmon sozi keng qo'llanib kelinmoqda. Ammo ayni chog'da bu viloyatda qadimgi bombra mutlaqo amaliyotdan chiqib ketgan. "Xalifa" nomli ayollar ijodiy guruhlarining noyob ijro bisoti ham xuddi shu o'lka mahalliy uslubining o'ziga xos alomatlaridan biridir.

Kavkaz xalqlarining "tor" nomli eng mashhur cholg'usi XX asrning boshlarida o'z imkoniyatlari bo'yicha o'zbek sozandalariga juda ma'qul keldi. Bu jarangdor cholg'u zamonaviy qo'shiq va ashula ijrochiligi jo'rligida dastavval Xorazmda qo'llanila boshlagan.

Yan bir qator milliy musiqa asboblarining tuzulishida, ularning an'anaviy ijrochilik yo'llarida ham o'zgacha holatga duch kelish mumkin. Masalan, xorazmcha dutor kosaxonasini xajmi nisbatan kichgina, dastasi biroz ingichkaroq va kaltaroqligi bilan Farg'ona vodiysi va Toshkentda rasm bo'lgan an'anaviy dutordan farq qiladi. Mahalliy – an'anaviy dutor ijrochiligining kasbiy, jumladan sof cholg'u yoki maqomga mos chalish uslublari ham muayyan mushtarakligi qatorida o'zaro birmuncha farqlanadi.

Shu bilan birga ta'kidlash jazmki, Xorazm vohasining musiqiy uslubida qoraqalpoq, turkman, ayrim kavkaz xalqlari, jumladan, ozarboyjon xalq musiqasi bilan muayyan darajada yaqilik bor.

Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy – musiqiy uslubi. O'zbekistonning eng janubida joylashgan ikki viloyat Surxondaryo va Qashqadaryoda istiqomat qiluvchi tub aholining katta qismi, respublikamizning boshqa qadimiy o'lkalaridanfarqli o'laroq, yaqin o'tmishda ham asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Turmush sharoitlari ham shunga moslashgan edi. Aholining faqat ma'lum qismigina dehqonchilik, bog'bonchilik va har xil hunarmandchilik ishi bilan band bo'lishgan. Shu boisdan asl mahalliy musiqa folkloridan ko'proq terma (cho'blama) hamda ommoviy, jamoa qo'shiqlari katta o'rin tutgan. Bular qatorida do'mbira kuylari, chorvadorlar hayoti va mehnati bilan bog'liq bo'lgan maishiy mavzulardagi aytim va kuylar yetakchilik qilgan. Qashqadaryo va Surhondaryo xududlarida joylashgan shahar va qishloqlarning. Musiqa madaniyatida kasbiy dostonchilik juda qadimgi davrlardan beri markaziy o'rin tutib ketgan. Ularning ijodkoru – bayonchilari hisoblanish "baxshi" lar hamisha el – yurt ardog'ida bo'lishgan.

O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qiyos qilganda o'tmishda mazkur o'lkaning ishloq joylarida amalda qo'llanilgan cholg'u asboblari nisbatan chegaralangan edi. Bu yerlarda asosan do'mbira, cho'pon nay, changqobuz, doira kabi sozlarkengroq tarqalgan.

Ammo Surxondaryo xududida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid bir qator ashyoviy dalillar (masalan, Ayritom toshxatasi, devoriy suratlar, terrakota xaykalchalari va boshqalar) bu o'lkada yirik shaharlarga xos san'atchilik an'analari juda qadimga davrlarda shakllanganini isbotlaydi. Ko'hna manbalarda mashhur (ba'zi taxminlarga ko'ra ilohiy) sozandalarning ramziy qiyofalari, mukammal shakllardagi sharqona torli, damli va zarbli cholg'ular yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Alqissa, ajdodlarimiz, tomonidanasrlar davomida yaratilib, zamonlar osha bizgacha yetib kelgan boy musiqa merosimizning turfa, noyob, usluban o'ziga xos va o'ziga mos tabiati – uning juda qadimiyligidan, kuchli va bitmas – tunganmas salohiyat sarchashmalaridan dalolat beradi. Shuningdek, bular xalqimizning har qancha faxrlanishga arzigulik ulkan va bebaho madaniy – ma'naviy xazinasidir.

O'zbek xalq musiqasining maxalliy uslublari

II bob. O'zbek xalq qo'shiqchiligining mahalliy uslublari.

1. Farg'ona – Toshkent mahalliy musiqiy uslubi.

Farg'ona – Toshkent usulbi farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati xududlarida qaror topgan musiqiy an'analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona – Toshkent musqa uslubida bolalar folklori, xotin qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo'lgan Boychechak, yomg'ir yog'aloq, laylak keldi, oftob chiqdi, chuchvara, chittigul kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorumiz bo'ylab mashhurdir.

Xotin – qizlar davrasida laparu yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan “yor-yor”, “kelin salom” va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytiladi.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida “katta ashula” deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u odatda turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap – gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarda hofizlar tomonidan ijro etib kelingan.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi Qozoqboev, Qobilboy baxshi kabi do'mbira chertib, doston aytuvchi baxshilar ham bo'lib, ularning repertuari asosan “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Rustamxon”, “Avazxon”, “Shirin va shahar” kabi dostonlardan tashkil topgan.

Farg'ona – Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab

yakka yoki ansambilʼ (dasta) shaklida namoyon boʻladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va toʻy marosimlarida surnay, karnay, nagʻora va doiralardan iboratansambilʼ sadolari yangrasa, uyxona sharoitida esa sadolanish nisbatan yumshoq cholgʻular, tanbur, gʻijjak, qoʻshnay, rubob va boshqalar qoʻllaniladi. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholgʻuning oʻz oʻrni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorning tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish maxsus “Qoʻshtor”, “Chertmak”, “Dunyo bayoti” kabi kuylar boʻlmish bilan birga yana undan joʻrnavez sifatida ham foydalaniladi. Bu oʻrinda dutor (doira kabi) xotin qizlar orasida keng ommalashgan cholgʻudir. Ayni chogʻda, ashulaga xofizlar ham dutorni tanbur bilan birga oʻz ashula aytimlariga joʻrnavez etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qoʻshnay, gʻijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholgʻusi hisoblanadi, yaʼni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik koʻrgan musiqachilar boʻlishi kerak.

Fargʻona – Toshkent cholgʻu musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir.

Bulardan dilxiroj, Andijon polʼkasi, Fargʻonacha rez, Tanovor, Namangan olmasi, katta oʻyin kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

Fargʻona – Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli boʻlib, ular orasida, jumladan, tarafma – taraf lapar aytishlar, turli qoʻshiqlarni kuylash, toʻy marosim aytimlari boʻlgan yor – yor, kelin salom va oʻlanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida ayniqsa yallalar suvib ijro etiladi.

Yalla – koʻp xususiyatlari, jumladan, raqsbonlik qoʻllari, ijroda koʻpchilikning ijro etishi kabi jihatlar bilan laparga yaqin boʻlgan janrdir. Ammo laparda eng avvalo aytishuvlik sifati muhim boʻlgani holda, yallada badiiy soʻz (sheʼriyat), kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. Shu boisdan yallaga “raqsiy aytim” (F.Karamatov), yaʼni raqs bilan kuylanadigan aytim iborasi qoʻllanib turiladi. Ushbu holat “yalla” atamasida ham maʼlum aks etgan. Chunoncha, ogʻzaki ijodida “yalla” soʻzi “oʻynab - kulish” va umuman, xushvaqtlik boʻlishlik maʼnolarida qoʻllaniladi. Shunday kelib chiqqan holda “yalla” soʻzi “oʻynab - kuyla” qisqartma “yal-la” birikmasidagi ifodasidir, deb aytish mumkin. Yalla – bu band naqorat shakliga ega aytim boʻlib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallacha doira joʻrligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqoratlarni davrada hozir boʻlgan koʻpchilik qoʻshilib aytadi. Bundan tashqari Buxoro – Samarqand sozandalar va Xorazm xonandalariga yaqin boʻlgan kasbiy yallachilar ham boʻlib, ular yakka holda yoki ansambilʼ tarzida namoyon boʻladi.

Yakka holdagi yallachi, odatda, oʻz aytimlariga dutor yoki doira soszida joʻr boʻladi. Yallachilar ansambili esa 2-3 ayoldan iborat boʻlib, faqat doira joʻrligida kuylaydilar xotin – qizlar davrasida xozir boʻlgan yallachilarning repertuari asosan qoʻshiq, lapar, yalla va toʻy marosimi aytimlarida tuzilgan boʻladi.

Hadyaxon Hamdamova, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Rahima Mirzohidova va Oyimqiz Toʻxtaevalar yallachilik sanʼatining mohir ijrochilari edi. Shu yerda yallaga bir misol taqdim etib, soʻng fikrni davom etamiz.

Gulyoraxon.

Xalq soʻzi.

Yallachilarning yana bir ko'rinishi ham borki, uning ijrochilarini Namanganda "satang" deb ataydilar. Satang – yallachilar ko'proq turkum shaklida bo'lgan (ya'ni ikki qism va undan ortiq bo'lgan) katta yallalarni doira jo'rligida raqsga tushib aytadilar. Xolisxon Qirg'izboeva, saltanatxon Alieva Namanganda taniqli satang yallachilar bo'lganlar.

Yallaning o'ynab kuylash xususiyati uning so'z (she'r) va kuy (musiqa) asoslarida o'ziga xos aks etadi. Jumladan barmoq vaznidagi she'rlarni asosan yengil hazil mutoiba bilan yo'g'rilgan sevgi mavzularida bo'lib, uning naqoratlarida o'ynab – kulishga, xushkayfiyat bo'lishga da'vat etuvchi "Yalla" so'zi hamda uning "yallo", "yalli" kabi shakllari ishlatiladi.

Yalloma yorim, yallola,

Yallolashaylik, bedodlashaylik (va hokazo)

Ba'zan "yalla" o'rnida "o'yin", "o'ynasin", "aylansin", "o'rgilay", "tarallo", "xoralli" kabi so'z – iboralar ishlatiladi.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytimlarga nistabat ovoz doirasining kengligi hamda kuygan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytiladi. Ashulalar ijod etiliga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

1. Xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.
2. Nisbiy musiqa oid ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

"Ey nozanin", "Tanovor", "Oydek to'libdur", "Farzona", "Ul parivash" singari xalq ashulalari nafaqat hofiz – ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kabilar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi.. shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin – qizlar tomonidan ham "ichkarida" kuylangan. Jumladan, "Chaman ichra", "Tanovor" ning "Qora sochim" kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin – qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ayni vaqtda "Angorim", "Galdir", "Nilor", "Beboqcha", "Fig'on", "Chaman yalla" singari ashulalarni asosan kasbiy musiqachilar bo'lgan hofiz – ashulachilar kuylashadi. Bunda tanbur – dutorjo'rnavozligi ko'p qo'llaniladi.

Ashullalar, an'anaga ko'ra, turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o'tkazib turiladi.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattarov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Rasulqori Mamadaliev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Fattoxon Mamadaliev kabi mashhur san'atkorlar nomini xurmat bilan tilga olamiz.

Endi Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida katta ashula haqida fikr yuritsak. Katta ashula – bu yirik hajmli ashula bo'lib, uning kuy – ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir.

Katta ashulani odatda ashulachi hofiz yoki 2 – 4 hamnafas ashulacha – hofizlar aytadilar. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqiyimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning diniy – falsafiy, pand – nasihat va boshqa mavzulardagi she'riy namunalari qo'llaniladi. Masalan:

Bir kelsun

A.Navoiy g'azali.

Katta ashulalar ikki, ichk yarim oktavi oralig'ida bo'lgan rivojlangan kuylarga ega bo'lib, erkin ritm – o'lchov asosida badihaviylik (impravizatorlik) xususiyatlari bilan kuylanadi. Bu ashulalarning “patnusaki ashula” yoki “likobi ashula” singari boshqacha nomlari ham bor bo'lib, buning sababai ashulachi hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis yoki likob (tarelka) ushlab turganliklaridadir.

Boltaboy hofiz, Hamroqul qori, Muhammadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan “ko'p erdi”, “Bir kelsun”, “Ey, dilbari janonim”, “Adashganman”, “Do'stlar”, “Yovvoyi chorgoh” kabi katta ashulalari xalqimiz orasida sevimliligi bilan mashhur va ma'lumdir.

Odatda katta ashulani juda qadimzamonlardan to'y va boshqa marosimlarda xalq ko'p to'planadigan joylarda, sayllarda, ko'proq ochiq havoda ijro qilingan. Oldingi davrlarda kuylangan katta ashulalar ko'proq diniy mavzularga ega bo'lgan. Ollohga murojaatlar, marsiyalar kuylangan. Keyingi davrlarda esa zamonaviy ruhdagi ashulalar aytilgan.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy qadritlarimiz tiklana boshlaganda musiqa san'atimiz yana rivojlana boshladi. Shu jumladan katta ashula e'tibor kuchaydi. Jumladan, 1996 yil apreľ oyida Shahrisabz shahrida respublika miqyosida katta ashula tanlovi o'tkazildi. Shu yili Namangan viloyati bo'yicha o'tkazilgan “O'zbekiston Vatanim manim” qo'shiqlar tanlovida katta ashula alohida janr qilib ko'rsatildi. Hofizlar yanada ko'payib bormoqda.

Ashulaning boshqa turlari odatda o'tirib ijro etilsa, katta ashula ko'pincha tik turib aytiladi. Katta ashula kuyini deklamatsion harakterdaligi diapozonining kengligi (uch oktavaga yaqinligi), asosiy melodik tuzilmaning turli xilligi, qochirimga boyligi, o'z ritm o'lchovining muttasil (ma'lum me'yordagi tartibda) bo'lganligi bilan harakterlidir. Katta ashulani qadimda faqat erkaklar kuylar edilar, endi esa buni ayollar ham ijro etmoqdalar.

Har bir davrning o'z san'atkorlari va ijodkorlari bordir. Musiqa sohasida VII asrda Xusrav saroyida yashab ijod etgan Barbad Mariy, XV asrda yashab ijod etgan Xoja Yusuf Andijoniy, shu davrda yashagan ustod nomini olgan ustod Shodiy va boshqalar ko'hna zamin fahridirlar.

Barbad 1001 she'r va kuy bastalagan, Xoja Yusuf Andijoniy 360 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratgan. Ustod Shodiy Iroq maqomi yo'lida 12 naqsh (naqsh - ashula) yaratgan Alisher Navoiy Xoja Yusufning nomini o'zining “Majois ul nafois” asarida katta hurmat bilan tilga olgan. Aytishlaricha Sulton Xusayn ham musiqa ilmini Xoja Yusufdan o'rgangan.

XX asr boshlarida Namanganda Abdulla Taroq, Samarqandda Domla Halim Ibodov, Xo'ja Abdulaziz Niyozov, keyingi davrlarda Buvayda tumanidan Rasul qori Mamadaliev Marg'ilondan Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Baliqchidan Odiljon hofiz, Namangan viloyati O'nhayot qishlog'idan Mallavoy aka, Ibroyimjon aka va boshqa hofizlar ijod qilganlar. Hozirgi davrda Toshkentdan Eson Lutfillaev, Andijondan Fattohxon Mamadaliev, Marg'ilondan Tursunoy opa

Rahimova, To'raqo'rg'ondan Mashrabjon va Tursunboy akalar, uchqo'rg'ondan aka – uka Qozaqovlar, Namangandan Yo'ldoshali Tillaboev, Abdusamad Komilov va boshqalar katta ashula yo'lida samarali ijod qilmoqdalar.

Toshkent va Farg'ona vodiysi bo'ylab keng tarqalgan hamda musiqiy amaliyotiga joriy etilgan maqom yo'llariga nisbatan "Farg'ona – Toshkent maqomi yo'llari" iborasi qo'llaniladi. Bu maqomlar buxoro shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farq etib, bir turkumni tashkil etmaydi, balki alohida –alohida cholg'u va ashula yo'llaridan tashkil topadi. Xususan, Nasrullo I – IV munojon I – IV, Ajam va taronalari, segoh I – III, Cho'li iroq, miskin kabi cholg'u kuylari, Chorgoh I – IV, Bayot - I – IV Bayotiy sherozi I – V, ko'cha bog'i I – II, Gulyor Shahnoz I – V, Segoh, Duyuh – Husayn I – VII, Toshkent irog'i va yana shularga o'xshash boshqa ashula yo'llari Farg'on – Toshkent maqomi yo'llariga mansubdir. Binobarin, Farg'on – Toshkent maqom yo'llari tarkibida bir qismli namunalardan tortib, to besh – yetti qismdan iborat tukum asarlar namoyon bo'ladi.

Ushbu maqomlarning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, ulardan vodiya tarkib topgan ashula, yalla, katta ashulajanrlarining ohang – kuy xususiyatlari hamda doira usullari o'zining yorqin ifodasini topgan.

An'anaviy ijroga ko'ra bu turdagi maqomlarining cholg'u kuylari yakka soz – dutorda, tanburda, g'ijjakda yoki tanbur, dutor, nay, g'ijjak, doira cholg'ularidan iborat ansambil shaklida chalingan.

"Farg'ona – Toshkent maqom cholg'u yo'llari" xalqimizning sevimli kuylari bo'lib, ularni "Nasrullo I – IV", "Munojot I – V", "Ajam va uning taronalari", "Miskin I – V", "Segoh I – III", "Mushkuloti segoh", "Sayqal I – II", "Mirzadavlat I – II", "Mushkiloti dugoh", "Cho'li iroq", "Chorgoh", "Surnay irog'i", "Surnay dugohi", "Surnay ushshog'i" kabi kuylar tashkil etadi. Turkumdagi tarkibiy qismlar rim raqamlari vositasida ("Miskin I", "Miskin II", "Miskin III" va hokazo) ajratiladi. Ba'zi turkumlarda maxsus nomlar ham uchraydi. Masalan, "Miskin I–V" cholg'u turkumining III qismi "Adoiy", IV qismi "Asiriy" deb atalsa Nasrullo I-V ning II qismi "Chapandoz II qismi "Qashqarcha", IV qism "Tarona va V qismi "Ufor" deb ataladi va hokazo.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u turlari turli xil xalq cholg'ularida ijro etish an'anasi ham mavjud. Shuningdek bu kuylar turli vazifalarda chalinadi. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g'ijjak ijrolari "uy sharoitlari" da o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'ladi.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu san'atni ustozlardan o'rganadilar. Shu tarzda bu san'atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umrzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov(surnay), Shobarot tanburcha, Abdumutal Abdullaev (tanbur), Muxiddin hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxhja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Fahriddin Sodiqov (chang, dutor) G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (Tanbur, dutor, g'ijjak, sato), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko'proq uchraydi. Xususan, "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti sheroziy", "Gulyor shahnoz" singari ashula yo'llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari o'z ijrolari bilan yuksaltirilganmaqomchi hofizlar qatorida Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sadirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxo Mamadaliev, Orifxon Xatomov kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom yo'llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa mumtoz janrlarning she'rlari asosida kuylanadi. Maqom yo'llari xalqimizning madaniy hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda, xususan, surnay yo'llari to'y – bazmlarda, xalq tomoshalari va sayllarda, dorbozlik qyini va boshqa tantanalarda ashula yo'llari turli yig'in kechalari va kundauzli majlislarda ijro etib kelnmoqda.

2. Xorazm mahalliy musiqiy uslubi.

Xorazm musiqa uslubi – bu shu vohadagi xalq qo'shiq va laparlari, turli marosm, tomosha va o'yin – raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san'ati kabi nisbiy musiqa an'analaridan tashkil topadi. O'zbek musiqasining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o'zgacha tarovatga ega bo'lib, uning ma'lum darajada turkman va ozorboyjon musiqasiga yaqinjihatlar ham bordir.

Professional ijod hisoblangan maqomlar xalq musiqasini ko'pgina jihatlarini o'z ichiga olganligiga hech shubha yo'qdir. bu murakkab musiqa asarlarining hozirga qadar xalq orasida ijod etib kelayotganligi ham ularni juda mashhur bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalq musiqasi ham maqomlarga, xususan, bir qator taraqqiy etgan shaklda, ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgandir. Xalq musiqasi maqomlarga oila ta'sir etganini e'tirof etar ekanmiz, mehmonlarning ham xalq ijodiga ta'sir ko'rsatganini ham tan olmay bo'lmaydi. Buning uchun quyidagi misollarni keltirish kifoya.

Xorazm xalq kuylaridan "Ne qoshu yuz" – "Rost" maqomi tasnifining bir yo'li, "Savti feruz" ham "Rost" maqomining bir yo'li, "Gulandonim bila" – "Navo" maqomi talqinining bir yo'lidir. "E, yor" qo'shig'i talqin uchun xos bo'lgan ritm tuzulishidan iboratdir. Bu Xorazm musiqasining asosi umum o'zbek milliy musiqasidan farq qiladi, degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, bu musiqa milliy musiqaning ajralmas bir qismi bo'lib, ma'lum darajada mahalliy xususiyatga egadir.

Xorazm musiqasining o'ziga xosligi uning an'anaviy jolg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon domla cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. Bu boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas (ya'ni bulamon boshqa usulblarda uchramaydi). Bu soz tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambillar tarkibida ijro etish mumkin.

Xorazm Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX boshlab esa "garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlagan. Uni "soz" deb atashdi.

Bundan tashqari Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar qo'llangan holda, do'mbira sozi uchramaydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin, harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs – o'yin kuylarni bir necha turlarga bo'lish mumkin.

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asosini lazgi, Ganji qorabog', Ufori kabi kuylar tashkil etadi.
2. Dorbozlarning o'yin kuylari. Ularni Yelpazalandi, Ufori Yelpazalandi kabi kuylar tashkil etadi.
3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin – kuylari. Bu kuylarni Chog'alloq, Az-az, Az-azning tezi, xorazmcha, yuz bir, ot yaroni, surnay yo'li kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs va o'yin kuylari ommoviy bayram sayllarda ijro etiladi.

O'tmishda esa Xiva xonligi madaniyatida o'tkazilgan xalq sayli kunlari "Xatarli o'yin" nomli turkum mazmunida ham namoyish etiladi. "Xatarli o'yin" da parrandalar va uy hayvonlarining xatti – harakatlari (masalan: tustovuq o'yin, ot o'yini, kaptar va boshqalar) hamda "olma terish", "kampir", "ko'knori" kabi maishiy sahnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

Endi Xorazm xalq laparlari haqida gapiradigan bo'lsak, ikki va undan ortiq ijrochilarning tarafma – taraf bo'lib kuylaydigan aytishuvlariga lapar deb ataladi. Laparlar aytilayotganda raqsga ham tushish mumkin, chunki ularda raqsbon usullar, ayniqsa ufor usuli keng qo'llaniladi. Laparlpr boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, diolog shaklda ijro etilishi bilan ajralib turadi. Xatto ularning bir turi bo'lgan o'yin laparlarini ham ikki kishi o'yinga tushib ijro etadi. Yoki o'yinchi aytgan bandning naqorati cholg'uchilar tomonidan takrorlanib turadi. Odatda uylanish to'ylarida qiz uzutar yechasi yor – yor aytilsa, lapar, bayt – g'azal, lirik termalar, o'yinlar "qiz oqshomi", "Qizlar majlisi", "Qiz oshi", "Lapar kechasi" deb ataladigan, ya'ni nikohdan bir – ikki kun oldin uzatiladigan qizning uyida dugonalari yig'ilib o'yin – kulgu qilishganda aytiladi. Ba'zan hashar – pashar tikar, charh yigirar, pilla terdi kabi qizlar ishtirok etadigan mehnat yig'inlarida aytiladi. Odatda laparlarda naqoratlar bo'lmaydi, ularda savol – javob shakliga asoslangan she'riy bandlar ko'p qo'llaniladi. Shuni ham aytish kerakki, Xorazm musiqa uslubida laparlar nafaqat ikki kishi tomonidan, balki yakkaxon (asosan ayollar) tomonidan raqsga tushib aytilishi ham mumkin. Quyida misollar sifatida keltirilgan "Par devol" va "Oxtaraman" kabi aytimlar yakkaxon tomonidan kuylanadigan laparlardir.

"Oxtaramandan" Do'stlar ayb aylamang,

Birjonajon oxtaraman.

Cho'li maydonlar kezib,

Vafoli yor axtaraman.

"Par devoldan" Per devola, pardevol,

Pardevolning gardi bor.

Yaxshi ko'rgan yorimning,

Yuragida dardi bor.

An'anaga ko'ra laparlar xalq bayrami va sayllarda, to'y marosimlarda va boshqa ommaviy tantanalarda ijro etilgan.

Endi Xorazmda ashulachilik san'ati haqida. Vohada ashulachilik san'ati ravnaq topgan bo'lib, ashulachilarni xalq orasida ko'proq "go'yanda" deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u asosan mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy ohanglari esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami (diapozon) bir oktava va undan ortiq bo'ladi.

Xorazmda "Suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjuddir. So'zi fors – tojikcha bo'lib, "otliq" ma'nosini bildiradi. Ustozlar "Suvora" ashula yo'llarini ot tuyog'idan xosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularning asoslangan kuylarni ifodalaydi, deb ta'kidlaydilar.

Xorazm suvorolari Navoiy, Mashrab, Nodira, Zalimiy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabishoirlarning she'rlari asosida aytiladi. Xorazmda Suvora ijrochilarining didalishma yoki diydalishma deb ham yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o'tkazib turiladi. Bunday musobaqalarda qatnashayotgan ashulachilarning har bir dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma – navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didalashma musobaqasida g'olib chiqadi.

Suvoralarning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy) kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmda suvora ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan aytiladi:

1. O'n ikki Suvoradan iborat Savta suvoralar turkumi. Bu turkumdagi har bir Suvora rim raqami bilan belgilanadi. Masalan, Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, va hakazo. Mazkur turkumdagi barcha suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doira usullari bilan ijro etiladi.
2. Suvoralarning yana bir turkumining yirik shakli suvoralar majmuasi tashkil etadi. Bu suvoralar turkumidagi har bir Suvoraning mahsus nomi bo'lib, ular Suvora, Chapandozi Suvora, Yakpada Suvora, Hushpada Suvora, Kajhang Suvora, kabi ataladi. Bu Suvoralarda 6/8, $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$, ritm – o'lchovlar va ularga muvofiq doira usullari qo'llaniladi. Shuningdek, Xorazmda Suvoralardan tashqari yana alohida ashula yo'llari ham mavjuddir.

Epik asarlarni kuylovchi ijodkorlar - dostonchilarni xalq orasida turli – tuman atamalar bilan nomlab kelganlar. Dostonchini Xorazmda baxshi deb ataydilar.

Xorazmda uztoz baxshi rahbarlarligida uch – besh kishidan iborat ijrochilar jamoasi tuziladi. Xorazm baxshilarining bunday ansambili ustoz baxshi, bir bulamonchi, biri g'ijjakchi yoki ikki bulamonchi, ikki g'ijjakchi yoki faqat bulamonchi va bulamonchilar hamda faqat g'ijjakchi va g'ijjakchilardan iborat bo'ladi. Shogirdlar bu siraga kirmaydi. Talimning keyigi bosqichlarida shogirdlar dutorda ustoz baxshiga jo'r bo'lishlari mumkin. Bunda ansambil a'zolarining soni shogirdlarning soniga qarab ko'p yo oz bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, asrimizning 30 – yillaridan boshlab bir necha Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu monasabat bilan ayrim baxshilar ansambilida

g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansambilga doirachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari bo'ladi. Bola baxshi va uning ansambili bunga yaqqol misol bo'la oladi. Lekin bu hol epik traditsiya uchun tipik hodisa emas.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan farqli jihatlariga ega. Bu farqlar asosan quyidagilar iborat:

a) Xorazm dostonlari "Bo'g'iq ovoz"da emas, balki "Ochiq ovoz" uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.

b) ko'pgina mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbira sozi jo'rnavoz sifatida qo'llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilar ansambili qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bulamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lishadi.

v) Xorazm dostonlari repertuarini asosan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Bozirgon", "Oshiq Oydin" kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub "Alpomish" namunasi uchramaydi.

Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi, Bola baxshi Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi. Bunday ijodkorlar baxshi emas, balki sozchi deb yuritiladi. Masalan, Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshqalar.

Yuqorida bayon qilingshanlardan ko'rinadiki, epik asarlarni kuylash, avlodlardan – avlodga saqlab qolish va elga yetkazishda O'zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda asosan jamoa ijrochilik (ansambilli baxshilar ijrochiligi) yetakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, nasriy o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos yoqimli ovozda so'zlanadi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrimtermalarni kuylova va aytuvchi ijodkorlarning yana bir turini xalfalar deb yuritiladi. Xalfachilik ayollar o'rtasida keng tarqalgan. Xalfachilik san'ati ikki xil:

a) ansambilli xalfalar:

b) yakka xalfalar.

Xorazm xolfalari Buxoro – Samarqand sozandalari singari asosan xotin – qizlar ishtiroki bilan bog'liq turli yig'in, marosim va bayramlarda qatnashadilar.

Ansambilli xalfalar uch kishidan iborat, ya'ni ular ustoz xalfa boshchiligida (xalfaning o'zi garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi va va ba'zan raqsga tushadi), o'yinchi (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) birlashib to'p, ansambil tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doira jo'rligida kuylaydilar. Bibi Shoir, Xonimjon xalfa, Ojiza, Anash xalfa, Nazira Sobirova, Onajon Safarova kabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yodaki yoki qo'lyozma va kitobdan qiroat bilan badiiy (yoqimli ohangda) o'qish,

“Yor-yor”, “Kelin salor”, “Muborak” kabi to’y qo’shiqlarining chiroyli ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Bu jihatdan ular o’tmishda xotin – qizlar orasida kitobxonlik (qissaxonlik) qilgan otin oyilarga o’xshab ketadilar. Roziya Matniyoz qizi, Saodat Hudoyberganova, Poshsha Sayidmamat qizi, Anbarjon Ro’zimatova, Anorjon Razzoqova kabilar shunday xalfalardandir. Ansambilli xalfalar to’y va tantanalarga ishtirok etsalar, yakka xalfalar to’yu tantanalardantashqari motam marosimida ham ishtirok etadilar. Motam kunlarida “Ibrohim Adham”, “Bobo Ravshan” kabi dostonlar qiroat bilan o’qilgan.

Xalfalar mahalliy xalqning barcha to’y hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig’inlarida va bayramlarda qatnashadilar, to’y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san’ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

Targ’uncha

Yuqoridagi qo’shiq namunali Xorazmning mashhur xalfalaridan biri – ojiza ijodiga mansubdir. Xalfaning to’liq ismi aslida Onabibi Otajonova (1901 – 1952) bo’lib, ko’zi ojizligi sababli xalq orasida “Ona bibi qoriy” nomi bilan tanilgan. Ojiza esa tahallusidir.

3. Buxoro – Samarqand mahalliy musiqiy uslubi.

Buxoro – Samarqand musiqa uslubi deganda Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlarida qaror topgan musiqiy an’analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo’lmish bu vohalarda xalq qo’shiqlari, ashulalari, cholg’u kuylari, qarsak o’yin aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san’ati va maqom namunalari keng o’rin tutadi.

Buxoro – Samarqand musiqa uslubining o’ziga xos jihatlaridan biri unda ikki tillilik, ya’ni o’zbek va tojik tillari an’anasining namoyon bo’lishidir. Bu holat shu sarhadda yashab, faoliyat ko’rsatgan ko’pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdulla Mulham, Fitrati Zardo’zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo’rg’oniy ijodiga o’z aksini topgandir. Ikki tillilik an’ansi xalq musiqasida o’zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo’shiqlarini ayni vaqtning o’ziga ham o’zbek ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda qo’shiqning bandlari o’zbek tilida, naqoratlari ‘sa tojik tilida hamda aksincha ham bo’ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo’shiqlarining o’zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoniyati mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda yo o’zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo’shiqlari ham uchraydi.

Qarsak janri. Bu o’yin aytimning turi bo’lib, u turli xil tomosha va davralarda ko’pchilik tomonidan ijro etiladi. Bunda davrada xozir bo’lganlar aylana shaklida o’tirishib, yakkaxonning aytimi va raqsiga qarsak bilan jo’r bo’lib turishadi va naqoratlarni kuylashadi.

Besh qarsak

Demak, qarsak janri band – naqorat shaklida bo’lib, bandlarni yakkaxon (aytimchi) aytadi, davrada o’tirganlar esanaqoratlarni kuylashadi. Qarsak o’yin aytimlarining bir necha turlari mavjud. Jumladan, qars, yakka qars, qo’sh qars, uch qars, besh qars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari bor.

Sozandachilik maktabi. Buxoro – Samarqandmusiqa uslubida sozandachilik maktabi va san’ati ham shakllangan bo’lib, u ayollar ijodi bilan bog’liqdir. Sozanda bu yakkaxon – aytimchi bo’lib, u qo’lida qayroq yoki zang (qo’ng’iroqcha) bilan raqsga tushib, qo’shiq bandlarini kuylaydi. 2 – 3 ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqoratlar bilan jo’r bo’lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambil) da jami 3 – 4 ayol yakkaxon sozanda, doirachi, naqoratchi, qatnashadi.

An’anaga ko’ra, sozanda dastalari o’z san’atini faqat xotin – qizlar davrasida o’tkaziladigan yig’in, to’y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o’zbek va ko’proq tojik tilida bo’lgan ko’p qismli o’yin – aytim turkumlaridan iborat bo’ladi. Shuningdek, ayrim ayrim qo’shiqlarni ham o’zbek, ham tojik tillarida kuylash an’anasi mavjud. Odatda sozanda o’z aytimini vazn, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug’orilgan “To’y muborat” qo’shig’i bilan boshlaydi. So’ngra asta jadallashib boruvchi raqs – o’yin aytimlari birin ketin, to’xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doirachilar ham naqoratlar bilan, ham usullar bilan jo’r bo’lib turishadi, ba’zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o’zaro munosib ijro etadilar.

Xozirgi paytda sozanda dostonlarida rubob va hatto akardeon ham qo’llana boshlandi.

Mavrigi janri. Mavrigi – ko’p qismdan iborat o’yin – aytimlar turkumi bo’lib, uning ijrosida uch va undan ortiq kasbiy xonandalar va 1-2 o’yinchi (raqqos) lar ishtirok etadi.

“Mavrigi” namunasm:

Mavrigi asosan erkaklar tomonidan aytiladi va raqs – o’yinga tushiladi. Jo’rsiz sifatida faqat doiradan foydalaniladi. Ammo bu sozni chertish uchun maxsus doirachilar taklif etilmaydi. Balki uni xonanda – ashulachi chertadi. Demak, honandalar bir vaqtning o’zida ham ashula aytib, ham doira chertib, o’zlariga jo’rvoz bo’ladilar.

Mavrigi aytimlarida ikki tillilik an’anasi namoyon bo’lib turadi, ya’ni turkumdagi ashula qismlari o’zbek va tojik tillarida kuylanadi.

Mavrixonlik asosan Buxoro va shu viloyatning ayrim tumanlarida tarqalgan bo’lib, turli davra va bazmlarda ijro etiladi. Bunda “yakkaxon ko’pchilik” (bandchi – naqoratchi singari) bo’lib aytish hamda yalpi jamovaiy (hamma xonandalar birgalikda) tarzda kuylash turlariga keng o’rin beriladi.

Mavrigida ikki va undan ortiq qismlar bo’lib, ular birin – ketin ijro etiladi. Dastlabki qism vazminroq ruhda bo’lgan “kirish” vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o’tilgani sari ritmlar kuchayib, o’yin – aytimlar jadallashib boradi. Shu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o’rin tutadi.

Dostonchilik tabiati va baxshilar shaxsi shu darajada murakkabki, ularga bir tomonlama yondoshish va bir nuqtai nazardagini baho berish mumkin emas. Baxshilar umumiy g’oyaviy yo’nalish, sinfiy mansubiyat, keng ma’nodagi repertuar birligi, ijro va kuylarning o’xshashligi, dostonchilikning asriy an’analari jihatidan umumiylikka, birlikka ega bo’lsalarda, har bir dostonchi yoki dostonchilar guruhiga xos poetik yo’l, uslub, repertuar harakteri, ijro usullari bilan

bir – biridan farq ham qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi, ustoz – shogird munosabatlari, xududiy ayrimliklar mavjud. Bunday farqlarni ko'rsatish uchun Hodi Zarif folklorshunoslikda dostonchilik (baxshilik) maktablari iboralarini qo'llagan hamda Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari vakillarining shajarasini tuzib chiqqan edi. Keyingi tekshirishlar va ekspiditsiyalar davomida yana qator dostonchilik maktablari aniqlandi. Yurtimizda bu maktablar Bulung'ur, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Nurota, Narpay, Sherobod, Qshay, Pskent kabi yetakchi baxshilar yetishib chiqqan joylar nomlari bilan ataladi.

Bulung'ur dostonchilik maktabida “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Rustamxon”, “Go'ro'g'lining tug'ilishi”, “Jahongir” kabi qahramonlik dostonlarietakchi o'rin tutadi. Jo'rnavoz soz sifatida do'mbira sozi qo'laniladi. Amin baxshi, Chinni shoir, tavguzor shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldosh – bulbul, Yo'ldosh shoir, Qo'ldosh Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishdagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yo'ldoshev o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'nggi yirik vakillaridan biri edi. Qo'rg'on dostonchilik maktabida ham “Alpomish” dostoni ijro etilgan bo'lsa – da, biroq unda ishqiy romantik dostonlarga (jumladan, “Gulnor pari, “Qunduz bilan Yulduz”, “Oysuluv”, “Kuntug'mish” va boshqalar) ga ko'proq e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'tmishdagi yirik vakillari qatorida Yodgor Lafas, Mulla Tosh, Mulla Holmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868 – 1937) va Pulkan shoirlar (1874 – 1941) bu maktabning yirik namoyandalari edi.

Baxshilar repetuarining hajmi ham bir xil emas. Odatda oddiy baxshilar besh – o'nta doston bilganlar. Shunda ham bir – ikki dostonni yaxshi kuylaganlar. Eng qobiliyatli, talantli, yuksak hofiza quvvatiga ega bo'lgan ijodkorlar repertuarida o'ttiz – qiriq va hatto undan ortiq dostonlar bilgan. Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoirlar shunday dostonchilardan edilar. Ular bir qator epik asarlarni el orasida kkuylab kelishda va bunday namunalar folklorshunoslar tomonidan yozib olingan paytda shu darajada dostonchilik mahoratini namoyin qilganlarki, bunday dostonlarning ko'pchiligi ularning nomi bilan abadiy muhirlanib qoldi. Masalan, “Alpomish” deganda beihtiyor ko'z o'ngimizda Fozil Yo'ldosh o'g'li, “Ravshan” deganda Ergash Jumanbulbul o'g'li, “Orzugul” deganda Islom Nazar o'g'li namoyon bo'ladi. Favqulotda xotira qudratiga ega bo'lgan improvizator kuychilar yetmishtacha xalq dostonini kuylab kelganlar. Davrimizning atoqli dostonchisi Pulkan shoir va uning repertuari bunga yaqqol misol bo'la oladi. U yetmishdan ortiq dostonni yod bilar edi. Har bir doston ikki – uch ming satrdan tortib o'n – o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni, qariyb shuncha prozoik qismini ham o'z ichiga olishini hisobga olsak, xalq baxshilarining salohiyati, hayratomuz yodlash va esda saqlash qobiliyati, ijod qilish qudrati o'z – o'zidan ayon bo'ladi.

Endi Buxoroning olti maqomi haqida fikr yuritsak. Shashmaqom bu olti maqom degani bo'lib, u quyidagi olti maqomdan tashkil topadi.

1. buzruk maqomi.
2. Rost maqomi.

3. Navo maqomi.
4. Dugoh maqomi.
5. Segoh maqomi.
6. Iroq maqomi.

Maqom aslida arabcha soʻz boʻlib, “oʻyin”, “joy” maʼnolarini anglatadi. Musiqada esa “parda” maʼnosini bildiradi, yaʼni torli cholgʻulardagi soz pardalarini bildiradi.

Olti maqomning har biri oʻziga xos tovush – pardalarga ega boʻlib, bu pardalar asosida bastakorlar cholgʻu kuy va ashula yoʻllarini yaratadilar. Binobarin olti maqomdagi har bir maqom ikki yirik boʻlimdan – cholgʻu va ashula yoʻllaridan iboratdir. Bunday asarlarni esa. “ustoz – shogird” maktabida tahsil koʻrgan kasbiy cholgʻuchi va ashulachi hofizlarga mahorat va malakali ijro eta oladilar.

Kasbiy cholgʻular orasida tanbur torli – chertma sozi keng qoʻllaniladi. Bu sozda noksimon oʻyma kosa va unga ulangan dasta boʻlib, tut yogʻochidan tayyorlanadi.

Tanburda torlarning soni uchtdan oltitagacha boʻlishi mumkin. Ammo hozirgi davr ijrochilik amaliyotida koʻproq uch simli tanbur qoʻllanishi odat tusiga kirdi. Tanburning torlari koʻrsatgich barmoqqa kiyiladigan nohun yoki tabiiy tirnoq vositasida chertib chalinadi. Unda maqom va maqom yoʻlidagi boshqa yirik cholgʻu kuylari ijro etiladi. Hamma hofizlarga joʻrnavezlik vazifasi bajariladi. Shuningdek, Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doira saozlaridan iborat cholgʻu ansambili anʼanaviy tus olgan.

Domla Halim Ibodov, ota JalolNosir, Ota Gʻiyos Abdugʻani Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov, Yunus Rajabiy kabi ustozlar olti maqom turkumining mahoratli ijrochilari edilar. Chunki maqomlarning ashula yoʻllarini ustoz hofizlar kuylashadi. Ularda qoʻllangan mumtoz sheʼriyat namunalarida esa ikki tillilik anʼanasi namoyon boʻlib turadi. Yaʼni maqom ashula yoʻllarida aruz vazniga asoslangan oʻzbek va tojik sheʼrlarining qoʻllash mumkin. Shu bois ham hozirda shashmaqomning Tojikistonlik hofizlar tojik tilidagi sheʼriyat namunalari asosida kuylaydilar. Bunda, ayniqsa, Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Mashrab, Bobur, Muqimiy singari shoirlarning sheʼrlari keng qoʻllaniladi.

Samarqandlik mashhur hofiz va bastakor, oʻzbekiston xalq artisti Hoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) tanbur va dutor chertish hamda ashula aytish yoʻllarining mukammal egallagan sanʼatkor edi. Uning ijrochilik bisotida (repertuarida) ikki yuzdan ziyod ashula va cholgʻu kuylari boʻlib, bunda hofiz ashula yoʻllarining Buxoro – Samarqand anʼanasiga oid oʻzbek va tojik tillarida kuylagan. Shu bilan birga Hoji Abdulaziz Rasulov nafaqat Buxoro – Samarqand musiqa uslubini, balki oʻzbek musiqasiga doir boshqa mahalliy anʼanalarni ham ijodiy oʻzlashtira olgan sanʼatkordir.

Xususan, Buxoro – Samarqand hofizlari maqom – ashula yoʻllarini tanburda joʻrnavezlik qilib aytsalar, Hoji Abdulaziz Rasulov bu oʻrinda dutorni ham qoʻllayveradi. Maqom ijrochiligida dutordan foydalanish amaliyoti esa Xorazm va Fargʻona – Toshkent musiqa uslublariga koʻproq xosdir.

4. Surhondaryo – Qashqadaryo mahalliy musiqiy uslubi.

Surhondaryo – Qashqadaryo musiqa Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hudidida shakllangan barcha musiqiy badiiy an'analar tushuniladi. Bu an'analar mehnat aytimlari, mavsumiy – marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab qo'shiq va cholg'u kuylaridan tashkil topadi. Shuni aytish kerakki, musiqiy an'analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taaluqli bo'lib, ulari turli vaziyatlarda, jumladan, xalqning turmush – tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf – odat va mrosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga keladi.

Surhondaryo – Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq aytim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijod qilingan. Xalq musiqasi namunalari esa dastlab iste'dodli shaxslar tomonidan yakka yoki jamoa ishtirokida yaratilib, so'ngra el orasida og'izdan – og'izga o'tib ommalashadi. Shu tarzda asrlar davomida kuylanib kelinayotgan mehnat qo'shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajriba faoliyatida saqlanib kelinadi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayllari (masalan navro'z bayrami, lola sayli va boshqalar) qo'shiqlari hamda qarsak o'yin aytilishlari va yana ko'plab xalq qo'shiq kuylari o'tmishdan bizning davrimizga meros bo'lib qoldi.

“Shalola” folklor – etnografik ansambili Surhondaryo – Qashqadaryo xalq musiqa an'alarini atroflicha o'rganib, ularni qayta tiklayotgan hamda sahna madaniyati orqali targ'ib qilayotgan ijodiy jamoadir. Ansambil boy repertuargaga. Xususan, ansambil (dasta) ishtirokchilari mehnat qo'shiqlari (“Mayda – mayda”, “Xo'p hayda”) mavsumiy marosim aytimlari (“Lola sayli” qo'shiqlari, “Navro'z qo'shiqlari”) va turli xil o'yin – aytimlarini katta ishtiyoq va mahorat bilan ijro etadilar. Shunday qo'shiqlardan biri “Arg'amchi” deb ataladi.

Arg'amchi.

Bu qo'shiq turnalar uchib kelishi munosabati bilan kuylanadi. Uzoq o'tmishda shunday bo'lganki, odamlar turnalarning qay tarzda uchib kelishiga qarab yilning qanday kilishini bashorat etganlar. Masalan, turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta keladi, agar ular pastlab uchsa rizq – ro'z unumli bo'ladi, deb umid qilganlar.

Turna desam turumli,

Keng dalaga qo'nimli.

Turnalar uchsa pastlab,

Rizqing kelar unumli.

Turna o'zi qurumli,

Usti qora, bo'yni oq.

Turna uchsa balandlib,

Yil keladi qurumsoq.

Turna tilla tarozi,

Obi – havoga qozi.

Turna multsa yurtiga,

Salqin seladi yozi.

O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va ommaviy tantanalar shakllangan bo'lib, ularning aksariyati ko'hna hayotga taaluqli. Shunday marosim bayramlardan biri bahor mavsumida qtkaziladigan "Lola sayli" dir. Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa an'anasida "Lola sayli" bilan bog'liq ko'plab qo'shiqlar ijod etilgan bo'lib, ular hozirda ham kuylanib kelinmoqda. Ana shunday qo'shiqlardan biri "Hey lola" dir.

Hey, lola.

Lola sayli navro'z bayramining birinchi kuni o'tkaziladi. Bu bayramning an'anaviy o'tmishi shunday bo'lgan. Mahalliy aholi keng maydonga yig'ilib, yoshlarni lola terimiga kuzatganlar. Terimchilar qir – adirlarga sayr qilishib, quchoq – quchoq lola terishgan, qo'shiqlar kuylashgan. So'ngra terimchilarning belgilangan maydonda qizg'in va tantanavor ravishda kutib olish bayram – marosimi o'tkazilgan. Bunda karnay – surnaylar chalinib, raqslarga tushulgan, yoshlik va go'zallik ramzi lola qo'shiqlarda vasf etilgan. Lola aytimlari o'zining yorqin kuy ohanglari va sho'h – o'ynoqi doira usullari bilan shodlik tuyg'ularini ifoda etgan.

Edi Surxondaryo – Qashqadaryo vohasining an'anaviy musiqa cholg'ulari haqida fikr yuritsak. Ular uzoq o'tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ijro etib kelinayotgan sozlar bo'lib, ularning asosan qo'biz, cho'pon nay yoki g'ajir nay, sibiziq (sibizg'a), chang qobuz, do'mbira va doira naylar tashkil etadi.

Qo'biz torli – kamonli cholg'u bo'lib, u o'yma kosa, yog'och dasta va ikki tordan iborat bo'ladi. U kamon vositasida chalinadi. Qo'biz turkiy xalqlar orasida qadimdan qo'llanib kelingan torli – kamonli cholg'u, tovushqatorining hajmi bir yarim oktavaga teng. Mungli qo'biz sozi o'tmishda xalqimizning sevimli cholg'ularidan biri bo'lgan. Uning jo'rligida baxshilar dostonlarini hamda "Botir kuy", "Cho'poni" singari sof cholg'u kuylarni ijro etishgan.

G'ajir nay uzunasiga ya'ni bo'ylama tarzda ushlab chalinadigan puflama soz bo'lib, uning nomi cho'l burguti – g'ajirdan kelib chiqqan. Chunki bu nay shu nomli burgutning qanot suyagidan tayyorlanadi. Nayning ovoz hajmi seketa oralig'i bilan cheklangan. Unda cho'ponlar ijodi bo'lgan "Cho'poncha" kuylari hamda podani haydash yoki uni sug'orishga olib borish kabi mehnat faoliyatini anglatuvchi mahsus signal sadolar chalinib kelingan, gohou uni "Cho'pon nay" de ham atashgan.

Sibiziq (sibizg'a) – oddiy qamishdan tayyorlanadi va g'ajir nay kabi uzunasiga ushlab chalinadi. Tovushlar doirasi oltilik parzalarini qamrab oluvchi bu cholg'udan axborot (signal) uzatish vositasi ham foydalanilgan.

Changqobuz – maxsus tilchali cholg'u bo'lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi. Temir changqobuz aylana shaklida bo'lib, o'rtasidan 7 – 9 sm uzunlikda po'lat til o'tkaziladi. Uni chalish uchun chap qo'l bilan tishlarga bosib turib, ayni vaqtda o'ng qo'lni ko'rsatkich barmog'i bilan tilchasini to'lqinlantirib turish lozim. Changqobuzdan barqaror bir asosiy ovoz va oktava yuqorilab uning oberton tovushlari hosil etiladi. Ana shu yuqori tovushlar og'iz bo'shlig'idagi havo bosimi orqali "boshqarilib", kvarta – kvita hajmida bo'lgan kuylar chalinadi. Bu

cholg'uning chalinishi oddiy va ommabop bo'lganligi uchun uni nafaqat kattalar balki bolalar ham sevib chaladilar.

Bo'mbira sozi ikki torli chertma cholg'udir. U kvarta, kvita yoki oktavaga sozlanadi. Do'mbira dutorga o'xshash bo'lsa – da, undan o'ziga xos “bo'g'iq” tovushi nisbatan qisqa va silliq dastasi, ikki oktavaga qadar tovushqatori va boshqa jihatlar bilan farq etadi. Hozirda asosan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida keng joriy bo'lib kelayotgan do'mbira ijrochiligi ikki ko'rinishda - jo'rnovoz yakkanavoz shakllarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, jo'rnovoz do'mbira baxshilarning doston va boshqa turli aytimlarida qaror topib kelgan bo'lsa, yakkanavoz do'mbira amaliyoti dostonlar bilan bog'liq. “Baxshi kuy” hamda cho'ponlar ijodiga oid maxsus “Quylarni sudrash”, “Qo'ylarni yig'ish”, “Cho'poncha”, “Do'mbira kuy”larni yolg'iz ijro etishda namoyon bo'ladi. U cho'ponning sevimli cholg'usidir.

Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubining qo'shiqlari – xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etadi. Bu turdagi aytimlar inson faoliyatining turli jabhalarida ijod etilgan bo'lib, turfa ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, bu aytimlar mehnat jarayonining bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berish qatorida yana mehnatchi qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilgan, ruhiy dalda bo'lib xizmat qilgan.

Mehnat qo'shiqlari jiddiy ko'zdan kechirilsa, ularning mehnat turiga qarab rang – barang janrlardan tashkil topganliklarining ko'rish mumkin. Mana shu holatdan kelib chiqib biz mehnat qo'shiqlarini muayyan bir janr sifatida emas, balki o'z ichiga poetik shakli, mazmuni, ijro usuli, sharoiti, tarzi, ijrochilar tarkibi, poetik matnning melodik tuzilishi jihatidan bir – biridan keskin farqlanuvchi bir necha mustaqil janrlarni qamrab oluvchi xalq lirikasining mustaqil bir turkumi deb qarashni lozim topdik. Demak, mehnat qo'shiqlari marosim qo'shiqlari, sevgi qo'shiqlaridan keskin farqlanuvchi lirik turga mansub mustaqil janrlar turkumidan iboratdir.

Hozirda bizga ma'lum bo'lgan mehnat qo'shiqlarini ta'riflashga kirishar ekanmiz, ularga xos quyidagi tasnifiy belgilarni alohida ko'rsatib o'tamiz:

1. Mehnat qo'shiqlarida jo'rsozlik vazifasini bajaruvchi musiqiy cholg'ular qo'llanilmaydi.
2. Ularning kuy – ohanglari kichik ovoz (kvarta, kamroq pvinta) doirasida bo'lib, mehnat mazmuniga bog'liq she'riy to'rtliklar asosida yakkaxon tomonidan aytiladi.
3. Mehnat qo'shiqlarida she'riy bandlar oldida ulardan so'ng mustaqil naqoratlar deyarli qo'llanilmaydi, ammo band misralariga ulanib keluvchi maxsus takroriy so'z iboralar (masalan: xuo' – xush, turey – turey, mayda – mayda, va hakazo) qo'llanishi pirovardida naqoratsimon ahamiyat kasb etishi mumkin.
4. Ritm vositasi yetakchi omillardan biri bo'lib, “ettilik” bo'g'in – ritm tuzilmasi yetakchi o'rin tutadi.
5. Aytim kuylarida nutqdan va so'zdan ohanglar birlamchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bajarilayotgan mehnat turiga ko'ra ta'riflanayotgan aytimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- I. Chorvadorlik qo'shiqlari.
- II. Dehqonchilik qo'shiqlari.
- III. Hunarmandchilik qo'shiqlari.

Chorvachilik qo'shiqlari aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi va mehnati jarayonida tashkil topgan. Ularning bizgacha yetib kelgan asosan "Sog'im qo'shiqlari"dan iborat, ya'ni bu aytimlar sigir, biya, tuya, echki kabi uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylanadi. Sog'im qo'shiqlarining turli xillari va shunga muvofiq nomlari ham mavjud. Masalan, qora molni sog'ishda "hush – ho'sh" aytimi kuylanadi. "Turey – turey" qo'shiqlari qo'ylarni sog'ish va qo'zilarni emizishda aytiladi. Bu qo'shiqlarda ham ona sovliqni madh etish, uni iydish uchun aytiladigan erkalash holatlari yetakchilik qiladi. Masalan:

Esli qo'yim – oqilim, turey – turey,

Elkamdagi kokilim, turey – turey.

Shuncha qo'yning ichida, turey – turey

Bog'da ochilgan gulim, turey – turey.

Sog'im qo'shiqlarining yana bir turi "churiyalar" bo'lib, u echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladi.

Shihlaring bor bir minora, churiya – churiya,

Minora qushlar qo'naro, churiya – churiya.

Bolang yelib iskasang – a, churiya – churiya

Kuyingan yuraging qonara, churiya – churiya

Sog'im qo'shiqlari bevosita mehnat jarayonida yaratilib, ana shu jarayonda ijro etib kelinadi.

Dehqonchilik qo'shiqlari ham aytimlarning salmoqli qismini tashkil etadi. Ularga oid namunalar esa dehqonchilikning turli faoliyatlari bilan bog'liq holda ijod qilingan. Jumlanad, yer haydash paytida "Qo'sh haydash" kuylangan bo'lsa, hosilni o'rib olishda "O'rim" qo'shig'i, xirmon yanchig'ida esa "Ho'p mayda" yoki "Mayda – mayda" qo'shiqlari aytilga.

Mayda desam, xo'p deydi, mayda – yo mayda,

Xo'pga ko'nglim ko'p deydi, mayda – yo mayda.

Maydi qilib qo'ygan so'ng, mayda – yo mayda,

Peshonamdan o'p deydi, mayda – yo mayda.

Mehnat jarayoniga mansub aytimlarning yana bir turkumini hunarmandchilik qo'shiqlari tashkil etadi. Bu namunalar asosan charx (ip) yigirish to'qish, do'ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan bog'liq xotin – qizlar ijodi bo'lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo'shiqlariga nisbatan keyinroq shakllangandir.

Hunarmandchilik qo'shiqlarining eng keyingi qatlamlariga mansub ba'zi aytimlarda tanilgan janr misqiyosidan chetga chiqish hollari nihoyatga kuchayganligini kuzatish mumkin. Masalan, "Charx" aytimi yalla xususiyatlari bilan sug'orilganki, natijada u mehnat jarayonidan ko'ra ko'proq raqs o'yini bilan ijro etilishi tabiiyroqdir.

Charxim tanob tashlaydi,

o'ynag yor o'ynang,
Bir baloni boshlayda,
o'ynag yor o'ynang.

Odatda shu kabi aytimlar sahnaviy ijro shakli uchun mo'ljallangan bo'lsa, unda doira va boshqa jo'rsiz cholg'ular qo'llaniladi.

O'zbek dehqoni yer haydaganda, urug' sepganda, hosilni yiqqanda va aravada tashiganda, hirmon yanchganda qisqasi, barcha mehnat jarayonida qo'shiq yaratgan va uni kuylab kelgan.

O'zbek folkloridagi marosimga aloqasiz epik janrlardan biri va eng yirigi doston hisoblanadi. Doston asosida xayoliy uydurma yotadimi, konkret o'tmish voqealari tasvirlanadimi, bundan qat'iy nazar, asar xalqning qahramonona o'tmishi sifatida tashkil qilindi.

Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubining muhim qismini dostonchilikan'analari tashkil etadi. Dostonlar tarkibida nasriy va nazmiy qismlar bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak bo'ladi. Jumladan “Alpomish”, “Yodgor”, “Avazxon” kabi dostonlar shunday ko'rinishga egadir.

Vohada doston ijrochilarini yuzboshi, shoir yoki baxshi deb yuritadilar. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq kuylovchisi va soz (do'mbira) chaluvchisi birlashgan bo'ladi. Baxshilar dostonlarining nasriy qismlarini mahorat bilan vodiy so'zlab, hikoya etsalar, she'riy bo'laklarini qo'shiq shaklida kuylaydilar va bunda do'mbira sozidan jo'rovoqlik sifatida foydalaniladilar.

Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi vujudga kelgan. Bu Shahrisabz va sherobod dostonchilik maktablaridir.

Abdulla Nurali, Islom Nazar o'g'li kabilar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridir.

Baxshilar doston ijro etayotgan paytida maxsus “bo'g'iq ovoz” bilan kuylaydilar, hamda do'mbira sozidan o'zlariga jo'rovoqlik qiladilar.

Bo'g'iq ovozda kuylash esa dostonlarni ijro etish uchu asos etib olinganan'anaviy uslub bo'lib, bunday kuylash uchun baxshilarda maxsus ijroviy malakalar xosil etiladi. Baxshilarni tarbiyalab yetishtirishda “ustoz – shogird” maktabi qo'llaniladi. Bu shunday maktabki, unda baxshi bo'lish istagida talabgor ustoz – baxshiga o'quvchi shogird tushadi. Shundan so'ng u ko'p yillar (5-10 yil) davomida ovozda kuylash, do'mbira chertish kabi ijrochilik maktablari bilan birga yana “Alpomish”, “Avazxon”, “Go'ro'g'li” kabi dostonlarni yod oladi, ularni aytib berish uslublarini o'rganadi.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq dehqonchilik bilan bog'liq yig'im terim ishlarini tugatgandan so'ng boshlab, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o'tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biri taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo'ni – qo'shnilar ham ymg'ilib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayrami, to'y marosimlari va boshqa tantanalarni o'tkazishga ham taklif etganlar.

Dostonlarni kuylash qoidalariga ko'ra, avval termalar kuylanadi. Terma biron – bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanigan aytim bo'lib, bunda baxshi o'z bisotidan qisqacha ta'riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata “Qay dostondin iytayin” deb murojlat etadi. Tinglovchilar tinglovi, xoxish – ixtiyori ham sabab bo'lib, baxshi o'z repertuaridan bir doston kuylay boshlaydi.

Xulosa va takliflar

Maktab yoshidagi bolalarni ma'naviy, madaniyatli etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasi ustivor tarbiyalardandir. Ta'lim maktablarida o'tkaziladigan musiqa mashg'ulotlarining asosiy maqsadi go'zallik qonuniyatlari asosida barkamol shaxsni shakllantirish vazifalarini amalga oshirish uchun xizmat qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Musiqiy ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standarti istiqbolga mo'ljallangan dasturdir. Bolalarning nafosat hissiyotlarini tarbiyalash, milliy ruh, milliy musiqa ohanglarini imkon qadar o'zida mujassam etib, musiqadan zaruriy bilm va malakalarni tarkib toptirish dasturini asosiy mezon hisoblanadi.

O'zbek xalqining mahalliy usulblari bo'yicha dasturga dasturga kiritilgan qo'shiq va kuylar o'quvchilarni jonajon vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm – shavqat kabi xislatlar musiqiy obrazlar orqali idrok etilishga qaratilgan.

Milliy ruhni o'zida aks ettirgan mahalliy usulb namunalari bolalarni olamni badiiy his va idrok etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Jumladan boshlang'ich sinf bolalariga xalq qo'shiqlaridan “Oymoma tilla”, “Olmajon”, “Zuv – zuv” “borag'oy”, “Kichkinajon”lar o'rganishga tavsiya etiladi. Yuqori sinflarda musiqa o'qituvchisi “Oshxo'rakam kaptar”, “Besh tosh”, “O'ynaylik omon”, “Bu bog'chda olcha”, “Oq sholi”, “Ko'k sholi”, “Dasta - dasta”, “Boychechak”, “Qaldirg'och” singari mahalliy uslub namunalari yil davomida o'rgatib borish lozim.

O'qituvchi o'zbek musiqasining mahalliy uslublaridan namunaviy qo'shiqlar o'rgatish bilan cheklanib qolmasdan mehnat qo'shiqlaridan, dostonlardan, maqom yo'llaridan, cholg'u kuylari, yallalar katta ashulalardan namunalar tanlab, o'quvchilarga tinglash yo'li bilan ularni musiqiy idrokini shakllantirish mumkin.

Bolalarga mos xalq qo'shiqlarini o'rgatishda o'quvchilarni endigina rivojlanayotgan ovoz xususiyati, ularning musiqaviy qobiliyat darajasi shunigdek, badiiy diniy to'g'ri tarbiyalash va ularni musiqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish zarurligini hisobga olish kerak.

O'quvchilar uchun o'zbek musiqasining mahalliy usulblardan olingan namunalar ham boshqa asarlar singari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal shakllarga, juda ko'p tarixiy dalillarga ega bo'lgan kuy – qo'shiqlardir. Unda milliy musiqaning eng yorqin koloridlari, nafosati xalqning falsafiy – ijtimoiy tafakkurga boy, fikr va g'oyalari o'z aksini topgan. Mahalliy uslub zahirida har bir yerli xalqning o'z boshidan kechirgan voqealarini, uning erk va baxti uchun kurashlarini ko'rish mumkin. O'zbek musiqasining mahalliy usulblari ham davr oynasidir. Binobarin, u o'zi yaratilgan davrning mohiyatini o'sha xalqning muhabbitini, musibatini, erk uchun kurashini va tarixini, baxt –

saodat yo'lidagi orzu – istaklarini aks ettiradi, ya'ni ular o'ziga xos badiiy tilga egadir.

Maktabda bolalarga qo'shiq o'rganish darslarini mahalliy uslublar haqidagi suhbat bilan bog'lash, mahalliy uslub tur va janrlarga, ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning mahalliy iftixori ekanligini asrlar davomida mehnat, kurash va ijodda kishilar uchun ilhom manbai bo'lib kelganligi, turli janrlardagi kuy va qo'shiqlarda xalqimiz tarixidagi voqealar ma'lum darajada aks etganligini o'quvchilarga g'oyat sodda til bilan tushuntirish foydalidir.

Istiqlool sharofati ila ko'p asrli musiqiy merosimizga milliy – ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlanadi. Endilikda biz ham xalqimizning ajoyib, xilma – xil va bir – biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analardan mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo'lmish maqom namunalaridan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik.

Bu erkinliklardan va yuqorida bildirilgan fikr – mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarimizni taqdim etishni lozim topdik.

1. Respublikamizdagi mahalliy musiqiy usulblar bo'yicha o'quvchilar uchun ularga xos qo'llanma yaratish zarur.
2. barcha uslubiy yo'llar bo'yicha xalqimizning musiqa san'ati aks ettirgan disketlar yaratilish va barcha umumta'lim maktablariga tarqatilishili zarur.
3. Mahalliy musiqiy uslub namunalaridan hamma sinf darsliklariga kiritish lozim. Buning uchun o'quvchilar o'zlarida kuy – ohanglarning sof buloqlarning sof buloqlari bo'lgan xalq kuy – qo'shiqlarini, mumtoz maqomlarini tinglash madaniyatini, ularni zarur darajada ijro eta olish malakalarini hosil etmoqlari kerak shundagina o'quvchilar iste'dodli ajdodlarimiz ijodi bois qadimdan davom etib kelayotgan boy badiiy ananalarimiz silsilasiga ma'noi bog'lanishiga erisha oladi. Zero, milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi badiiy go'zal ifodasi va ayni paytda yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozug'idir.

Bitiruv malakaviy ishda bayon etilgan o'zbek musiqasining mahalliy uslublari darslik sifatida bolalarga xalqimizning ana shunday qadimiy va doimo navqiron bo'lgan ajib navolarining qalblarga jo qilishda ko'mak bo'ladi, bolalarga diyorimizning turli vohalarida yuzaga kelgan mahalliy musiqa an'analari bilan atroflicha imkonini ham beradi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012.
www.Completevocalinstitute.com
2. American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
3. Ўзбек мусиқаси тарихи. Т., 1981.
4. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. Т., 1963.
5. История музыки Средней Азии и Казахстана. М., 1995.
6. Матякубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал музика асосларига кириш. Т., 1983.
7. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1980.
8. Ибрахимов О. Мақом ва макон. Т., 1997.
9. Караматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972.
10. Ражабов И. Мақом асослари. Т., 1992.
11. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Т., 1993.
12. Соломонова Т.Э. Ўзбек мусиқа тарихи. Т., 1981.
13. О.Иброхимов “Ўзбек мусиқа ижоди”. 1990.

Qo'shimcha adabiyotlar

14. Ш.М. Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январь, № 11
15. Ш.М. Мирзиёев Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент “Ўзбекистон”- 2017й.
16. Ш.М. Мирзиёев Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.
17. Ш.М. Мирзиёев Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.
18. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 1-илова: “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар

стратегияси”. Халқ сўзи газетаси. 2017йил 8 февраль сони ва Интернет ресурс: www.lex.uz.

19. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т., Ўзбекистон. 2014 – 46

20. Караматов Ф.М. Ўзбек халқи музыкаси мероси. XX аср.1-китоб Т., 1978,1982.

21. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тузувчи Е. Романовская.1-2 китоб Т., 1939

22. Ўзбек халқ музыкаси. 1-8 жилдлар Ю.Ражабий, М.Юсупов ёзувлари. Т., 1955-1961.

23. Романовская Е. Хоразм халқ музыкаси. Т., 1939

24. Успенский В. Шесть музыкальных поем (Шашмаком) Бухара, 1924.

25. Шашмаком 1-6 ж. Ю. Ражабий ёзуви. Т., 1966-1975.

26. Шашмаком в1-5 тт. Записи Файзуллаева Б. Саҳибова С.Н. Вахабова Ф.М. 1950-1967.

27. Хоразм мақомлари 5 китоб М. Юсупов ёзуви. Т., 1980-1987.

28. Шахноз-Гулёр. В. Успенский ёзуви. Т., 1956.

Internet saytlari

www.тдпу.уз

www.педагог.уз

www.ZioNET.уз

www.еду.уз

тдпу-интернет.пед